

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TAʼLIM, FAN VA INNOVACIYALAR
VAZIRLIGI

ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА
УНИВЕРСИТЕТИ



ДЖИЗАКСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

**«МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ МОДДИЙ ВА
МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИ: ЗАМОНАВИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР, МУАММО ВА ЎРГАНИШ
УСУЛЛАРИ»**

**«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА
НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОБЛЕМЫ
И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»**

АХБОРОТ ХАТИ



Манзил: 130100.Жиззах вилояти, Жиззах шаҳар,
Шароф Рашидов кўчаси, 4

Масъуллар:Мажидов Анвар Сиражович,
Абдугаппаров Ориф Абдуназар ўғли

Телефонлар: 99893 650 24 72, 99891 942 27 22

e-mail: abdigapporovorif@gmail.com <https://jspi.uz>

31 октябрь 2023 й. Жиззах

Хурматли

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 27 апрелдаги № 39-сонли Фармойиши асосида, Жиззах давлат педагогика университетида 2023 йил 31 октябрь куни ўтказиладиган **“Марказий Осиё халқлари моддий ва маънавий маданияти: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари”** мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуманда иштирок этишга таклиф этади.

Халқаро илмий-амалий анжуман қуйидаги йўналишлар бўйича илмий мақолалар ва тезисларни қабул қилади:

1. Евросиё халқларининг қадим, ўрта асрлар, янги ва энг янги давридаги маданий алоқалари
2. Тарихни ўрганишда археология, этнография, тарихшунослик ва манбашунослик масалалари
3. Ўтроқ деҳқон ва кўчманчи чорвадорлар маданияти: культурогенез ва этногенез масалалари
4. Марказий Осиё халқлари тарихининг замонавий тадқиқотларда ёритилиши: муаммо ва ўрганиш усуллари

Мақола ва тезислар ўзбек, рус ва инглиз тилларида 2023 йилнинг **20 октябрь куни соат 24:00 га** қадар электрон шаклда: **+99891 942 27 22 (Абдугаппаров Ориф Абдуназар ўғли), +99893 650 24 72 (Мажидов Анвар Сиражович)** телеграмм ёки қуйидаги электрон почта манзили: **abdigapporovorif@gmail.com** орқали юборилиши лозим.

Конференцияга тақдим этиладиган илмий мақолалар ва тезислар учун талаблар:

-илмий мақолалар ва тезислар конференция йўналишига оид долзарб мавзуларда (ўзбек тилидаги мақола ва тезислар кирилл алифбосида), илмий таҳлилга ва тугалланган фикрларга асосланиб, таҳрир қилинган ҳолда амалий таклиф ва тавсиялар билан тақдим этилиши лозим;

-тезис матни MS WORD матн муҳарририда, Times New Roman шрифти, 14 ёзув ўлчами катталигида, 1,5 интервалда бўлиши ва 3 бетдан кам бўлмаслиги лозим;

- тезис матнлари А4 ҳажмда, юқоридан ва пастдан 2 см, чапдан 3 см, ўнгдан 1,5 см жой қолдириб расмийлаштирилиши керак;

-тезиснинг номи бош ҳарфлар билан ёзилади.

-муаллифнинг исми, фамилияси;

-илмий даража ва унвони ҳамда иш жойи;

фаол электрон почтаси, телефон рақами – мос равишда 3 та қаторда (ўнг юқори бурчак, курсивда, 12 ёзув ўлчами катталигидаги шрифт, 1 интервал) кўрсатилади. Сўнгра 1 интервал қолдириб, асосий матн 1,5 интервалли қаторларда ёзилади.

-тақриз талаб этилмайди.

-аннотация, калит сўзлар уч тилда (ўзбек, рус ва инглиз тилида)

-барча иқтибослар квадрат қавсда берилиб, адабиёт тартиб рақами ва саҳифаси кўрсатилади. [1, Б. 3]

-фойдаланилган адабиётлар матн охирида берилади;

-тезисни сақлашда йўналиш рақами ва муаллиф фамилияси ёзилади.

(Масалан: 1.Хошимов Т. Р.дос (юз қисмида)

-фақат таҳрир ҳайъатидан ўтган мақола ва тезисларга тўловни амалга оширинг, деган хабар юборилади ва ҳар бир мақола ва тезис учун 100 000 (юз минг) сўм тўланади (саҳифалар сони 4 – 8 бет).

-Тўловлар:

9860 1201 3221 2404 XUMO (Абдугаппаров Ориф Абдуназар ўғли) Слиск, пайме орқали амалга оширилиши мумкин.

Тўловни тасдиқлаш учун тўлов тўғрисидаги маълумот (скриншот) юборишингиз сўралади. Телефон рақами +99891 942 27 22 Абдугаппаров Ориф Абдуназар ўғли.

Конференцияда иштирок этиш учун илмий мақолалар ва тезислар қабул қилиш тартиб-қоидалари:

- Юборилган тезислар таҳрир ҳайъати томонидан кўриб чиқилади ҳамда фақатгина сараланган илмий мақолалар ва тезислар муаллифларига хабар қилинади, муаллифлар 2 нафардан ошмаслиги лозим.

- Кўрсатилган муддатдан кечикиб тақдим этилган, белгиланган тартибда расмийлаштирилмаган, конференция мавзуси ва йўналишларига мос келмайдиган тезислар таҳрир ҳайъати томонидан кўриб чиқилмайди.

- Тўпламга профессор-ўқитувчилар, докторантлар, мустақил изланувчилар, магистрантлар илмий мақолалар ва тезислар топширишлари мумкин.

-Анжуман материаллар тўпламига топшириладиган илмий мақолалар ва тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлигига муаллиф жавобгардир.

- Анжуман якунида иштирокчиларга тўплам ва сертификатлар тақдим этилади ёки онлайн тарзида юборилади.



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
ФАКУЛЬТЕТ ИСТОРИЯ**

***МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ***

***«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА
НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОБЛЕМЫ
И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»***



2023/Октябрь 31

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

***“MARKAZIY OSIYO XALQLARI MODDIY VA MA’NAVIY
MADANIYATI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR, MUAMMO VA
O‘RGANISH USULLARI”
XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMANI***

***МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА НАРОДОВ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»***

www.jspu.uz

**ДЖИЗАК, УЗБЕКИСТАН
31 октября 2023 года**

«Markaziy Osiyo xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyati: zamonaviy tadqiqotlar, muammo va o’rganish usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami. – Jizzax DPU, 2023. – 406-bet.

Mazkur to’plamga kiritilgan maqolalar tarix, arxeologiya va etnologiya sohalarining muhim masalalari bilan bog’lik xolda talqin qilingan. Mutaxassislar, o’qituvchilar va talabalar uchun mo’ljallangan.

В статьях вошедшие в этот сборник, интерпретируются в связи с важными вопросами истории, археологии и этнологии. Она предназначена для специалистов, преподавателей и студентов.

These articles included in this collection are interpreted in connection with important issues of history, archeology and ethnology. It is intended for professionals, teachers and students.

Mas’ul muharrir:
dots. M.H. Pardayev

Ответственный редактор
доц. М.Х.Пардаев

Executive editor
doc.M.Pardaev

Mas’ul kotib:
A.S. Majidov

Ответственный секретар
А.С.Мажидов

Executive Secretary
A.Majidov

Tahrir hay’ati:

Редакционная коллегия:

Editorial board:

prof. B.H.Matboboyev
prof. F.AAxmedshina
prof. B.Mirkomilov
dots. F.E. Toshboyev
dots. F.Sh.Aqchayev
dots. A.H. Pardayev
A.X.Valiyev
PhD. B.N.Mirzayev

проф. Б.Х.Матбобоев
проф. Ф.А.Ахмедшина
проф. Б.Миркомиллов
доц. Ф.Э.Ташибаев
доц. Ф.Ш.Акчаев
доц. А.Х. Пардаев
А.Х.Валиев
Б.Н.Мурзаев

prof. B.Matboboev,
prof. F.Axmedshina,
prof. B.Mirkomilov,
doc. F. Toshboev,
doc. F.Akchaev,
doc. A. Pardaev,
A.Valiev,
PhD. B.Mirzaev

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashining 2023-yil _____-oktabr ___-sonli yig’ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Ma’ruzalar materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligiga mualliflar javobgar.

o'shinish bo'yicha olib borilgan amaliy ishlar o'zining ijobiy natijalarini berganligini shu o'rinda ta'kidlash joiz. Aholimizning o'rtacha umr ko'rishi mustaqillik davrida 7 yilga oshgani va 73 yoshni tashkil etgani, ayollarimizning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetgani, onalar o'limi 3,2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3,1 barobar kamaygani, bugun balog'at yoshidagi bolalarimizning bo'yi avvalgiga nisbatan o'rtacha 5 santimetrغا, vazni 4-8 kilogrammغا ortgani, ko'krak qafasining esa 6-8 santimetrغا kengaygani kuzatilmoqda [6, B.5].

Xulosa qilib aytganda, yangilanayotgan O'zbekiston xalqi bugun o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatiga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan dorilomon zamonda yashamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini kamol toptirish. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2013.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.II. T.: 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi // "Postda". 2010 yil 25 sentabr
4. "Hayot va iqtisod" jurnali. 1991, №2-son.
5. Охрана здоровья СССР. М.: 1990.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: 2010.

**JAHONDA VA O'ZBEKISTONDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN
BOLALAR TA'LIM -TARBIYASI TARIXI**

Ishmatova O. S. - o'qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda va O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim -tarbiyasi tarixi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Surdopedagogika tarixi, qadimgi Yunoniston, inklyuziv ta'lim, fonetik ritmika, harakat, temp, og'zaki nutq, Koxlear implantatsiya

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории образования и воспитания слабослышащих детей в мире и в Узбекистане.

Ключевые слова: История сурдopedagogики, Древняя Греция, инклюзивное образование, фонетическая ритмика, движение, темп, устная речь, кохлярная имплантация

Annotation: This article talks about the history of education of hearing impaired children in the world and in Uzbekistan.

Keywords: History of sign language pedagogy, ancient Greece, inclusive education, phonetic rhythmicity, movement, tempo, oral speech, Cochlear implantation

Ma'lumki, til vositasi yordamida inson muloqotga kirishadi, ushbu jarayonda axborot oladi, fikr almashadi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Kishilik jamiyatida ana shunday zaruriy ahamiyatni kasb etuvchi tilni o'zlashtirish faqat ishilarining o'zaro nutqiy muloqoti (kommunikatsiyasi) sharoitidagina amalga shiriladi. Nutqiy muloqotning etarli darajada amalga oshishida eshitishning o'rni beqiyos bo'lib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok etish sanaladi. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili hisoblanib, u orqali insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishir sodir bo'ladi[1]. Har bir inson hayotining o'ziga xosligi va

qadriyatlarining tan olinishi, bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash zaruriyati kabi insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim ekanligi tobora keng anglanmoqda [2]. Qayd etilgan g'oyalar O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan qator me'yoriy hamda xuquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topmoqda. Mamlakatimizda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning, barcha sog'lom tengqurlari qatori, milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil etuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni hal etishda so'zlashuv nutqi asosiy o'rinni egallaydi. Eshitishida muammosi bo'lgan insonlar haqida mulohaza yuritishdan avval ularning ta'lim tarbiyasini tashkil etish haqidagi tarixni eslamaslik xato deb hisoblaymiz. Surdopedagogika tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Tarixiy manbaalardan shuni aniqladikki Yunon faylasufi Arastu (er.av. 384-322 y.y.) o'zining «Xis etuvchilarning xissiyotlari» va «Xissiy idrok va uning ob'ektlari» kabi asarlarida sezgi organlarning o'zaro tobelik sabablari haqida fikr yuritib, karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta'sirini ochib berar ekan, soqovlikni tug'ma karlikning oqibati ekanligini qayd etadi. Olim sezgi a'zolaridan biri faoliyatining izdan chiqishi insonning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi». Faylasufning aynan mana shu fikrlari, uning o'zi bilmagani holda, surdopedagogik ta'limotning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida muhim o'rin egallagan italiyalik professor Jerolamo Kardano «Nafisliklar haqida», «Sezgilar fiziologiyasi haqida», «Mening hayotim haqida» kabi asarlarida tarixda birinchi bo'lib karlik va soqovlikning fiziologik asoslarini tushuntirib berdi, uning sabablarini, karlik ma'lum bir xastalik oqibatida yuzaga kelishi, soqovlik esa karlik oqibatida yuzaga kelishini ta'kidladi. Olim o'z farzandlari bilan o'tkazgan uzoq yillik tajribalari asosida karlarni o'qitishda sog'lom sezgi a'zolariga tayangan holda ish olib borilsa, yuqori natijalarga erishish mumkinligini isbotlab berdi. Ispaniyalik rohib birinchi bor kar-soqov bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanganligi tarixdan ma'lum. Bunga o'sha davrdagi zodagon bir oilada eshitmaslik nuqsoni irsiy bo'lgani sabab bo'lgan. Zodagonlarning buyurtmasiga ko'ra Педро De Leon ular bilan shug'ullanadi. U o'z ishida og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi [3]. Жан-Жак Валад-Габель (1800 yil)- zaif eshituvchilarni eshitadigan bolalar bilan bir joyda o'qitishni fikrini ilgati surdi. Александр Бланше (1817 yil) imo-ishora nutqidan voz kechgan holda daktil nutqidan foydalandi va onalik usulini joriy etdi. X.P. Bonet (1579-1633) o'zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o'rgatish san'ati» Angliyalik J Vallis (1616-1703) va J.Bulver, Shveysariyalik J.K.Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687), E.R.Karrion (1579-1652) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga o'z xissalarini qo'shdilar. Ammo shu paytgacha ular uchun maxsus muassasalar tashkil etilmay qolaverardi...Faqat 14 asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo'lib Sharl Mishel de Epe

(1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab - kar-soqovlar instituti ochildi. Rossiya Federatsiyasida XIX-XX- asrlarda eshitishida muammosi borlarning huquq va erkinliklari oddiy odamlarnikiga tenglashtirilgan. Imperatritsa Мария Фёдоровна tomonidan (1806 yil) birinchi kar-soqov bolalar uchun uchilish tashkil etilib, 1810 yilda u Санкт Петербург ga ko'chirilgan [4]. XIX-XX- asrlarda Rossiyada surdopedagogikaning jadal rivojlanish davri boshlanadi. Aynan shu davra taniqli rossiyalik surdopedagog Фёдор Андреевич Рау o'z ilmiy faoliyatini olib boradi. U turmush o'rtog'i bo'lmish Наталия Александровна bilan Yevropada birinchilardan bo'lib kar bolalar uchun bog'cha tashkil qiladi [5] 1920 yilda karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga o'tishi munosabati bilan eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalariga ahamiyatga molik ish sifatida yondashilishi yuzaga keldi [6]. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab butun dunyoda karlar ta'limi va ijtimoiy ahvoriga nisbatan yangi ijobiy yondashuvlar shakllana boshladi. 1975 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Nogironlar huquqlari haqida» deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan jamiyatni «to'laqonli ko'pchilik» va «noraso ozchilik» guruhlariga bo'lish yuridik jihatdan barham topdi. Milliy pedagogikamiz asoschisi A.Avloniy til shaxs tafakkurining rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan [7]. O'zbek surdopedagogikasining rivojlanishi Toshkentda 1919 yildan faoliyat yurita boshlagan O'rta Osiyoda astlabki barcha nuqsonli bolalar birgalikda ta'lim olishlari uchun mo'ljallangan maktabdan 1922 yilda ilk kar bolalar maxsus maktab-internatining ajrab chiqishi bilan bog'liq. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni tabaqalab o'qitish (kar va zaif eshituvchilar) Respublikamizda 1965 yildan boshlandi. Ushbu yildan Toshkentda rus va o'zbek bo'limlaridan iborat 102-sonli zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar maxsus maktab-internati faoliyat ko'rsata boshladi. Rossiya maxsus maktablari yoki O'zbekistondagi umumta'lim maktablari, ba'zan aqli zaif bolalar maktablari dastur va darsliklarini biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Tabiiyki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maktablari oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi. 1968 yilda nashr etilgan «Alifbe» darsligi kar bolalarni o'qitish amaliyotining sifat jihatidan biroz yuqorilashini ta'minladi [8]. Nizomiy nomli TDPI defektologiya fakulteti qoshida 1983 yilda o'zbek tilida ilk bor «Surdopedagogika» bo'limining ochilishi sohaning nazariy, metodik jihatdan asoslab berilishini taqozo etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan maxsus ta'lim tarmog'i rivojining ixtisoslashgan malakali surdopedagog-mutaxassislar bilan ta'minlanishi orqali jadallashuvini keltirib chiqardi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish dastur va darsliklari, metodik qo'llanmalarining yaratilishi surdopedagogikaning olg'a borishiga omil bo'ldi. Respublika kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari ilk bor ilmiy – amaliy tadqiqot mahsuli hisoblangan hududiy, milliy mentalitet, o'zbek tili qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan o'quv dasturlari hamda darsliklari bilan ta'minlandi.

Respublikada milliy surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o'zbek tili xususiyatlariga mos

holda takomillashtirish yo‘l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo‘naltirildi. Mahalliy olimlarimiz X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor O‘zbekiston sharoitida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni kasbiy – mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko‘tarish yo‘llari ochib berildi. F.D.Alimxodjaevaning uzoq yillik amaliy tajribasi maxsus o‘qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning tabaqalangan metodikasini ishlab chiqish hisobiga zaif eshituvchi o‘quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslab berishga asos bo‘ldi. U.Y.Fayzievaning ilmiy-tadqiqot ishi zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot bo‘lib, unda maktabga tayyorgarliksiz kelgan zaif eshituvchi bolalarning dastlabki nutqiy imkoniyatlari (so‘z boyligi: faol va nafaol nutqi), eshitishining yo‘qolish sabablari va vaqti o‘rganildi, bunday bolalarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish metodikasi ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi. Surdopedagogika sohasida ilk bor N.Sh.Bekmurodov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlar kun tartibi, o‘quv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan talablar ishlab chiqilgan [9]. Hozirda yana bir salmoqli tadqiqot ustida ish olib borilmoqda. U ham bo‘lsa biz tomondan 3 yildan buyon amaliyotda sinalayotgan Fonetik ritmika metodikasining eshitishida muammosi bor bolalar og‘zaki nutqini rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlash va samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlashdir. Fonetik ritmika –bu harakatli mashqlar (bosh, qo‘l, oyoq, tana) majmuasi bo‘lib, ma‘lum bir nutq materiali (iboralar, tovushlar, so‘zlar, tovushlar) ning turli xil harakatlar bilan uyg‘unlashgan holatda talaffuz etish jarayonidir ... deb aytilgan. Yana bu kineziterapiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, uning asosida ritm yotadi... deydi russ olimlari T. M. Власова va A. H. Пфафенродлар o‘zlarining “Фонетическая ритмика” deb nomlangan qo‘llanmasida. Ushbu metodika 1996 yilda amaliyotga joriy etilgan va samarali usul sifatida rossiyada bugunga qadar surdopedagogika va logopediyada keng qo‘llaniladi. Fonetik ritmika metodikasidan amaliy surdopedagogikada birinchi bo‘lib “Suvag” nomli reabilitatsion markazda (Saxa respublikasi, Yakutiya)1995 chi yilda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga og‘zaki nutqni o‘rgatish uchun foydalanilgan [10].

Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘lim-tarbiyasi tarixi va bugunini ilmiy manbaalardan izlanish va tadqiqotlardan olgan ma‘lumotlarimiz asosida tahlil etdik. Ularning jamoatlashuvi borasida qilinayotgan ishlarga biz ham hissa qo‘shish bilan fan va soha rivojlanishi tarixining taraqqiy etishida ishtirok etmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мамаражобова З.Н. *Сурдопедагогика*. Т.: 2017.
2. Шматко Н.Д. *Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991.*
3. <https://ppt-online.org/460261>
4. Зайцева Г.Л. *О проблемах современной сурдопедагогике // Дефектология. 1998, №2.*
5. Fayziyeva U. Yu. *Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish. Ped. fan. nom. dis.avtoref. T.: TDPI, 1994.*
6. Fayziyeva U. *“Alifbe”, “Nutq o‘stirish”, N.Dadaxo‘jayeva. “Matematika”. T.: 1989.*
7. Qodirova F.U. *Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish. Ped. fan. nomz. diss. Avtoref. T.: TDPU, 2006.*
8. <http://www.suvag.net/istoriya-tsentra/http:>

**IMKONIYATI CHEKLANGANLARGA IJTIMOYIY YORDAM KO‘RSATISH
BO‘YICHA KECHAYOTGAN ISLOHOTLAR XUSUSIDA**

Bobojonov Safar – tayanch doktorant JDPU

Ushbu maqolada respublikamizda imkoniyati cheklanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar xususidagi muallifning fikr-mulohazalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy himoya, Prezident, pensiya ta‘minoti, nogironlik, ehtiyojmand oila

В данной статье представлено мнение автора о реформах в сфере оказания социальной помощи лицам с ограниченными возможностями в нашей республике.

Ключевые слова: независимость, рыночная экономика, социальная защита, Президент, пенсионное обеспечение, инвалидность, малообеспеченная семья

This article presents the author’s opinion on reforms in the field of providing social assistance to persons with disabilities in our republic.

Keywords: independence, market economy, social protection, President, pensions, disability, low-income family

Respublikamiz mustaqilligining ilk yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Bu esa olib borilgan islohotlarning avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishining yorqin dalili ekanligini isbotlaydi. Jahon e’tirof etgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyilning aynan biri ham kuchli ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan edi. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog‘i lozim. Davlat o‘z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina, insonparvar hisoblanadi” [1, B.65]. Shu maqsadda har yili ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan saramoyalarning ko‘lami ortib bormoqda. Masalan, 2006 yilda byudjet mablag‘larining 51,9% i 2008 “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi doirasida aholining ijtimoiy himoyasiga 484 mlrd, so‘mdan ortiq (53,8%), “Yoshlar yili” da 1,5 trln. so‘mdan ortiq (54,6%), “Barkamol avlod yili” doirasida 1 trillion 700 milliard so‘m, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yilida 2 trillion so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi. 2016 yil - Sog‘lom ona va bola yilida mamlakatimiz tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80 million dollar qiymatidagi kredit va grant mablag‘lari yo‘naltirildi, farzand ko‘rish yoshidagi ayollar va bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, sog‘lomlashtirildi [2]. Oxirgi o‘n yillikda bozor munosabatlarga o‘tish bilan bog‘liq yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qator qonunchilik xujjatlarining qabul qilinganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Pensiya ta‘minoti hajmining oshirilishi, turli toifadagi imtiyozlarning kengayishi, salomatligida yaqqol ko‘zga tashlanadigan zaifliklari mavjud bo‘lgan shaxslar uchun imtiyozlarning kengayishi ular uchun nogironlikning ahamiyatli bo‘lishiga olib keldi. Iqtisodiyotning bozor munosabatlarga o‘tishi oqibatida aholi turmush darajasining pasayishi munosabati bilan nogironlik uchun nafaqa va pensiya oladigan shaxslar sonining ortishi (aholi turmush darajasining pasayishi), mehnat bozorida keskinlikning ortishida pensiya ta‘minoti kun kechirish uchun eng birinchi manbadan iborat bo‘lib qoldi. Huquqshunos olim D.Ahmedov qayd etganidek, “Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning boshlang‘ich davrida mamlakatimizda kambag‘allik muammosi o‘tkir muammo bo‘lib turgani tufayli kambag‘al va qashshoq toifalarni himoya qilish uchun samarali chora-tadbirlar ko‘rish, kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish yo‘li tanlandi” [3, B.27]. Ijtimoiy himoya - keng

ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan hamda jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui. Yoki, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikini anglatuvchi tushuncha. Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini davlat o'z zimmasiga oladi. Ushbu masala O'zbekistonda ham ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. YA'ni, mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekiston taraqqiyotining yetakchi tamoyili hisoblanadi [4].

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida ijtimoiy himoyaning huquqiy asosi yaratildi va mustahkamlandi. Bu tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolati yaratildi. Respublikamizda ishsizlik muammolari hal etilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirliklari tashkil etildi. Yurtboshimizning Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomasida yurtimizda kambag'allikni qisqartirish yechimini kutayotgan dolzarb masala sifatida kun tartibiga olib chiqilganligi bu boradagi islohotlar izchil davom ettirilayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagilar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yildi. Ushbu tizim orqali 527 ming kishining bandligi ta'minlandi. Ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 2 barobarga, ya'ni 1,2 mln. nafarga kengaydi. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2016 yilga nisbatan byudjetdan 5 barobar ko'p mablag' ajratildi [4]. O'z-o'zini band qilgan aholiga soliq imtiyozlarining berilishi, ko'plab cheklovlarning bekor qilinishi natijasida 500 ming nafar insonning rasmiy bandligi ta'minlandi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun 300 mlrd. so'm imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratildi [4]. Mehnat munosabatlariga oid qonunchilik takomillashdi. Jumladan, 2021 yil 20 yanvardan kuchga kirgan "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun amaldagi 3 ta qonun, Prezidentning 12 ta farmon va qarorlarida hamda Vazirlar Mahkamasining bandlik va mehnat bozorini tartibga solish, tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarga oid qabul qilgan 40 dan ziyod meyoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan huquqiy normalarni, tizimdagi so'nggi islohotlarni, yangi moliyaviy mexanizmlarni o'zida jamlagan. Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, 2021 yil yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19,1 mln. kishini tashkil etmoqda. (2020 yilga nisbatan 0,7 foizga yoki 135,5 ming kishiga oshgan). 13,2 mln. kishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida band. 1,6 mln. kishi ishga muhtoj. YA'ni ishsizlik darajasi 11,1 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 16-30 yoshgacha bo'lganlar orasida 17,1 foizni, ayollar o'rtasida esa 14,7 foizni tashkil qilmoqda [4].

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 oktabrdagi qarori asosida esa O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg'armasi tashkil qilindi. Jismoniy va yuridik shaxslarga "Yagona darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatish boshlandi. Aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsiz shaxslarni, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarda yashovchi xotin-qizlarni kasbga qayta o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun

Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan kasb-hunar ta‘limi muassasalariga grantlar ajratilish mexanizmi, “Mikrokreditbank” ATB tomonidan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan hunarmandchilik, kasanachilik hamda ayollar tadbirkorligini mikrokreditlash tizimi joriy etildi. Prezidentimizning 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham ayollar bandligini ta‘minlash, kasb-hunarga o‘qitish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qator vazifalar belgilab berildi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi. Endi masalaning yana bir muhim jihatiga e‘tiborimizni qaratsak. Biroq, har qancha ijobiy o‘zgarishlar bo‘lmasin, nogironlar har qanday jamiyatda yakkalanib qolmoqdalar. Garchi inson huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro darajada yaratilgan meyoriy qoidalar butun dunyodagi turmush sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilagan bo‘lsa-da, nogironlar bu borada e‘tibordan chetda qolmoqda. U yoki bu mamlakatda inson huquqlari yoki iqtisodiyotning ahvoli qanday bo‘lmasin, odatda, nogironlarning inson sifatidagi huquqlariga oxirgi navbatda ahamiyat beriladi. Nogironlar mustaqil bo‘la oladigan imkoniyatdan mahrumliklari sabab ularning ko‘pchiligi boshqalarning muruvvati va marhamatiga qaramdir [5]. Keyingi yillarda jahonning barcha mamlakatlarida bu holatni inson huquqlarining rad etilishi, buning oqibatida 650 million odam jabr ko‘rayotgani anglab yetilmoqda va bundan buyon bu bilan murosa qilish mumkin emas. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya - bu xalqaro hamjamiyatning nogironlarning asrlar davomida kamsitilishi, ijtimoiy yakkalab qo‘yilishi va ularga nisbatan insonparvarlikka xos bo‘lmagan harakatga nisbatan javobidir. Ushbu tarixiy hujjat ko‘p jihatlari bilan asriy ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki, bugunga qadar xususan, inson huquqlari sohasida birorta xalqaro shartnoma shu qadar tez tuzilmagan edi, qolaversa, u XXI asrning birinchi hujjati hisoblanadi. Konvensiya fuqarolik jamiyati, hukumatlar, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy muassasalar va xalqaro tashkilotlar ishtirok etgan uch yil davomidagi muzokaralar natijasidir. Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yilning dekabrda qabul qilinishi bilan darhol, 2007 yil mart oyida imzolash uchun ochilgandan keyin ko‘plab mamlakatlar “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya va uning Fakultativ protokolini imzolab, nogironlar huquqlariga rioya etishga qat‘iy intilishlarini namoyish etdilar. Konvensiyaning maqsadi insoniyatning jismoniy imkonlari cheklangan qismining boshqalar bilan teng bo‘lgan huquq va imkoniyatlarni kafolatlashdan iboratdir. U nogironlarning kamsitilish obyekti bo‘lgan ko‘pgina sohalarni, shu jumladan odil sudlovdan foydalanish, siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish, ta‘lim olish, ish bilan band bo‘lish imkoniyati, qiynoqlarga solinmaslik, ekspluatatsiya qilinmaslik va zo‘ravonlikka duchor bo‘lmaslik huquqini, shuningdek ko‘chib yurish erkinliklarini qamrab oladi [5]. Fakultativ protokolga muvofiq, unga a‘zo davlatlarning fuqarolari o‘z huquqlari buzilgan hamda himoyalalanishning hamma ichki imkoniyatlaridan foydalanib bo‘lingan, deb hisoblasa, mustaqil xalqaro organga murojaat qilishlari mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 avgustdagi “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-5006-son Farmoyishi va shu asosda 2017 yil 1 dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon nogironligi bo‘lgan

shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish va ularni qo‘llab quvvatlash borasidagi holat to‘liq tahlil qilinishi asosida qabul qilindi [6]. Bu nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini oshirish yana bir pog‘onaga ko‘tarish va ularning barcha jabhadagi huquqlarini to‘liq ta‘minlash borasida tub burilish yasadi. Aynan ushbu farmonga binoan “nogiron” termini o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” termini muomalaga kiritildi. Endi O‘zbekistonda ishlab chiqilayotgan normativ meyoriy xujjatlarda ushbu atamadan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholining kam ta‘minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashning qonunchilik tizimi izchil shakllana bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 5 yanvar kuni sog‘liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassisleri bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2017 yil 12 yanvar.
3. Ahmedov D.Q. Bozor munosabatlari sharoitida davlat ijtimoiy himoya siyosatining huquqiy jihatlari. Toshkent: TDYUI, 2006.
4. <https://xs.uz/uzkr/post/izhtimoij-himoya-amalga-oshirilayotgan-islohotlarda-inson-manfaatlar-ustuvor>
5. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_disabilities_uzb.pdf
6. Xoliqulova H.Y. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati (1991-2014 yy.) tarix fanlari bo‘y. falsafa doktori PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent:2018. .

YUSUF XOS HOJIBNING JAMIYAT VA DAVLATNI IDORA QILISHDA SIYOSIY MADANIYATNING ROLI HAQIDAGI QARASHLARI

Sayidov Murod - dotsent, falsafa fanlari nomzodi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning Qoraxoniylar davrida yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari haqidagi fikr-mulohazalari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Davlat, davlatni boshqarish, jamiyat, siyosat, hukmdor, elning hukmdoriga talabi, hukmdorning elga talabi, bilim.

Аннотация: В данной статье изложено мнение автора о произведении Юсуфа Хос Хаджиба “Кутадгу Билиг”, жившего и творившего в период Караханидов.

Ключевые слова: Государство, государственное управление, общество, политика, правитель, требование народа своему правителю, требование самого правителя от своего народа, знание.

Annotation: This article presents the author’s opinion about the work of Yusuf Khos Hajib “Kutadgu Bilig”, who lived and worked during the Karakhanid period.

Keywords: State, public administration, society, politics, ruler, the demand of the people to their ruler, the demand of the ruler himself from his people, knowledge.

Jamiyat va davlatni idora qilish masalalari o‘tgan zamonlardagi barcha mutafakkirlar ijodida asosiy o‘rinni egallab kelgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib ham o‘z ijodida buyuk mutafakkirlar Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qashg‘ariy singari buyuk salaflarining ijodiy merosiga suyanadi. Shu bilan birga, muammoni tahlil etishda u o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ma‘naviyatga qarab ish tutadi. Ayrim ijtimoiy

masalalarga ratsionalistik naqtai nazardan turib yondashadi, hukmdorlar bilan fuqarolar oʻrtasidagi munosabat masalasida oʻz davri uchun ijobiy boʻlgan fikrlari oʻrtaga tashlaydi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostoni falsafiy-didaktik doston boʻlib, unda muallifning falsafiy-axloqiy qarashlari toʻrtta masalaga qaratilgan. Ularning har biri majoziy obrazlar timsolida bayon qilinadi. Bular Adolat-Quntugʻudi, davlat–Oytoʻldi, Aql-Oʻgʻdulgʻmish, Qanoat –Oʻzgʻurmishdir. Ana shu obrazlarning sarguzashtlari, suhbat-munozaralari va savol-javoblari orqali Yusuf Xos Hojibning jamiyat, davlat hamda uni idora qilish toʻgʻrisidagi qarashlari bayon etiladi.

Mutafakkirning siyosiy madaniyati naqadar yuksak boʻlib, u ana shu yuksaklikdan turib, oʻzi yashagan davrga va oʻsha zamonning hukmdorlari siyosatiga nazar tashlaydi. Xuddi shu nuqtai nazarini “Qutadgʻu bilig” asari qahramonlarining qarashlari orqali yurt hoqonlariga yetkazishga urinadi. Buning natijasi oʻlaroq, Qashgʻar hoqoni ijodkorni “Xos xojib”- eshik ogʻasi deb ataluvchi obroʻli mansab bilan taqdirlaydi. Xoqonga maʼqul kelgan bu asar, keyinchalik uning rasmiy siyosatiga aylangan boʻlishi tabiiy. Zero, “Qutadgʻu bilig” faqatgina siyosiy nasihatlardan iborat asargina boʻlib qolmasdan, balki hukmdorlarda omma bilan, xalq bilan muomala qilish madaniyatini, oʻz siyosatini turli usullar orqali xalqqa yetkazish, uni boshqarish va idora qilish madaniyatini shakllantirishga yordam beruvchi qoʻllanma asar boʻlib xizmat qilgan, deb bemalol aytish mumkin. Chunki, Oʻrta Osiyoda ibtidoiy tuzumning yemirilishi, ilk feodalizmning shakllana borishi, turli qabilalardan tarkib topgan feodal davlatni boshqarish, idora qilish ehtiyoji “Qutadgʻu bilig”dek dasturulamal boʻladigan asarlarga boʻlgan ehtiyojni yuzaga keltirgan edi [6,28]. Yusuf Xos Hojibning fikricha, siyosat va axloq bir-biri bilan bogʻliq. Axloqsiz hukmdor davlatni boshqarishga qodir boʻlmaganidek, axloqan aynigan jamiyatda yaxshi siyosat yurgizib boʻlmaydi. Har qanday jamiyatni tanazzuliga yuz tutishi axloqiy buzilishdan, maʼnaviy qashshoqlikdan boshlanadi. Shuning uchun hukmdorlarning siyosati axloqiy normalarning buzilishiga harchand yoʻl qoʻymaslikka qaratilmogʻi lozim. Buning uchun har qanday jamiyatda hukmdor u yoki bu tarzda, jamiyat aʼzolarining siyosiy madaniyatining shakllantirishga eʼtiborini qaratmogʻi darkor. Ana shu maqsad asar qahramonlarining timsolida, ularning faoliyatlari va xatti- harakatlarida oʻzining ifodasini topgan. Maʼlumki, asar qahramonlarning barchasi hukmron siyosat tarafdorlari, uni amalga oshiruvchi kishilardir. Ular qiyofasida adolat, aql-idrok, sabr-qanoat, jismoniy salomatlik, yaxshilik kabi axloqiy fazilatlarni namoyon boʻlishi lozimligi gʻoyasi oʻrtaga tashlanadiki, asarda bu fazilatlar ideal jamiyat va uni boshqaruvchilarining asosiy xususiyatlari boʻlib qolishiga ishora qilinadi.

Yusuf Xos Hojibning ideal el haqidagi utopik gʻoyalari Aflotunning ideal davlat haqidagi gʻoyasi bilan, davlatga boshchilik qilayotgan shaxsning yoki shaxslar guruhining davlatni boshqarishdagi roli va vazifalari haqidagi qarashlari oʻrtasida oʻxshashlik mavjud [5,125]. Maʼlumki, Aflotun oʻzining “Davlat” asarida davlat hokimiyatini mumtoz- faylasuf, aristokratlar boshqarmoqlari lozim, deb taʼkidlagan edi. Bu oʻrinda u aristokrat degan tushunchani tagi zoti butun kishilarga muqoyasa qiladi. Yusuf Xos Hojib ham “otasi bel boʻlsa, oʻgʻil ham bek (boʻlib) tugʻiladi, bek boʻlib tugʻilgan oʻgʻil ham otasidek boʻladi”, deydi [4,331]. Koʻrinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib muayyan tarzda hukmdorni ideallashtiradi, ilohiylashtiradi. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, bu davrda islom dinini taʼsiri kuchli boʻlgan, islom mafkurasi hukmron boʻlgan. Hukmdorlar Xudoni yerdagi soyasi deb targʻib etilardi. Shubhasiz, Yusuf Xos

Hojib ham o‘z davrining farzandi sifatida mazkur tarixiy davrdagi hukmron mafkura ta’siridan chiqib ketaolmagan. Uning fikricha, bek (ya’ni elig) davlatning hukmdori, uning irodasi mamlakat aholisi uchun qonundir, ya’ni “podshoiy hukmu vojib”. Beklik mansabiga erishgan kishi bexosiyat bo‘lmaydi, balki u ilohiy qudrat xoxishi bilan dunyoga kelgan insondir.

Bayt kimki bersa bu baglik ishi,

Barur uch ko‘ngil ko‘r ul ishqa tushi.

Kimi bag turutmak tilasa bayat,

Barur ashnu qilq yang unush yo‘g qanoat. [4,328].

Mazmuni: Bayat Xudo kimga beglik vazifasini bersa, avval unga harchoq fahm idrok va ish asoslarini baxsh etadi, Xudo kimni bek qilmoqchi bo‘lsa, avvalo qushga pat-qanot berganidek, xulq-atvor, fahm-farosat ato qiladi. Dostonning g‘oyaviy mazmuniga e’tibor berilsa, Yusuf Xos Hojibning falsafiy qarashlari uni bir tomondan, davrning ilg‘or g‘oyalarini ilgari surgan mutafakkir va davlat arbobi bo‘lganligiga, ikkinchi tomondan esa qoraxoniylar saroyida hizmat qiladigan hukmdorlardan biri ekanligiga amin bo‘lamiz. Bunga tarixiylik nuqtai nazaridan qarash zarur, biroq ayrim olimlar mazkur masalaga bir tomonlama yondoshadilar. Masalan, tadqiqotchi olim O. Jo‘rayev o‘zining ”O‘zbek kassik adabiyotida falsafiy-didaktik dostonchilik” risolasida taniqli adabiyotshunos N.M. Mallayevni “... u Yusuf Xos Hojibni feodallar manfaatini ifodalagan ijodkor sifatida talqin qiladi”, - deb tanqid qiladi [3,39]. Bunday tanqid esa noo‘rin bo‘lib, haqiqatga butunlay ziddir. Endi taniqli adabiyotshunos N.M. Mallayevning fikr-mulohazalariga e’tiborimizni qaratsak: “Yusuf Xos Hojibning bek va uning saroy ahli haqidagi fikr-mulohazalari feodal davlat hokimiyatini mustahkamlashga, nisbiy osoyshtalik barqaror etib, feodal xo‘jalik va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Binobarin, Yusuf Xos Hojibning fikr-mulohazalari, shubhasiz, o‘z davri uchun progressiv qimmatga ega edi. Shoirning “elning hukmdoriga”, “hukmdorning elga talabi” haqidagi mulohazalari ham feodal tendensiozligiga qaramay xo‘jalik va madaniyat taraqqiyoti, mamlakatning obodligi va osoyshtaligi jihatidan ma’lum ijobiy ahamiyatga ega edi. ... bu talablar shubhasiz feodal hukmronlikni mustahkamlash va mehnatkash ommaning qaramligini kuchaytirishga qaratilgan” [2,120-121]. Olimning bu so‘zlari butunlay haqiqatga to‘g‘ri keladi. Zotan, Yusuf Xos Hojib davlat arbobi bo‘lganligi uchun ham feodal davlatni mustahkamlashga harakat qilgan. Ayni bir vaqtning o‘zida hukmdorga murojaat qilib, uni davlatni idora qilishda quyidagi talablarga rioya qilishga chaqiradi (mazmuni): “Ey hukmdor, xalqning senda uch haqi bor, sen bu haqni to‘la va o‘z joningga jabr qilma, bu haqning biri: pulning kursini ko‘tarish, unda oltin va kumushning sofligini oshirish va buni kuzatib turishdan iboratdir. Yana biri: el uchun ishonchli, mustahkam va to‘g‘ri qonunlar chiqar, buni el sendan kutadi. Uchinchisi: yo‘llarni qaroqchilardan, xarob qiluvchilardan tinch va osoyshtalikda saqla”. Yuqoridagi da’vatkor so‘zlar bizga Qoraxoniylar davrida ichki va tashqi savdo ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Hukmdorlarga qo‘yilgan ikki talab (oltin-kumush sofligini oshirish, yo‘llarni bexatar qilish) ko‘proq savdo-sotiq ahillarining talablaridir. Lekin, umuman olganda bu talablar adolatli bo‘lib, mohiyat e’tiboriga ko‘ra ijobiydir. Bularning evaziga hukmdor xalqdan uch narsa talab etishga haqli. “Ey xalqning sardori, xalqning senga bo‘lgan shu talablarini bajarganingdan so‘ng, o‘zing ham xalqdan quyidagi uch narsani talab qilishga haqli bo‘lasan. Biri – har qanday yorlug‘ (qonun) chiqarsang, uni hamma

so‘zsiz va tez bajarishi kerak. Ikkinchi – davlat soliqlarini o‘z vaqtida saxiylik bilan davlat xazinasiga topshirib tursinlar. Uchinchi- butun xalq do‘stingga do‘st, dushmaningga dushman bo‘lishi kerak” [4,209]. Yusuf Xos Hojib asaridan keltirilgan parchalar hech qanday izoh talab qilmaydi. Chunki, u hamma uchun tushunarli. Barcha zamonlarga, shuningdek, hozirgi bizning bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan sharoitimizga ham to‘g‘ri keladi. Yusuf Xos Hojib o‘zining podsho va uning atrofidagi hukmdorlar qanday bo‘lishligi haqidagi mulohazalarini “Qutadg‘u bilig” dagi obrazlar qiyofasida mujassamlashtiradi. Hukmdor, donishmand va ayni vaqtda xulq atvori go‘zal, umuman oliy fazilatli bo‘lmog‘i lozim. U atrofiga xuddi shunday kishilarni to‘playdi, ular bilan kengashadi, mamlakatda tartib o‘rnatadi, zolimlarga tanbeh berib, mazlumlarni shod qiladi. Uning ana shunday adolatli faoliyati tufayli mamlakatda ijtimoiy ziddiyatlar, o‘zaro kelishmovchiliklar barham topadi, bu siyosat hatto, qo‘y bilan bo‘rini ham inoqlashtiradi:

Elni etti tuzdi, boyudi budun,
Bo‘ri qo‘y bila suvladi ul udun.

(Elida tartib o‘rtandi, uni tuzdi, xalq boyidi, u davrda bo‘ri qo‘y bilan birga suv ichdi) [4,172]. Bu bilan u jamiyat a‘zolarini murosai madoraga chaqirfdi, mamlakat barqarorligi yo‘lida har qanday ichki kelishmodchiliklar barham topishi, zarur degan xulosaga keladi. [4,210].

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi Yusuf Xos Hojib ham o‘zining axloqiy qarashlarini ijtimoiy-siyosiy qarashlar bilan bog‘laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: “O‘qituvchi”, 1976.
3. Jo‘rayev O. O‘zbek klassik adabiyotida falsafiy – dadaktik dostonchilik. T.: “Fan”, 1985.
4. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. T.: “Fan”, 1971.
5. Xayrullayev M.M. Uyg‘onish davri Sharq mutafakkiri. T.: “O‘zbekiston”, 1971.
6. Yoqubov A. Qutadu biligda davlatchilik kansepsiyasi. T. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1997.

“KITOBXONA”NI “KUTUBXONA” DEYILIB KELINAYOTGANI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Tog‘ayev Xo‘jamberdi – tarix, biologiya, fizika, matematika va texnika fanlaridan qit‘alararo mutafakkir, “London Xalqaro Ilmiy Akademiyasi va Oliy ta‘limi”da “Butun dunyo qit‘alararo ilmiy ishlar tahlili” bo‘yicha ekspert a‘zosi, Ismoilov To‘ychi– pedagogika fanlari nomzodi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda kitobchilik ishlari bo‘yicha axborotiy tahlillar asosida “Kitobxona” va “Kutubxona” atamalarining qo‘llanilishi haqidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: kitob, maktab, muallim, axborot, ma‘lumot, arab, kutubiya, tarbiya, ilmiy, adabiyot, madaniyat.

Аннотация. В статье на основе анализа информации Центральной Азии по названию библиотечного дела “Китобхона” и “Кутубхона” излагается научного обоснованные рекомендации по их применению.

Ключевая слова: книга, школа, учитель, сообщения, образования, араб, кутубия,

воспитания, научный, литература, культура.

Annotation. *The article, based on an analysis of information from Central Asia on the names of librarianship “Kitobkhona” and “Kutubkhona”, sets out scientifically based recommendations for their application.*

Keywords: *book, school, teacher, information, education, Arab, kutubiya, upbringing, scientific, literature, culture.*

Kitob o‘qishimiz bilan undan keladigan nurlar jimirlab, qalbimizdan ruhimizga singib boraveradi. Harkim komillikka intilar ekan, kitoblardan saboq oladi. Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz qadimda kitobning buyukligi haqida quyidagilarni bejiz ta’qidlamaganlar:

“Olamda kitobdan aziz do‘st yo‘qdir”.

Navoiy.

**“Agar yolg‘iz ersang hamdam kitobdur,
Bilim subhidagi nur ham kitobdur”.**

Jomiy.

**“Ilm o‘lja bo‘lsa, kitob bir tuzoq,
Ov tuzoqda mahkam bo‘lsa ma‘qulroq”.**

Binoiy.

O‘zimdagi hamma yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman”.

M. Gorkiy.

“Kitobsiz xonadonni go‘yo qalbsiz jasadga qiyoslash mumkin”

Sitseron.

“Kitobning kuchi – atomdan ham qudratlidir!”

Grobovskiy.

**“Kitob – misoli oftob”, “Kitob- ilm koni”, “Kitob – tafakkur ummoni”,
“Kitob – qalb quyoshi”**

Matbuot vositalari.

Kitob – bu inson tafakkuri javohirlarining yig‘indisi, bir avlodning ikkinchi avlodga ma’naviy-ma’rifiy vasiyatnomasi, kishiga bir umrlik sodiq do‘st, hamisha harerda sirdosh va maslahatgo‘ydir, kishilikning butun hayoti unda aks etadi. Bu esa, qanday kasb egasi bo‘lmaylik harbirimizdan ona tilimizning qonun-qoidalarini bilish, fikrni og‘zaki va yozma shaklda izchil va turlamasdan tuslamasdan bayon qilishni taqozo etadi. Kitob – axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan, ya’ni hajmi 3 bosma varaqdan ortiq asarni shartli ravishda, kitob deyish qabul qilingan. Ma’lumki hayot tarzimiz bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, fan-texnika, texnologiya, san’at va adabiyot, madaniyat va ma’rifat taraqqiyoti bilan hamnafas holda chetdan yangi so‘zlar hamda yasama atamalar ham kirib kelgan. Bu haqida “Fan va turmush” jurnalining 1974-yil №11-soni 12-betidan mavzuga oid “So‘zlar ajoyibxonasi” sahifasida e’lon qilingan matnni o‘z holicha keltiramiz. Unda, “Arablarning O‘rta Osiyoni bosib

olishi (VII asrdan keyin) va bu yerda uzoq vaqt hukmronlik qilishi o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Sinf, maorif, kitob, maktab, muallim, muomala, she‘r, vazn, vaqt, xabar, axborot, ma‘lumot, me‘mor, ma‘mur, mamlakat... va hokazolar bir vaqtlar arab tilidan qabul qilingan va hozirda batamom o‘zlashtirilib, o‘z so‘zlarimizga aylanib ketgan” deyilgan. O‘z vaqtida A.Avloniy bu holatga “tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangan” deb afsuslangan edi. Demak, kitob atamasi bizga arablardan kirib kelgan (arab yozuvi ham shunga taalluqlidir). Shundan kelib chiqib, kitoblar saqlanadigan xonani arablarda “Kitobxona” deb atalishini Abdusodiq Irisovning arabchadan tarjima qilib “Fan va turmush”jurnali (30-bet)da havola etgan “Sharq mutafakkirlari Forobiy haqida” maqolasida keltirilgan quyidagi so‘zi orqali asoslash mumkin, unda: “Zahiruddin Al-Bayhaqiy. Shayx Abu Nasr al-Forobiyning oti Muhammad ibn Tarxon bo‘lib, asli Turkistonning Forob degan joyidan. Bu kishi “Al-Muallim as-Soniy” – “Ikkinchi muallim” deb taxallus olgan. Islom olimlari orasida undan oldin bunchalik o‘tkir odam bo‘lmagan edi. “Men Ray shahri *kitobxonasida* Abu Nasrning shunday asarlarini ko‘rdimki, hatto ular haqida hech qachon eshitmagan ham ekanman. Ko‘rgan kitoblarimning ko‘pchiligi Abu Nasrning o‘z xati bilan yozilgan yoki uning shogirdi Abu Zakariyo Yahyo ibn Adiyning qo‘li bilan ko‘chirilgan edi” deyiladi. Bundan ko‘rinadiki, Ray shahridagi kitoblar saqlanadigan xonalar binosi peshtoqidagi yozuvda “Kutubxona” emas balki “Kitobxona” atamasi ishlatilgan.



Afsuski, mazkur e‘tirof etilgan “kitobxona” atamasi faqat bizning



respublikamiz ta’lim tizimida mantiqqa zid holda “kutubxona” deyilib kelinmoqda. Buni quyidagi daliliy holatlar bilan izohlash mumkin. Jumladan: Qozog‘iston Respublikasida kitoblar saqlanadigan binoning kiraverish peshtoqiga “KAZAKSTAN RESPUBLIKASININ ULUTTIK KITAPXONASI” deb yozib qo‘yilgan va mos holda ta’lim tizimida ham “kitابخana” qo‘llaniladi (1-rasm); Qirg‘izstonda “ULUTTUK KITEPKANA” (2-rasm), Turkmanistonda “MARY WELAYAT KITAPHANASY” (3-rasm), Ozarbayjon Respublikasida mazkur bino peshtoqiga “AZORBAYCAN MILLI KITABXANASI” (4-rasm), Qoraqalpog‘istan Respublikasi kitobxonolari (rasm-5) Turkiya va hokazo ba’zi turkiy millatlarning barchasida “Kutubxona” emas balki mantiqiy ma’no va mohiyatga ega “Kitobxona” atamasidan foydalanib kelinmoqda.

Rasm 1. Qozog‘iston Respublikasi milliy kitobxonasi.

Rasm 2. Qirg‘izston Respublikasi milliy kitobxonasi.



Rasm 3.




Turkmaniston Respublikasi Mari viloyati kitobxonasi.

Rasm 4. Azarbayjon milliy kutubxonasi.



Rasm 5. Qoraqalpog‘istan Respublikasi kitobxonolari.



Aytilganlarni tilshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilishga urinamiz. Tilshunoslikda mavjud soʻz asosida yangi (yasama) soʻz hosil qilishni neologizm deb ataladi. Soʻz yasash grammatika va leksikologiya bilan bogʻliq boʻlib, grammatika soʻz yasash jarayonini boshqarib, soʻzlarni turkumlar boʻyicha belgilab, tilning leksikasini boyitib boradi. Koʻpgina tillardagi kabi soʻz yasash usullari oʻzbek tilida ham ikki xil: morfologik usul affiksatsiya (affiks) va sintaktik usul (kompozitsiya)larga boʻlinadi. Alohida maʼnoga ega bir soʻzni boshqa maʼnodagi soʻzga qoʻshib yangi soʻzlar hosil qilish mumkin. Masalan, alohida maʼnoga ega boʻlgan “somon”ni “xona”ga kiritilsa (somon+xona), ikkita alohida maʼnoga ega boʻlgan soʻzlardan bitta maʼno (somon saqlanadigan joy) “somonxona” soʻzi hosil boʻladi. Shu maʼnoda alohida maʼno (atama)ga ega “kitob”lar saqlanadigan “xona”ga kiritilganda uning mohiyatini “kutubxona” atamasiga qoʻllaydigan boʻlsak, u “kutub saqlaydigan xona” degan mantiqsiz maʼnoni beradi, chunki oʻzbek tilida “kutub” alohida holda hech bir maʼnoga ega emas. Yuqorida buyuk mutafakkirlarimizning kitob haqida taʼkidlagan hikmatlaridagi “kitob”ning oʻrniga “kutub”ni qoʻyib koʻraylik. “Olamda kutubdan aziz doʻst yoʻqdir” ... (Navoiy) “Kutub – ilm koni” va hokazo. Ajablanarlisi shundaki, amalda bizda esa peshtoqiga “Kutubxona” deb yozilgan binolarning yonidagi kitoblar sotiladigan magazin (doʻkon)larga “Kitob doʻkoni”, tadbirlarda “Kitobxonlik”, “Kitobxon ota”, atamaları ishlatiladi. Nega anashu atamalarda “Kutub” ishlatilmaydi va “Kutubxonlik”, “Kutub doʻkoni” deyilmaydi va hokazo...? “Kutubxona” haqida Oʻzbek Sovet ensiklopediyasida “Kutubiya masjidi – Marokashdagi noyob arx. yodgorligi (1146). Magʻrib (Shimoliy Afrika)dagi eng yirik masjidlardan. 1153-yilda (taxminan meʼmor Al-Hoji Yoish tomonidan) qayta qurilgan. Masjidning juda boy kutubxonasi boʻlgan. K.m. (kutub-kitob) nomi ham shundan” (1)deyilgan. Bundan koʻrinadiki, anashu Kutubiya masjididagi juda boy kitoblar saqlanadigan xonani mahalliy xalq hurmatlab “Kutubiya xonasi” va qisqartirib “Kutubxona” deyishgan. Shu maʼnoda, “Kutubxona” atamasi “Kutubiya masjidi kitobxonasi” degan maʼnoni anglatadi. Anashu mantiqiy mohiyatni unutilgan holda bizning kitoblar saqlanadigan binolar kiraverishida va barcha matbuot vositalariyu taʼlim tizimimizda “Kutubxona” yozuvi qoʻllanilib kelinmoqda. Bu yozuvning yuqorida taʼkidlanganidek, “Kutubiya masjidi kitobxonasi” degan maʼnoni anglatishini inkor etishning hechbir iloji yoʻq. Aytilganlarni asoslash uchun quyidagi faraziy tahlilga murojaat qilamiz. Kubraviya tariqatniing nazariyotchisi va amaliyotchisi Shayx Abul-Janob Ahmad ibn Umar Najmiddin al Kubro al Xevaʼiy al Xorazmiy (540/1145-618/1221) Xiva shahrida yirik xonaqo qurdirib, koʻp sonli muridlar tarbiyasi va ilmiy asarlar yozish bilan shugʻullangan. Albatta xonaqoda kitoblar saqlanadigan katta xona ham boʻlgan. Xonaqoni shartli ravishda “masjid” deb faraz qilib, undagi kitoblar turadigan xonasini “Kutubiya masjidi”ga qiyoslab ataydigan boʻlsak, uni “Kubraviya masjidi kitobxonasi” va undagi kitoblar saqlanadigan xonani esa “Kubraxon” deyilishi kerak boʻladi. Yuqoridagi tahlilni viloyatimizdagi kitoblar binosidagi “Viloyat axborot kutubxona markazi”

yozuvga tatbiq etadigan bo‘lsak, “Viloyat axborot “Kutubiya masjidi kitobxonasi” markazi” degan mantiqqa to‘g‘ri keladi. Ushbu mantiq Abdulla Qahhorning “Atomning kuchini to‘nka yorishga ishlatmang” degan purhikmat o‘xshatishini beixtiyor yodga tushiradi. Shu ma’noda aytish mumkinki, atomning kuchini beradigan kitoblar saqlanadigan “kitobxonani”ni “kutubxonani” deyilishini bolta bilan to‘nka yorishdan farq qilmay qolishiga qiyoslash mumkin. Ona tilimizning qonun-qoidalarini bilish, fikrni og‘zaki va yozma (so‘z, til va yozuv belgilari...) shaklda izchil va turlamasdan, tuslamasdan to‘g‘ri tahlil etabilish ancha murakkab jarayon bo‘lib, u harbirimizdan (qanday kasb egasi bo‘lmaylik) kuzatuvchanlik, xolisona fikrlash va mushohada qilishni talab etadi.

Xulosa o‘rnida “Kitobxonani” atamasini harbir mamlakat va millatning buyuk kuch-qudrati va porloq kelajagi hisoblangan madaniyati hamda sifatli ta’limi durdonasi oltin qasrining oltin kalitidir! Deya e’tirof etgan holda, Yangi O‘zbekistonning sifatli ta’lim tizimida 2023-yildan boshlab barcha matbuot vosita va tarmoqlarida “Kutubxonani” atamasi o‘rniga “Kitobxonani” atamasini qo‘llashning joriy etilishiga umid bog‘lab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Kutubiya masjidi. O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. 6-tom. 191-bet. Toshkent-1978.*
2. *Kitob. O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. 6-tom. 507-bet. Toshkent-1978.*
3. *Ziganshina N. Kitob – misoli oftob. “Fan va turmush”, №11. 1974, 5-7-betlar.*
4. *Tafakkur ummoni. “Fan va turmush”, № 6, 1976. 10-11-betlar.*
5. *So‘zlar ajoyibxonasida. “Fan va turmush”, №11. 1974, 12-bet.*
6. *Tog‘ayev X. “Kutubxonani”mi yoki “Kitobxonani”. “Ziyo chashmasi”. 2007 yil yanvar-fevral.*

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TARIXIY TARRAQIYOT
DAVRLARINI O‘RGANISH MASALALARI**

Eshboyev Shaxriyor - stajyor-o‘qituvchisi

Gaybullayev Shaxzod – talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya sportning tarixiy tarraqiyot davrlarini o‘rganish hamda talabalarga jismoniy tarbiya mutaxassislariga jismoniy tarbiya tarixi fanini o‘rgatish orqali ularni barkamol avlod qilib tarbiyalash borasida bugungi kumda amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Sport, salomatlik, jismoniy tarbiya tarixi, xalq o‘yinlari, zakovat, toifalash darsi, pedagogik texnologiyalar, o‘rta osiyo xalqlari

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan avlodni voyaga yetkazish yo‘lida sport eng muhim va samarali vositaga aylangan. Zero, tinchlik elchisi deya ta’rif berilgan sport – salomatlik, barkamollik, go‘zallik, qat’iyat, mardlik, g‘urur va iftixor kabi tushuncha hamda fazilatlar omili sifatida ham e’tirof etilgan. O‘zbekiston xalqlari ijtimoiy maishiy hayotida jismoniy tarbiya va sportning o‘ziga xos o‘rni bor. Aholining salomatligini yaxshilash, barkamol avlodning ma’naviy va jismoniy rivojlanishini ta’minlashda jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslari va mohiyatini ilmiy asosda tarixiy ma’lumotlar bilan boyitgan holda yosh avlodga yetkazish va targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. [1,30-bet]. Yoshlarga ta’lim berishda

yangi ta'lim texnologiyalarining axamiyatiga o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchilarga e'tiborni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim tarbiya tizimini sifat jixatdan butunlay yangi boskichga ko'tarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya va sport tarixiga oid shu soha mutaxassislari J.Eshnazarov, F.Xo'jayev, L.A.Djalilova, F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov, F.Xayitov, Q.Axmedov, R.I. Ismoilov, Y.S. Sholomitskiy, R. Abdumalikov, A.K. Akramov, H.A.Botirov va boshqalar tomonidan monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, nazariy metodologik ishlanma va ilmiy ommabop risolalar nashr etilgan. Ushbu asarlarni tahlil qiladigan bo'lsak ularda jismoniy tarbiya tarixini o'rganish orqali, ma'naviy barkamol va sport sohasiga yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Bu asarlarda insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan jismoniy tarbiya tarixining rivojlanish yo'llarini o'rganish mumkin. [2,80-bet]

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Jismoniy tarbiya va u bilan bog'liq bo'lgan sport sohasi ham o'zining obyekt va predmetiga ega ekanligi, uning shakllanish tarixi, rivojlanishi va hozirgi kundagi zamoniy sport ko'rinishiga kelguncha, ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tgali ma'lum bo'ladi. Kishilar uchun kerakli hayotiy malaka va ko'nikmalar jismoniy sifatlar va qobiliyatlar ularning ming yillar mobaynidagi kundalik yashash tarzi bilan bog'liq mehnat faoliyati jarayonlarida hosil qilingan. Ushbu jismoniy harakatlar esa qadimgi xalq o'yinlari va milliy sport turlarining shakllanishiga asos bo'lgan. [3,86-bet]

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining tarixiy tarraqiyot davrlarini o'rganishda tarixiy-madaniy mintaqalar bo'ylab turli xalqlarning joylashuvi, migratsiyasi va ularning jismoniy tarbiya tarraqiy etishi etnologiya, onomastika va toponimiya kabi fan tarmoqlarining sohalararo tadqiqotlari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qadimdan murakkab etnik tarkibga ega bo'lgan O'zbekiston mintaqasi buyuk tarixga ega va biz buni tarixiy ma'nalarda, tadqiqotlarda muhim manba hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport aholi xalqlar o'rtasida tabiiy-iqlim sharoiti va shu asosda shakllangan xo'jalik munosabatlari, aholining moddiy va ma'naviy madaniyati, turli xalqlar va elatlarning ta'siri asosida shakllangan. Ularni milliy qadriyatlar manbai, ma'naviy boylik sifatida o'rganish hamda targ'ib qilish zaruratini belgilaydi.

Talabalarga jismoniy tarbiya tarixini o'qitishning asosiy tashkiliy shakli bo'lgan dars va darsdan tashqari ishlar, ular qanday ko'rinishda (an'anaviy yoki noan'anaviy darslar, sinfdan va maktabdan tashqari o'quv-tarbiya tadbirlari, ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlar) tashkil etilishidan qat'iy nazar, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik jihatdan to'laqonli bajarilganidagina yuksak pedagogik samarani berishi mumkin. Bunda albatta, bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadigan mashg'ulotlar ko'zda tutiladi. Buning uchun esa ta'lim va tarbiya beruvchining mukammallik darajasidagi pedagogik mahorati va kasbiy salohiyati talab qilinadi. [4,135-bet]

Ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq bo'lganligi uchun ham bu borada yagona tavsiya yoki yo'l-yo'riq berib bo'lmaydi. Shu jarayonda zamonaviy pedagogik yoki axborot-kommunikasiya texnologiyalari va psixologik yondoshuvlardan foydalanishning o'ziga xos mezonlari mavjudligini unutmaslik kerak. Ayni davrda zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli

yondashuvlar asosida o‘qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta‘lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul, metod va vositalarlarni xilma-xillash, ta‘lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish-bular hammasi ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir.

Jismoniy tarbiya va sportning ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirgi kungacha bo‘lgan tadrijiy bosqichlarida turli xil xalq o‘yinlari va o‘tkaziladigan turli xil musobaqalar muhim o‘rin tutgan. O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida jismoniy tarbiya va sport kishilarning jismoniy barkamolligini ta‘minlash vositasi sifatida ommalashib borganligi yoritilgan. Jismoniy tarbiya va spor rivojlanishining tarixiy tarraqiyot davrlarini o‘rganish usullariga oid tajriba sinov ishlarida uning nazariy asoslariga aniqliklar kiritilgan. Mavzuni o‘rganishda “Toifalash jadvali” texnologiyasi, “Zakovat”, intellektual o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish texnologiyalari.

Toifalash jadvali.

Toifalashda - xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma‘lumotlarni birlashtirishni ta‘minlaydi. Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ma‘lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liklikni o‘rnatish usul va vositasi hisoblanadi.

Toifali sharhlashni tuzish bosqichlari:

1. Toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum, klaster tuzish, yangi o‘quv materialini bilan tanishishdan so‘ng, kichik guruhlarda, olingan ma‘lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.
2. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar.
3. G‘oya, tushuncha, fikr va ma‘lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin.

“Zakovat” intellektual o‘yini

Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab auditoriyani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi. O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lib, o‘yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi. Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi. O‘qituvchi savolni mohiyatiga qarabo‘qib eshittiradi yoki “Zakovat sandiqchasi” olib chiqilishini aytadi yoki ekranda namoyish qilishni so‘raydi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinflarida o‘tkazish tavsiya etiladi.

Zakovot o‘yinlarida asosan, ta‘lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar va alohida mavzular mazmun-mohiyatini aks ettiradigan mantiqiy, ta‘limiy savollar tuzilishiga diqqat qaratiladi.

Muammo va yechim

Ushbu shartni baholashda berilgan savollarga mantiqiy, tarixiy jarayonlarni bir-biri bilan bog‘lagan holda javob berilganligi inobatga olinadi. Ushbu shartga

mo'ljallangan taxminiy savollar.

1-guruhga savol: Jismoniy tarbiya tarixi necha davrga bo'lib o'rganiladi?

2- guruhga savol: Jismoniy tarbiya tarixi bo'yicha ish olib borgan olimlarni bilasizmi?

3-guruhga savol: Arxeologlarni aniqlashicha, mezolit (o'rta tosh) davrida (miloddan avvalgi 12-6 ming yilliklar) qanday yo'nishlar takomillashdi?

Jismoniy tarbiya tarixini o'rganishda pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan uslubchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki ta'lim oluvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda jarayonida, o'qituvchi yoki ta'lim oluvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa bularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizningcha, ana shundagina o'qitish samaradorligiga erishiladi. Shunday qilib, Jismoniy tarbiya tarixi bilgan talabalar ham o'zligini tarbiyalashda, vatanparvarlik, mexnat sevarlik, ijodkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdumalikov R, Ten K.P, “Jismoniy tarbiya fakultetlarida talabalarning pedagogik praktikalarini tashkil qilish. Metodik tavsiyanoma” Toshkent 2003y.30 b.
2. Abdumalikov R., Yunusov T. T.: O'zbekistonda jismoniy tarbiya ta'limining rivojlanishi. Uslubiy qo'llanma Toshkent. 2014y. 80 b.
3. Akramov A, Uzbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent . UzDJTI nashriyoti 2000 y. 86 b.
4. Aminov.M, B. Ahmedov., H. Boltaev T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000 y.135 b.

ЛЮДСКИЕ РЕСУРСЫ В ЭКОНОМИКЕ КАРАКАЛПАКСТАНА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

Ктайбеков Азамат - докторант

Нукусского Государственного Педагогического института им. Ажунияза

Республика Каракалпакстан, суверенная республика в составе Узбекистана, известна своим уникальным культурным наследием, потрясающими ландшафтами и богатой сельскохозяйственной историей.

Ключевые слова: образование, здравоохранение, миграция, сельское хозяйство, инфраструктура, транспорт, диверсификация, мониторинг.

The Republic of Karakalpakstan, a sovereign republic within Uzbekistan, is known for its unique cultural heritage, stunning landscapes and rich agricultural history.

Key words: education, health, migration, agriculture, infrastructure, transportation, diversification, monitoring.

За последние годы система образования в Каракалпакстане достигла значительных успехов, что позволило расширить доступ к образованию для многих. Однако такие проблемы, как ограниченный доступ к качественным высшим учебным заведениям и недостаток возможностей для профессионального обучения, остаются. Для оптимального использования человеческих ресурсов регион должен продолжать инвестировать в образование и обеспечивать хорошую подготовку выпускников к выходу на рынок труда.[1]. Безработица и неполная занятость являются постоянными проблемами в Каракалпакстане. Возможности

трудоустройства зачастую ограничены, особенно в сельской местности. Содействие диверсификации экономики и стимулирование роста малых и средних предприятий (МСП) могут способствовать созданию новых рабочих мест и более полному использованию человеческого потенциала региона. Доступ к медицинским услугам, особенно в отдаленных районах, по-прежнему вызывает озабоченность. Здоровое население – это более продуктивное население, поэтому улучшение инфраструктуры здравоохранения и повышение благосостояния населения являются важнейшими задачами. Поддержка и информирование о психическом здоровье также должны стать частью системы здравоохранения.

Каракалпакстан переживает значительную миграцию населения, многие из которых ищут лучшие возможности за рубежом или в других регионах Узбекистана. Потеря квалифицированных специалистов в результате "утечки мозгов" негативно сказывается на кадровой базе региона. Побуждение таких людей оставаться и инвестировать в местную экономику является актуальной задачей. Сельское хозяйство является важной отраслью экономики Каракалпакстана. Эффективное использование человеческих ресурсов в этом секторе имеет решающее значение. Совершенствование методов ведения сельского хозяйства, повышение урожайности и рациональное использование ресурсов могут способствовать повышению уровня жизни населения и развитию экономики региона. Отсутствие адекватной инфраструктуры и транспорта затрудняет доступ к рабочим местам. Для эффективного использования человеческого потенциала необходим комплексный план развития инфраструктуры, включающий улучшение состояния дорог и общественного транспорта. Сотрудничество между государственным и частным секторами может способствовать реализации политики и инициатив, направленных на развитие человеческого потенциала. Государственно-частное партнерство может финансировать программы образования и подготовки кадров, а также инфраструктурные проекты, повышающие потенциал региона.[2] Чтобы снизить зависимость от одной отрасли, Каракалпакстан должен диверсифицировать свою экономику. Это предполагает выявление и развитие новых отраслей, поддержку предпринимателей и развитие малого бизнеса. Диверсификация экономики не только создает рабочие места, но и позволяет использовать неиспользуемый потенциал региона. Для понимания эффективности политики и инициатив, направленных на повышение эффективности человеческого капитала, очень важна регулярная оценка. Это помогает политикам выявлять области, требующие корректировки, и обеспечивает эффективное использование ресурсов. Эффективное использование человеческих ресурсов в Республике Каракалпакстан является залогом ее экономического развития и общего благосостояния. Несмотря на существующие проблемы, регион обладает огромным потенциалом, включая яркую культуру, природные красоты и жизнестойкое население.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. *Речь Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 72 сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций, 19.09.2017 г.*
2. *Крутиков В.К., Зайцев Ю.В., Дорожкина Т.В., Костина О.И., Федорова О.Ф. Управление социально-экономическим развитием территорий. / Учебно-методическое пособие. - Калуга: Из-во «Ваш дом», 2015.*

JEVACHI ATAMASI XUSUSIDA YO‘SHON JEVACHI FAOLIYATIGA BIR NAZAR

*Begimkulov Jurabek - o‘qituvchi, Davronov Bayramali –talaba
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jevachi atamasining kelib chiqishi va XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashagan shxs Qo‘shon jevachining harbiy faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jevachi, yom, harbiy lavozim, Jizzax, Zomin, Rossiya imperiyasi.

Abstract: In the article has been stated about the origin of the term Jevachi and the military activities of Koshan Jevachi who lived in the second half of the 19 th century and the beginning of the 20 th century.

Key words: Jevachi, yam, military position, Jizzakh, Zamin, Russian Empire.

Аннотация: В данной статье рассказывается о происхождении термина “джевачи” и военной деятельности Кошана джевачи, жившего во второй половине XIX и начале XX века.

Ключевые слова: Жевачи, ям, военная должность, Джизак, Заамин, Российская империя.

Hayotning qaysi jabhasi bo‘lmasin, bir sohaning ustozlaridan ta‘lim olib, so‘ng shu sohada faoliyat yuritilsa, yillar o‘tishi bilan bu borada fikr-mulohazalar ham to‘planib, boyib borar ekan. Siz o‘qiyotgan ushbu satrlar ham shunday mazmunga ega. Bu yerda bildiriladigan fikrlar ustozlardan o‘zlashtirilgan ko‘rsatmalar, tarixiy manbalardan va Otam, bobom va amakilarimdan eshitib, yozib olingan qimmatli etnografik ma‘lumotlar hamda unga asoslangan mulohaza va xulosalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Yaqin tariximizda yashab o‘tgan, el-ulus, davlat tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida faoliyat yuritgan insonlar hayoti haqida biz bilmagan haqiqatlar hali qanchadan-qancha. Ana shunday mulohazlardan kelib chiqib ushbu maqolani e‘tiboringizga havola etishni lozim topdik. Tarixiy manbalarda jevachi atamasi xususida ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Taniqli akademik olimimiz Bo‘riboy Ahmedov jevachi atamasiga - “qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan amaldor – jevachi (jibachi) bo‘lib, qurol-aslaha omborining mudiri va xonning qurol-aslahalariga ham javobgar hisoblangan”[1,411-414-bb.] degan ta‘rifni bergan bo‘lsa, muarrix Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” asarining izohlar qismida “Jibachi (jevachi) – boshdan oyoq sovutga o‘ralgan kishi. Xonning qurol-yarog‘ini hozirlab ko‘tarib yuruvchi kichik harbiy amaldor, shuningdek, qurol-yarog‘ omborining mutasaddisi ham shu nom bilan atalgan” deb ta‘kidlaydi[2, 405-b.]. Bevosita Buxoro xonligida qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruv masalalari bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan tarixchi olim Akbar Zamonovning fikricha, jevachi Buxoro xonligi va keyinchalik Buxoro amirligi qo‘shinidagi harbiy-ma‘muriy lavozim bo‘lib, qurol-aslaha omborining boshlig‘i yoki unga javobgar mas‘ul shaxs hisoblangan. Mazkur tadqiqotchining Buxoro xonligida qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruv (Shayboniylar sulolasi davri) nomli monografiyasida Buxoro xonligidagi harbiy va harbiy-ma‘muriy amaldorlarning quyidagi jadvali keltirilgan[3,63-b.]:

Harbiy amaldorlar	Harbiy-ma‘muriy amaldorlar
Qo‘shbegi	Naqib
Chuxraboshi	Ko‘kaldosh
No‘yon	Parvonachi
Tug‘begi	Mushrif
Qo‘rchi	Shig‘ovul

To`pchiboshi	Dorug`a
Qorovulbegi	Sohib ixtiyor
Yasovul	Miroxo`r
Tavochi	Mahram
Jevachi (jibachi)	Bakovul
Mingboshi	Xon yasovuli
Yuzboshi	Qushbegi
Qozi askar	Munshiy
Qozi mufti	

Harbiy yurishlar paytida jevachilar harbiy sarkardalik vazifasini ham o`tagan bo`lib, manbalarda Abdullaxon qo`shinida Ahmad Qosim jibachi ko`p bora harbiy to`qnashuvlarda qatnashganligi haqida ma`lumotlar mavjud[2,264-b.].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Jizzax uezdi hududlarida, aniqrog`i Bog`don volostidan bo`lgan Abdurahmon jevachi shaxsi ko`pchilik tarix ixlosmandlariga yaxshi ma`lum. Abdurahmon jevachining 1916-yilgi qo`zg`olonga boshchilik qilishi ham u kishining harbiy soha bilimlaridan ancha boxabar bo`lganligidan dalolat beradi. Ammo biz mazkur maqolada e`tibor qaratmoqchi bo`lganimiz Abdurahmon jevachi emas, balki aynan shu Jizzax uezdining Ravot qishlog`ida jevachi nisbasiga ega bo`lgan Qo`shon jevachi faoliyati haqidadir. Qo`shon bobo mazkur maqola muallifining shajarasida to`rtinchi ajdod bobosi (ota) hisoblanib, jevachi lavozimidagi xizmatlari yuksak e`tirof etilganligi sababli u kishini Qo`shon jevachi deb atashgan. Qo`shon jevachi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab o`tgan bo`lib, umrining oxirgi yillarida o`zining ko`plab xususiy yuk tashuvchi ot aravalariga ega bo`lgan va ularni kishilarga ijaraga berish bilan mashg`ul bo`lgan ekan[4]. Jevachining nabirasi Begimqul Qo`shboqovning ma`lumot berishicha, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanining Ravot jamoa xo`jaligi Urganji qishlog`idagi tahminan hozirgi kasb-hunar kolleji binosi o`rnilarida qadimda yom (pochta bekati) bo`lgan. Hozirda Urganji qishlog`i qo`shni Umar qishlog`iga qo`shilib, nomi deyarli unutilib ketgan bo`lsa-da, mahalliy xalq tilida Saroy deb ataladi. “Saroy” toponimi aynan qadimda mavjud bo`lgan yom binosi bilan bo`g`liq bo`lib, biz bilgan saroy urug`i bilan hech qanday bo`g`liqligi yo`q. Bunday deyishimizning asl sababi, bu atrofdagi qishloqlarda “yuz” urug`ining “o`roqli” aymog`i vakillari istiqomat qilganligidir. Qadimdan Jizzaxdan Zominga boradigan karvon yo`li aynan shu joydan o`tganligi ham fikrimizning yaqqol isbotidir[5]. Jizzax shahridan Rovot qishlog`igacha bir ot almashinuvlik masofa bo`lib, Qo`qon xonligiga chegaradosh O`ratepa va Zomindan kelayotgan choparlarning xabarlarini o`z vaqtida Jizzaxga va undan Samarqandu poytaxt Buxorogacha yetkazib borishlari muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Tariximizdan bizga ma`lumki, O`ratepa va Zomin hududlari Qo`qon xonligi va Buxoro amirligi o`rtasidagi mojaroli hudud bo`lib, bu joylar tez-tez qo`ldan-qo`lga o`tib turardi. Yuqoridagi omillar mazkur yomning harbiy-strategik ahamiyatini oshirib, o`z vaqtida jevachi lavozimidagi harbiy mansabdor tomonidan uning boshqarilishi va nazorat qilinishini taqozo etgan[6]. Hech kimga sir emaski, mazkur yomda choparlar uchun maxsus otlar boqilgan. Axborotchilarimizning ma`lumot berishicha, Qo`shon jevachi harbiy mansabdor sifatida aynan shu yomga mas`ul, mutasaddi shaxs bo`lgan. Biz tilga olayotgan yom 1866-yilda Jizzax bekligi hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, asta-sekin o`zining strategik ahamiyatini yo`qota boshlagan. Buning sababi esa, bosqindan ma`lum vaqt o`tgach, mustamlakachilar tomonidan shaharlararo telegraf simi tarmo`g`ining tortilishi bo`lgan.

Natijada, bu vaqtga kelib barcha yomlar tarmog`i o`zining avvalgi ahamiyatini yo`qota boshlaydi. Qo`shon jevachi esa o`z faoliyatini o`zgartirishga majbur bo`lib, ot-aravalarini ijaraga berish ishlari bilan shug`ullanishga majbur bo`ladi[5]. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, haqiqatdan ham qadimda Jizzaxdan Zominga va undan sharqqa boradigan karvon yo`li aynan shu yo`nalishda Ravot qishlog`i orqali o`tgan. Bu yo`l hozirda mavjud Ravot-Qang`li-Zomin yo`liga nisbatan ancha qisqa yo`l bo`lib, mahalliy xalq tilida “sim yo`l” (telegraf simiga ishora qilinib) deb atalgan[7,10-b.]. Axborotchilarimizning ta`kidlashicha, Qo`shon jevachi 1917-yildan biroz avvalroq vafot etgan. Biroq, 1917-yil oktabr voqealaridan keyin boshlangan “harbiy kommunizm” va “quloqlashtirish” siyosati tufayli u kishidan o`zining oila a`zolariga meros bo`lib qolgan mol-mulk musodara qilingan(to`g`rirog`i, sho`rolar tomonidan tortib olingan). Jevachining farzandlari esa feodal “quloq” sinf vakillari sifatida doimiy ta`qib ostiga olingan[5]. Yuqorida bildirilayotgan fikr-mulohazalarimizni taniqli tarixchi adib Poyon Ravshanov ham tasdiqlaydi. Muallif Qashqadaryo viloyati davlat arxivining Qarshi bo`limi hujjatlariga tayanib, XX asrning 20-yillari boshlarida rasman “Saylov huquqidan mahrum etilganlarning nomma-nom ro`yxati”ni keltirib o`tadi:

- 1) Mallabek Imom o`g`li – jevachi;
- 2) Imom Sharif o`g`li – jevachi;
- 3) Jo`raxon Tugmayev – eshon;
- 4) Nuriddin Rahmat o`g`li – jevachi;
- 5) Oston Xoliq o`g`li – qoravulbegi;
- 6) Boynazar Xo`janazar o`g`li – jevachi;
- 7) Ziyod Jo`ra o`g`li – qoravulbegi;
- 8) Hasan Mavlon o`g`li – jevachi;
- 9) Qahhor Jo`raqul o`g`li – jevachi;
- 10) Mulla Ziyod Shomurod o`g`li – mudarris;
- 11) Mullo Zayniddin – imom;
- 12) Mullo Nabi Vahhob o`g`li – jevachi;
- 13) Murod Mo`min o`g`li – jevachi;
- 14) Omon Abdurasul o`g`li - qoravulbegi;
- 15) Xolmat Nurmat o`g`li – jevachi;
- 16) Anvar Hoshim o`g`li - qoravulbegi;
- 17) Xolniyoz Boboniyoz o`g`li - jevachi;
- 18) Boyna Tursun o`g`li – jevachi;
- 19) Shomurod Fo`lod (Po`lat) o`g`li – jevachi;
- 20) Bozor Yarman o`g`li - qoravulbegi;
- 21) Riza Juma o`g`li – ikkinchi;
- 22) Mamanazar Pirnazar o`g`li – uchinchi...[8]

Yuqorida keltirilgan ro`yxatda 12 ta jevachi(jibachi), 3 ta din vakillari, 6 ta qoravulbegi, 19 ta menshevik va eser deb shubha ostiga olingan kishilar bor. XX asr boshlarida jibachilarning Qashqadaryo vohasida ham yashaganligi amirlikning podshohlik Rossiyasi tomonidan bo`ladigan xurujlariga qarshi beklıklarda ehtiyot shart mudofaa guruhlari tashkil etganligi bilan bog`liq bo`lsa kerak[9,16-b.]. Qo`shon jevachining chevaralari qo`lida bugungi kunda ham bu shaxsning faoliyati bilan bo`g`liq ko`pgina qimmatli ma`lumotlar mavjud bo`lib, ular o`z o`rganish vaqtini kutib yotibdi. Bundan tashqari O`zbekiston Milliy arxivi, Buxoro amirligi arxiv xujjatlari

ma'lumotlari asosida ham Qo'shon jevachi haqida anchagina qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Bu kabi ilmiy izlanishlar shonli tariximizni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994.
2. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. So'zboshi va izohlar muallifi: B.Ahmedov. T.: 1999.
3. Zamonov A. Buxoro xonligida qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruv (Shayboniylar sulolasi davri). T.: 2018.
4. Dala materiallari: 2016-yil. Qo'shboqov Berdimurod Qo'shboq o'g'lidan yozib olindi. 1930-yilda tug'ilgan.
5. Dala materiallari: 2020-yil. Qo'shboqov Begimqul Qo'shboq o'g'lidan yozib olindi. 1942-yilda tug'ilgan.
6. Dala materiallari: 2023-yil. Qo'shboqov Ravshan Berdimurod o'g'lidan yozib olindi. 1960-yilda tug'ilgan.
7. Begimkulov J., Murodov N. Jizzax viloyat davlat arxivida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hususida. Vatan tarixini o'rganishda arxiv va o'lkashunoslik materiallarining o'rni. Ilmiy maqolalar to'plami. T.: Vneshinvestprom, 2020.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivining Qarshi bo'limi, 2-jamg'arma. 1-ro'yxat, 19-ish, 95-varoq.
9. Ravshanov P. Qorovulbegi qismati: Xotira. T.: Sharq. 2004.

JIZZAX VOHASI- XALQARO TURIZMNING “QO‘NALG‘ASI”

Boltayev A. - t.f.d. (DSc)

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda turizmning rivojlantirilishiga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Prezident, klaster, Jizzax, voha, Zomin, Forish, xalqaro turizm, ichki turizm

Аннотация. В статье отмечается, что развитию туризма в Узбекистане уделяется серьезное внимание.

Ключевые слова: Узбекистан, Президент, кластер, Джизак, оазис, Зомин, Форши, международный туризм, внутренний туризм

Annotation. The article notes that serious attention is paid to the development of tourism in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, President, cluster, Jizzakh, oasis, Zomin, Forish, international tourism, domestic tourism

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavdalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohaslarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo'lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi korxonalariga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda [1]. O'zbekiston turizmni rivojlantirishda ulkan salohiyatga ega. Mamlakatda 7,4 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 209 tasi YUNESKONing Butunjahon meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, respublikada 11ta milliy bog' va davlat qo'riqxonasi, 12 ta qo'riqxona, 106 ta muzey va sayyohlarni jalb qilish

mumkin bo‘lgan ko‘plab boshqa obyektlar ham mavjud [2]. Shunday bo‘lsada, uzoq yillar mobaynida, bu salohiyatdan to‘laligicha foydalanilmadi. Masalan, 2011-2016 yillar davomida xorijiy mehmonlarning mamlakatga o‘rtacha yillik tashrifi 8 % ga o‘sgan xolos. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyat va sharoitlardan samarali foydalanishda qiyinchiliklar bo‘lib, xalqaro turizm yo‘nalishida respublikaga tashrif buyuruvchilarning talab ehtiyojlarini qondirish talab darajasida emas. Buning asosiy to‘siqlaridan biri, hali bu sohada infrastrukturaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va turizmni davlat tomonidan boshqarishning eng samarali usullarini joriy qilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar chuqur o‘rganilmaganligidir. O‘zbekistonda turizmning rivojlantirish, uni jahon turizmining jozibali markazlaridan biriga aylantirish, yurtimizni sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun hukumatimiz tomonidan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Turistik induksiya hamkorlarga ixtisoslashgan tadqiqotlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish, soha uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar ham hukumatimizning diqqat markazidadir. Turistik klaster, turistik zonalar va industriya hamkorlikdagi xizmatlar sonini oshirishni davlatimiz qo‘llab-quvvatlamogda va bu masala dolzarbligicha qolmoqda [3, B.172-176]. Ma‘lumki, 2019 yil 5 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli farmoni e‘lon kilindi [4]. Ushbu farmonda ichki turizmni rivojlantirish masalalariga urg‘u berilgan. Farmonga muvofiq, mamlakatimiz xududidagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratgohlarining o‘ziga xosligini targ‘ib etish bo‘yicha marketing kompaniyalarining samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda turizmga bo‘lgan e‘tibor yildan yilga ortib bormoqda. Bu jarayonni respublikamizning Jizzax viloyati misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu sohaga katta e‘tibor va ko‘mak berilayotganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Jizzax viloyatida ushbu sohani rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Qadimiy voha ko‘plab qadamjolar va ziyoratgohlar maskanidir. Viloyat hududida “Ko‘k to‘nli ota”, “Xo‘jai Sarob ota” ziyoratgohlari, Peshog‘or g‘ori, “Xoja Shohimardon Sherdor” ziyoratgohi, Xoja Qahhor Vali qadamjosi, “Tog‘terak ota”, “Archamozor ota”, “Parpi oyim” ziyoratgohi, “Qobilmozor” (Qo‘shintepa), “Qum ota” ziyoratgohi, To‘rtko‘l tepa karvonsaroyi, “Beshbuloq ota” ziyoratgohi, “Xo‘jako‘ndalang” ziyoratgohi, “Qoplun ota”, “Xo‘jamushkent ota” ziyoratgohi, “Chilmaxram ota” ziyoratgohi, “CHO‘kmozor ota” ziyoratgohi, “Rustam ota” va “Jumaqul ota” ziyoratgohi, “Qo‘ltiqaziz” ziyoratgohi, “Teshiktosh bobo” qadamjosi, “Bo‘tatosh Vali” ziyoratgohi, “G‘oyib ota” qadamjosi, “Ersulaymon bobo” ziyoratgohi, “Said Isoxo‘ja” ziyoratgohi, “Balogardon bobo” qadamjosi, “Changovul ota” kabi ziyoratgohlar kabi aniqlangan va tekshirilgan. Vohada hali o‘nlab aniqlanmagan hamda insonlar qadami yetmagan asori-atiqalar mavjudki, bu hududni hech ikkilanmay “ming bir sinoatga boy maskan” deb atashimiz mumkin.

Jizzax viloyatida keyingi yillarda ziyorat turizmi, agro turizm, ekoturizm, sport turizmi, dam olish (sayyohlik turizmi)ni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniksa, viloyatda agro-turizmni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotganligi ahamiyatga molik. Zomin tumanida bog'dorchilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik kabi sohalar tashkil qilingan. Ushbu fermer xo'jaliklarida sayohat qilish va hatto qisqa vaqt uchun yashash joylarini ham tashkil qilinganligi ichki agro-turizmni rivojlanishiga sabab bo'lmokda. G'allaorol, Zomin va Baxmal tumanlarida turistik klasterlarni tashkil etish loyihalari ishlab chiqilib, respublika va ommaviy axborot saytlariga taqdim etildi. Zomin, Baxmal, Forish tumanida (Aydarko'1) turistik klasteriga muvofiq tumanlarning hududlari belgilandi, yangi ichki turizmni tashkil etadigan va qurilish ishlari amalga oshiriladigan uchta hudud ajratib olindi. Mazkur hududlarda turizmni tashkil etishda tashrif buyuruvchi sayyohlarning yoshi va qiziqishlari bilan birga, tumanlar tog' oldi o'rmon yerlari alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarga ziyon yetkazmaydigan, shuningdek, mahalliy aholining urf- odatlari va an'alariga, e'tiqodlariga mos bo'lgan xizmat turlari tashkil etilmoqda. Ushbu hududlarda sayyohlik biznesini tashkil etish uchun ichki investitsiyalar jalb qilingan [5]. Forish tumani **bo'yicha** Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida beshta yangi zamonaviy dam olish zonolari tashkil etish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan: hududning 98 konturida "Murod- Mohichehra" MCHJ tomonidan 400 ga maydonda (150 mlrd so'm) yangi zamonaviy dam olish zonasi tashkil qilingan, hududning 13 konturida "Sokin sohil" MCHJ tomonidan 20 ta maydonda (100 mln. so'mlik) yangi zamonaviy dam olish zonasi barpo etilgan, "Oxys adventure" MCHJ ga qarashli 10- maydonda (200 mln. so'mlik) yangi zamonaviy dam olish zonasi bunyod etilgan. Viloyatning Zomin tumanida ham turizm potensialini rivijlantirish, yozgi turizm mavsumini uzaytirish orqali qo'shimcha sayyohlar oqimini jalb qilish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Tuman ekoturizmni rivojlantirish potentsiali buyicha katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, tuman hududida joylashgan Zomin milliy tabiat bog'i, Zomin davlat qo'riqxonasi, Zomin davlat o'rmon xo'jaligi, shuningdek bir qancha tarixiy va tabiiy yodgorliklar turizmni rivojlantirish bo'yicha katta salohiyatga ega. Zomin milliy tabiat bog'ida birgina 2018 yilning o'zida 8 ta ekoturizm marshrutlari shakllantirilgan. Bu marshrutlar orqali 2018 yilning olti oyi mobaynida 57916 ta mahalliy sayyoh, **852** ta xorijiy sayyohlar tumanga tashrif buyurishgan. Bu ma'lumotlar 2017 yilga nisbatan sayyohlar oqimining oshganligini ko'rsatadi. Tumanda turizmni jadal rivojlantirish uchun kichik mehmonxonalar, uy-mehmonxonalar qurilgan. Jumladan, Duoba QFY hududida 30 ga yaqin uy-mehmonxonalar tashkil qilingan. Ularni bunyo etilishida Duoba QFY Tog'terak qishlog'idagi "Barno ona oilaviy korxonasi"ning hissasi ayniqsa katta. Uy-mehmonxonalarining ishga tushirilishi asosan tadbirkorlarning xususiy mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi 2 yilda O'zbekistonning barcha iqtisodiy tarmoqlari singari turizm sohasi ham yangicha rivojlana boshladi. 2016 yilning dekabr oyi boshlarida davlat rahbari

turizm sohasini “jadal rivojlantirish” vazifasini qo‘ydi va bu bo‘yicha tegishli hujjatga imzo chekdi. Buning samarasida vakolatli davlat organi- Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi, tadbirkorlarga turizm sohasida soliq imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etish, milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish uchun sharoitlar yaratish bo‘yicha davlat rahbari va hukumat qarorlari qabul qilindi hamda viza rejimini liberallashtirish ishlari amalga oshirildi. Quyidagilar ana shunday chora-tadbirlar jumlasiga kiradi:

-qo‘shimcha yana 9 ta mamlakat uchun vizasiz rejimning o‘rnatilishi (jami 18 ta mamlakat);

- fuqarolarga kirish vizalarini olishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan mamlakatlar sonining 12 tadan 50 tagacha oshirilishi;

- xostellar faoliyatiga bo‘lgan talablar soddalashtirildi va 22 ta talab bekor qilindi;

- xorijiy sayyohlarni xususiy xonadonlarga joylashtirish imkoni yaratildi;

- qishloq joylarda sertifikatlashtirish talablari bekor qilingan va mehmon uylarini tashkil etish bo‘yicha minimal talablar o‘rnatilgan holda mehmon uylarini tashkil etishning soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyat va sharoitlardan samarali foydalanishda qiyinchiliklar bo‘lib, xalqaro turizm yo‘nalishida respublikaga tashrif buyuruvchilarning talab ehtiyojlarini qondirish talab darajasida emas. Buning asosiy to‘siqlaridan biri, hali bu sohada infrastrukturaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va turizmni davlat tomonidan boshqarishning eng samarali usullarini joriy qilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar chuqur o‘rganilmaganligidir.

2019 yilning 5 yanvarida yana bir “keng qamrovli” hujjat, 2019-2025 yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ham qabul qilindi. Mazkur konsepsiya quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- sayyohlik faoliyati sohasida huquqiy bazani takomillashtirish;

- sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish hamda foydalanish mumkin bo‘lgan va qulay sayyohlik muhitini shakllantirish;

-transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish;

-sayyohlik bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan sayyohlik mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

- ichki turizmni rivojlantirish;

- sayyohlik mahsulotini xalqaro va ichki sayyohlik bozorlariga targ‘ib qilish, mamlakat imidjini xavfsiz sayohat va dam olish mamlakati sifatida mustahkamlash;

-sayyohlik tarmog‘i bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va hk.lar.

Bundan tashqari, qarorda viza rejimini yanada liberallashtirish ham ko‘zda tutilgan. Xususan:

a) 2019 yil 1 fevraldan boshlab, hujjatga ilova qilingan ro‘yxatga ko‘ra, 45 ta mamlakat fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim o‘rnatiladi;

b) 2019 yil 1 fevraldan boshlab elektron kirish vizalarini oladigan fuqarolari bo‘lgan mamlakatlar soni 76 tagacha kengaytiriladi;

v) 2019 yil 15 martdan boshlab amal qilish muddati 30 kun bo‘lgan ikki martali (35 AQSH dollari konsullik yig‘imiga ega) va ko‘p martali (50 AQSH dollari konsullik yig‘imiga ega) vizalar joriy qilinadi;

g) alohida guruhdagi chet el fuqarolari uchun kirish vizalarining qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) toifalari kiritiladi:

“**Vatandosh**” - o‘zbekistonliklar va ularning oila a‘zolari uchun beriladigan 2 yillik viza;

“**Student visa**” - O‘zbekistondagi ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun beriladigan bir yillik viza;

“**Academic visa**” - O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqotchilik va o‘qituvchilik faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun 2 oydan 2 yilgacha bo‘lgan viza;

“**Medical visa**” - O‘zbekistonga davolanish uchun tashrif buyurgan chet el fuqarolari uchun 3 oygacha bo‘lgan viza;

“**Pilgrim visa**” - turistik tashkilotlar va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita talabnomasiga ko‘ra, chet-el fuqarolariga 2 oygacha muddatga beriladigan ziyorat vizasi [2].

109 ta mamlakat (ro‘yxatga ko‘ra) fuqarolariga quyidagi hududlarda ko‘chmas mulk xarid qilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqi taqdim etiladi:

- Toshkent viloyati va Toshkent shahrida -400 000 AQSH dollaridan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulkni;

- Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida

- 200 000 AQSH dollaridan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulkni.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublikaning boshqa viloyatlarida 100 000 AQSH dollaridan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulkni. Prezident qarori bilan O‘zbekistonda turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishning “yetti yillik” dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida erishiladigan aniq maqsadli ko‘rsatgichlar belgilandi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Ruziyev.pdf

2. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3795/>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: 2021.

4. “Xalq so‘zi”. 2019 yil 14 yanvar

5. “Qadimiy Zomin. T.: 2018.

GENDER TENGLIK MASALASINING TUB ILDIZLARI VA UNING QONUNY ASOSLARI YARATILISHINING BA’ZI MASALALARI

Ergasheva Muhayyoxon - Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. O‘zbekiston xalq ta’limi faoliyati bugungi kundagi holatiga yetib kelishining uzoq yillik tajribani va undagi gender tenglik masalasi o‘ziga hos tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Tariximizdagi ayollarni asrlar davomidagi faoliyatini jamiyatdagi faollik bilan almashtirish va bu jarayonni aynan madaniy-ma’rifiy soha bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshirish masalasi o‘rganishlarni talab etuvchi muhim sohalardan biridir.

Kalit so‘zlar: Maorif, qonun, qoror, vaf mulklari, eski makablar, yangi usul maktablari, savodsizlik kurslari, milliy ta’lim tizimi.

Аннотация. Народное образование Узбекистана имеет многолетний опыт, и вопрос гендерного равенства в нем пережил уникальные исторические процессы. В нашей истории вопрос замены многовековой активности женщины активностью в обществе и осуществления этого процесса в неразрывной связи с культурно-образовательной сферой является одним из важных направлений, требующих изучения.

Ключевые слова: Образование, право, тюрьма, поместья, старые школы, новометодные школы, курсы ликвидации неграмотности, национальная система образования.

Annotation: Uzbekistan's public education has experienced long-term experience and the issue of gender equality in it has experienced unique historical processes. In our history, the question of replacing the centuries-long activity of women with activeness in society and implementing this process in an integral connection with the cultural and educational sphere is one of the important areas that require studies.

Keywords: Education, law, prison, estates, old schools, new method schools, illiteracy courses, national education system.

Barcha sohalarga ildio‘ sifagida hizmat qilgan xalq ta’limiga ayollarning tortilishi masalasi ortida katta siyosiy jarayon mavjud bo‘lib, uning ildizi butun Turkiston hududi aholisini “madaniy inqilob” jarayoni bilan teng asosda rivojlantirish chora tadbirlari bilan izohlanadi. Rossiyalik tadqiqotchi O.A. Xasbulatovanning fikricha 1917-1930-yillarda ayollar va erkaklar tengligi masalasi Sovet davlatining mafkuraviy vazifasiga aylangan [1, B. 397,407]. Ayolning jamoat ishlab chiqarishidagi ishtiroki uning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi vosita deb qaragan kommunistik partiya yuqoridagi mafkuraning bosh targ‘ibotchisi rolini o‘ynagan. Sovet Rossiyasining 1918-yilgi konstitusiyasida ayollar va erkaklar teng huquqliligi xaqida moddalarning mavjudligi boshqa sovet respublikalari qatorida Turkiston ASSR konstitusiyasiga ham ayollar va erkaklar teng xuquqli ekani to‘g‘risidagi bandni kiritilishiga sabab bo‘ldi. Ammo, ayollar masalasida shariat ahkomlariga rioya qilinib kelingan Turkiston sharoitida ayollarning jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlarga erishishi juda mushkul masala edi. Musulmon dunyosida ayolning bosh vazifasi oila va farzand tarbiyasi deb qaralar va ularni jamiyat hayoti, ayniqsa boshqaruvda ishtirok etishi aqlga sig‘mas xodisa hisoblangan. Ayollarni savodxon qilish – teng huquqlilik yo‘lida qo‘yilgan birinchi qadam bo‘lishi kerak edi. Xalq madaniy hayotining asosiga tayanch nuqta etib belgilangan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar sovet davlatining ilk islohotlaridan biri bo‘ldi. Oktabr to‘ntarishidan so‘ng barcha mustamlaka o‘lkalarda yangi madaniy turmush va tartibni yaratish bo‘yicha harakatlar avj oldi. Masalan, Turkiston o‘lkasida maorif sohasi bilan shug‘ullanadigan Vaqf jamiyati 1925-1927-yillarda yer-suv islohoti jarayonida tugatib yuborildi. Vaqf mulklari esa davlat mulklari sifatida ommaviy yer mulk tasarrufiga olindi. Ushbu vaqf mulklari tasarrufiga madrasalarning yopilishi

ta'lim sohasidagi alohida islohotning boshlanishi hisoblandi. Savod o'rganish masalasi bilan aynan vaqf tashkiloti mas'ul bo'lgan, ya'ni madrasa, qorixona, otinoyilar uylaridagi maktablar kabi ta'lim muassalarining faoliyati asosan moliyalashtirish jarayoni bilan birgalikda ushbu tashkilot mas'ulligida hal etilgan. Biroq sovet hokimiyatining “madaniy inqilob” jarayoni diniy maktablar faoliyatiga keskin zarba bera boshladi. Shu munosabat bilan madrasa, milliy maktablar, qorixona va otinoyi maktablari faoliyati sovet maktablari bilan almashtirila boshladi. Ta'lim jarayoniga ayollarning jalb etilishi milliy mentalitetga doir muammolarni yuzaga keltirgan bo'lsada, Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hukumati qanday qilib bo'lmasin o'z maqsadlarini amalga oshirishga harakat qildilar. Jadidchilikning yangi usul maktablari faoliyati butun o'lkada keng tarqalgan bo'lsa-da, xotin-qizlar masalasida sovet maktablaridagi kabi moddiy asosga, o'quv qo'llanma va keng tarqalgan targ'ibot materiallariga ega emas edi. 1919-yili Turkiston ASSR Kompartiyasi Markaziy Komiteti huzurida ishchi va dexqon xotin-qizlar bo'limlari tuzildi. Bu jarayon asrlar davomida uy yumushlari va bola tarbiyasi bilan shug'ullanib kelgan ayollarni “madaniy qullik jarayonidan ozod qilish va ularning ijod va ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish” sifatida talqin qilindi [2, B.12]. Ushbu bo'lim qoshida tashkil etilgan turli yoshdagi xotin-qizlar savodsizligiga qarshi kurashish uchun bir necha turkumdagi faoliyatlar yo'lga qo'yildi. Amalga tadbiiq etilgan faoliyat turlari bo'lgan to'garaklar, kurslar, tadbirlarda sotsialistik g'oyaga sodiq mahalliy aholi vakillaridan, jumladan ayollaridan keng foydalanildi. Zero turk, arab, eski o'zbek yozuvi bilan savod chiqargan Turkiston ayollarining yangi alifbo tartibida bilim olishi qiyin bo'lmasa-da, mahalliy shariiy qonun-qoidalar bu jarayonga turli tahdidlar bilan to'sqinlik qilardi. Birgina Xorazm o'lkasidagi birinchi sovet maktabining ochilishi chog'ida o'lkada 25 mingdan ortiq dindor va 100 ga yaqin diniy maktablar mavjudligi sovet tuzumi maktablari faoliyatiga yetarlicha zarar yetkaza olardi [3,B.15]. Ishchi va dehqon xotin-qizlari orasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish uchun xotin-qizlar bo'limlari yonida alohida partiyaviy-tashkiliy komissiyalar ham tuzildi. Xotin-qizlar bo'limlarining asosiy vazifasi xotin-qizlar o'rtasida ommaviy-siyosiy ishlar olib borib, sovet tuzumi va kommunistik partiya mafkurasini oddiy xalq orasida keng yoyish, targ'ib etish edi. Bu bo'limlar bevosita joylarda bo'lishib, xotin-qizlar uchun turli (o'qish-yozish, tikuvchilik, pazandachilik, kitobxonlik va boshqa) to'garaklar tashkil qildilar, xotin-qizlarga bepul siyosiy adabiyotlar va turli badiiy kitoblar tarqatdilar [4, B.82]. 1921- yil 15-aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan kommunistik yoshlar ittifoqi Markaziy Qo'mitasi majlisida yoshlar qo'mitalari qoshida qizlar bilan ishlash mahsus bo'limini tashkil etish haqida qaror qabul qilinadi [5,B.166]. Bu qaror 1920 yilning oxirigacha tashkil etilgan O'zbekistonning 45 ta rayon va shahar xotin-qizlar bo'limlarida to'liq amaliyotga joriy etildi. Ushbu bo'limlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari Turkiston o'lkasi xotin-qizlarini milliy an'analardan voz kechtirish, ular ongini madaniy sohalar asosida mutlaqo sovet tuzumi siyosatiga moslash, ularni ichki oilaviy itoatkorlik hayotidan chiqarib jamiyatning faollikdagi ishchilar sinfiga qo'shish hisoblandi. Bu jarayon sovet hokimiyatini ayollar ozodligi masalasi deb ko'tarilgan masalasini butkul o'zini oqlashi uchun, doimiy uy yumushlari, bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladigan ayollarni kunutun jamiyat, davlat bilan uzviy bog'lash bilan oqlash jarayonini yuzaga keltirdi. 1921-1922- yillarda sovet tashkilotlari hizmatchilari orasida o'zbek ayol ishchilari paydo bo'ldi. Xotin-qizlar maktablari uchun qimmatli o'quv qo'llanma vazifasini o'tagan

“Yangi yo‘l” nomli gazeta nashr qilina boshladi [6, B.100]. Komunistik partiya dekreti asosida amalga oshirgan faoliyati natijasida 1921-yilning o‘zida Turkiston o‘lkasida savodsizlikni tugatish borasida o‘lka ayollari uchun 1000 ta to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unda qariyb 50 ming ayol qatnashgan. Ayni 1922- yildan O‘zbekiston hududida ushbu masala dolzarbligi keng tadbiiq etilib ilmiy nashrlarga asos solindi. Biroq ayni shu davr nashlaridan birida ta‘kidlanganidek bu masala yashin tezligida milliy birlik, yohud inson psixologik qarashlariga ta‘sir kuchi bilan amalga oshirilishi bir oz ayanchli kechdi. Mahalliy xotin-qizlarni maorif maskanlariga jalb qilish oson bo‘lmadi. Mavjud maktablarda va hunar-texnika o‘quv yurtlarida mahalliy millatlarning qizlari o‘quvchilarning 7-8 foizini tashkil qilar edi [7, B.377]. Xotin-qizlar uchun alohida maktablar, xotin-qizlarni o‘qituvchi pedagoglar bo‘lishi kerak edi [8, B.349]. To‘g‘ri, barcha ma‘naviy birlik jarayoni ma‘rifat, ta‘lim jarayoni bilan yoritiladi. Biroq bu milliy ong darajasiga ta‘sir kuchini yuqori darajada siquvi asosida emas. O‘g‘il bolalar va qiz bolalarning aralash maktablarda o‘qish jarayoni aqida va milliy qarashlar bo‘yicha tarbiya etilgan mahalliy xalq bolalarining ruhiy olamiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi, bu masalada shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik zarurligi ta‘kidlandi [9, B.83]. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida xotin-qizlar klublari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday klublarning birinchisi 1924-yilda Toshkentning Eski shahar qismida ochilgan edi. Xotin-qizlar klublari huzurida bolalar yasllari, xotin-qizlar va bolalar uchun vrach maslahatxonolari, savodsizlikni tugatish maktablari, yuridik kabinetlar, xotin-qizlarga ishlab chiqarish kvalifikatsiyasini beradigan to‘garaklar tashkil etildi [10.]. Klublar yonida o‘zbek qizlari uchun pioner otryadlari tuzilishi ham sovet tuzumi va mafkurasini yoyishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tan olish kerakki, bu kabi xotin-qizlar klublari mahalliy aholi tomonidan ham ma‘qullandi, ular respublikaning boshqa hududlarida ham tashkil etila boshladi. Chunki, bunday klublar faqat xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unga xotin-qizlarga qatnashar, ularga saboq va hunar o‘rgatadigan o‘qituvchi-murabbiylar ham ayollardan edi. Bu esa mahalliy aholining urf-odat va an‘analariga zid kelmas edi. 1924-yilning avgustida Samarqandning Eski shaharida xotin-qizlar klubi ochildi. 200 a‘zosi bo‘lgan bu klub huzurida savodsizlikni tugatish kursi va kutubxona ham ochildi. Eski Marg‘ilondagi xotin-qizlar klubiga 37 kishi a‘zo edi. Qo‘qon, Farg‘ona va boshqa bir qancha shaharlarda ham xotin-qizlar klubi ochildi. Umuman, 1924-1925-yillarda Turkistondagi xotin-qizlar klublarining soni 18 taga yetdi [11, B.391].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston tarixida ayollarning jamiyat xayotidagi turli sohalardagi kadrlar masalasi sifatida shakllanish davri sovet davri ijtimoiy-siyosiy tuzumining ijobiy xususiyati dab belgilvndi, garchi bu jarayon mahalliy halq orasidagi turli ixtiloflarga sabab bo‘lgan va birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan bo‘lsada.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хасбулатова О. А. Обзор опыта советской государственной политики в отношении женщин // Гендерная реконструкция политических систем / Ред.-сост. Н. М. Степанова, Е. В. Кочкина. СПб.: Алетейя, 2004. С. 397-407.
2. Хайдарова С. Октябрь ва махаллий хотин-қиз ўқитувчилар малакасини ошириш // “Совет мактаби”, 1978 йил. №9. – Б. 12.
3. Собиров О.С. Хоразм воҳасида маориф ва мактаб // “Совет мактаби” журнали. 1977 йил. №9.
4. Ўзбекистон ССРда 30 йил ичида халқ маорифи (1924-1954). И.Қ. Қодировнинг умумий тахрири остида – Тошкент: ЎзССР Давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1954. – Б. 82.
5. Хамидова А. Очерки истории комсомола Средней Азии. –Ташкент, 1966. – С. 166.

6. Ахмедшина Ф., Шнырова О., Школьников И.. Опыт решения «женского вопроса» в советское время. Введение в теорию и практику гендерных отношений. Сборник научных статей. – Ташкент, 2007.
7. Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 377.
8. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К.1.Ўзбекистон 1917-1939 йилларда – Тошкент “O‘zbekiston” НМИУ, 2019.
9. Смирнова А. Женское образование в Узбекистане // “Коммунистка”, 1928 г. №8. – С. 83.
10. “Правда Востока”, 12 мая 1924 г.
11. Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971.

SHAROF RASHIDOVNING BUYUK XIZMATLARIGA DOIR

Tilavova G.L. - o‘qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli davlat arbobi, iste’dodli yozuvchi va mohir diplomat Sharof Rashidovning Vatan ravnaqi, elu yurt farovonligi yo‘lida amalga oshirgan buyuk xizmatlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston SSR, SSSR, Markaziy Qo‘mita, byuro, stenogramma, GES, GRES, “Kreml ishi”*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о больших заслугах известного государственного деятеля, талантливого писателя и умелого дипломата Шарофа Рашидова на благо развития Родины и благополучия страны.*

Ключевые слова: *Узбекская ССР, СССР, ЦК, бюро, стенограмма, ГЭС, ГРЭС, “дело Кремля”*

Annotation. *This article talks about the great merits of the famous statesman, talented writer and skillful diplomat Sharof Rashidov for the benefit of the development of the Motherland and the well-being of the country.*

Keywords: *Uzbek SSR, USSR, Central Committee, bureau, transcript, hydroelectric power station, state district power station, “Kremlin case,”*

Istiqlol yillarida ma’naviyat va tarixiy xotira masalalari davlatimiz siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Tariximiz, eng avvalo, yurtimizda yashab o‘tgan buyuk siymolar, xalq orasidan yetishib chiqqan ulug‘ ajdodlarimizning hayot yo‘lida, ularning Vatan oldidagi benazir xizmatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tariximizda o‘chmas iz qoldirgan Sharof Rashidovning nomi mustaqil O‘zbekiston va o‘zbek xalqi uchun g‘oyat qadrli va tabarrukdir. Zero, Birinchi Prezident ta’kidlaganidek, ”Rashidov – o‘zbek nomini ulug‘lash uchun eng yuksak fazilatlarini namoyon qilishga jonini fido etgan insondir. Shu tufayli xalqimiz yuragidan munosib joy olgan va uning mehriga sazovor bo‘lgan” [2, B. 95-96].

Atoqli davlat arbobi, iste’dodli yozuvchi va mohir diplomat Sharof Rashidov nafaqat o‘zbek xalqi qalbida so‘nmas iz qoldirdi, balki tirikligidayoq butun Sharqda ehtirom bilan tilga olinadigan arbobga aylangan edi. U jahonning o‘nlab mamlakatlarida xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini bog‘lashda bamisli bir ko‘prik bo‘lib xizmat qildi, elu elatlarning mehr-muhabbatini qozondi.

XX asrning 50-80-yillarida eng og‘ir va qaltis bir davrda sobiq O‘zbekiston SSRni boshqargan Sharof Rashidov o‘ta matonatli va g‘oyat o‘tkir aql sohibi, teran va keng fikrlovchi, O‘zbekistonni yanada gullab-yashnatishda faol kurashchi, uning istiqboliga ishonchi mustahkam, o‘ta ehtiyotkor va muruvvatli inson bo‘lgan. U 1943-1944 yillarda

Samarqand viloyati gazetasining muharriri, 1944-1947-yillarda shu viloyat firqa kotibi, 1947-1949-yillarda “Qizil O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri, sal o‘tmay 1949-1950 yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo‘lib xizmat qildi [3,B.6]. Binobarin, uning ijodi asosan 30-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan bo‘lib, dastlab she‘riyatda qalam tebratgan. Uning birinchi she‘riy to‘plami «Samarqand kuylari» nomi bilan bosilgan. So‘ng esa «O‘lkam», «Orzuimiz» (1939) kabi she‘rlari chop etilgan. Ulug‘ Vatan urushi davrida fashizmga qarshi g‘alabaga yetaklovchi she‘rlar yozib, 1945 yilda «Qahrim» nomi bilan to‘plam sifatida chop ettiradi. Sharof Rashidov maqolanavis — publitsistikdan kamolga yetgan adib darajasiga ko‘tariladi. Shuning uchun ham uning badiiy ijodi namunalari bu ruh yetakchi o‘rinni egallaydi. Adibning katta nasr namunalari bo‘lgan «G‘oliblar», «Bo‘rondan kuchli», «Qudratli to‘lqin» romanlarida urushdan keyingi O‘zbekiston xalqini, tiklanish yillaridagi mehnat jasratlari badiiy ifodasini topgan. Ijodkorning «Kashmir qo‘shig‘i», «Komde va Mudan» kabi lirik qissalari an‘anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo‘lib, yoshlik, bahor, go‘zal hayot nashidasi madhiga bag‘ishlangandir. Adib hayotining so‘nggi yillarida yaratgan «Dil amri» qissasi Vatan urushi yillarida Belorus zaminida kechgan jang manzaralari, turli millat jangchilarining g‘alaba yo‘lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag‘ishlangan. Buni qaranki, to‘qqiz yil O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi, nihoyat, umrining oxirigacha O‘zbekiston Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi bo‘lib ishlagan Sharof Rashidov umri davomida o‘ta odmi kiyingan, dabdaba va boylikka ruju qo‘ymagan, oilasi bilan ko‘p qavatli uylarning bir mo‘jazgina oddiy xonadonida istiqomat qilgan. Sobiq SSSRdek katta bir imperiyada katta lavozimlarda ishlagan shaxslar orasida ana shunday kamsuqum, ya‘ni molu mulkka berilish kasalidan mutlaqo xoli buyuk insonning bo‘lganiga ba‘zan ishongimiz kelmaydi [4,B.29].

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritib kelayotgan tadqiqotchi olimlarimizdan Muhiddin Rahimning Rashidov shaxsiga oid shaxsiy fikr-mulohazalariga ham biroz e‘tiborimizni qaratsak. Rashidov sovet tarixchiligi “Ulug‘ Oktabr inqilobi” deb atagan olamshumul tarixiy voqeadan bir kun oldin-1917 yil 6-noyabrda tug‘ilgan. Binobarin, Rashidovning 66 yillik umri to‘lig‘icha sovet zamonida o‘tdi. Bu tuzum, aksar zamondoshlari qatori, unga ham o‘z g‘oyalari qon-qonigacha singdirib yuborgan edi. Rashidovda ushbu g‘oyalarga nisbatan shubha-gumon uyg‘ongan paytlar bo‘lgani ham ehtimoldan holi emasdi. Lekin bu shubha-gumonlar favqulodda kuch yig‘ib, uni o‘zga e‘tiqodga yetaklaganiga ishonish qiyin. Rashidov hakidagi xotiralarda u kishi SSSRning parchalanib ketishiyu O‘zbekistonni mustaqillikka erishishni orzu qilgan, deganga o‘xshash fikrlar ham tilga olinayotir. Vaholanki, u Ittifoqning parchalanib ketishini, menimcha, xayol qilishi dargumon edi [5,B.42]. Sababi-Rashidov hayotdan ko‘z yumgan vaqtda SSSR hanuz dunyoning ikki zabardast davlatlaridan biri edi. O‘zbekiston mustaqilligi masalasiga kelsak, buni ham u SSSR bag‘ridagina bo‘lmog‘i mumkin deb tassavur qilgan chiqar. YA‘ni, ko‘pgina huquqlarni markazdan olib respublikalarga berish, bir so‘z bilan aytganda, nomarkazlashtirish ma‘nosida... Rashidov menga, ayniqsa, yoshlik kezlari o‘sha davr g‘oyalariining chin muxlisi, ta‘bir joiz ko‘rilsa, shaydosi bo‘lganidek tuyuladi. Uning biografiyasida bunga yorqin dalil bo‘luvchi bir voqea bor. U 1941 yili urushga otlanib, 1942 yilda yelkasidan og‘ir yarador bo‘ladi. Uzoq vaqt gospitalda davolangach, harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilib, yurtiga qaytarib yuboriladi. Yosh Sharof shu yili bir umrlik suyanchig‘i-

Xursanoy bilan oila quradi. Kuyov o‘z to‘yida so‘z olib, siyosiy mazmunda jo‘shqin nutq suzlaydi. Kuyovning o‘z to‘yida bu taxlit so‘zlashi g‘ayritabiiy xol emasi? Uning nega bunday qilgani esa, albatta, o‘sha shaydolik –sovet g‘oyalariga mukkasidan ketish bilan izohlanadi. Yoki bu narsa davr talabi bo‘lganmikan? Harnechuk, shu hol Rashidovning siyosat pillapoyasidan yengil ko‘tarilishida qo‘l kelgandek, nazarimda. Balki shu tufayli ham u juda erta-33yoshda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi bo‘lgandir. U har doim o‘ziga yuklatilgan vazifaga o‘ta mas‘uliyat bilan yondashgan, unga bor kuchini ayamay sarflagan. Rashidov biografiyasidan bunga har qancha misol topish mumkin. Ayni chog‘da, u menga nihoyatda ehtiyotkor inson bo‘lgandek tuyuladi. Sababi-siyosiy piramida cho‘qqisiga ko‘tarilgunga qadar u birorta ham jiddiy xatoga yo‘l qo‘ymagan [5,B.42]. Siyosat pillapoyalaridan ildam ko‘tarilishida unga faqat sog‘lig‘igina pand berishi mumkin edi. Chunki urushda yelkasidan olgan jarohati yuragida asorat qoldirgan edi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetning 1959 yil 12-14 martdagi byuro majlisida birinchi kotiblikka nomzod tanlash chog‘i ayni shu yurak xastaligi masalasi yuzaga qalqib chiqadi. Ushbu lavozimiga nomzod etib ikki kishi-O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sharof Rashidov hamda Samarand oblast partiya komitetining birinchi kotibi Orif Alimov ko‘rsatiladi. Ayrim byuro a‘zolari Rashidovga “Birinchi kotiblik qattiq mehnatni taqozo etadi, bunga xasta yuragingiz dosh berarmikan”, deya ishtiboh bildiradi. Shunda u o‘tgan yili chindan ham yuragi bot-bot og‘rigani va ancha vaqtini sog‘lig‘ini tiklashga sarflaganini tan oladi. Ammo hozir o‘zini soppa-sog‘ his qilayotgani va har qancha mehnat bo‘lsa qochmasligini ta’kidlaydi.

Rashidovning birinchi kotiblikka qanday saylangani hakida ikki versiya bor. Birinchisi-uning nomzodini byuro a‘zolari yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlagan. Bu versiyaga byuro majlisining stenogrammasi asos qilib olinadi. Ikkinchisiga ko‘ra esa, Rashidov atigi bitta ovoz olgan va shu ovoz ham o‘ziniki bo‘lgan. Bu versiya o‘sha byuro majlisi ishtirokchisi-Rashidovga muxolif kayfiyatdagi Rasul G‘ulomov xotiralariga asoslanadi (Gorbachyovcha oshkorlik yillarida yozuvchilar Komil Ikromov hamda Temur Po‘ltov ayni shu versiyani “ markaz” matbuotida yozib chiqqan edi.) [5,B.42-43]. Tariximizga obyektiv baho berar ekanmiz, xalqimizning otashqalb farzandi respublikaga rahbarlik qilgan salkam chorak asrlik davrda yurtimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida hech shubhasiz, sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qoraqalpog‘iston viloyati partiya qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi Qallibek Kamolov o‘z esdaliklarida ta’kidlashicha, Sharof Rashidov Toshkent metropoliteni qurilishi masalasi bo‘yicha o‘sha paytda sobiq KPSS MQning Bosh kotibi L.I.Brejnev qabuliga turli paytlarda va holatlarda olti marta kirgan ekan. Yettinchi marta kirganida: ”Sen, Rashidov, metroing bilan jonimga tegding!”-deb hujjatga qo‘l qo‘yib bergan ekan. Mamlakat “otasi”ning kabinetidan og‘ir xo‘rsinib ”Nihoyat hal bo‘ldi...” deb chiqqan Sharof Rashidov holatini, dard aralash sevinchini Q.Kamolov alohida ta’kidlaydi [6]. Sharof Rashidov yuqorida alohida ta’kidlab o‘tganimizdek, xalqaro miqyosda tanilgan siyosat va madaniyat arbobi edi. U Hindiston, Iroq, Kuba, Jazoir, Mali, Indoneziya, Avstriya, Misr, Chili, Italiya, Gvineya singari jahonning ko‘plab mamlakatlarida hukumat delegatsiyalariga boshliq sifatida samarali safarlar qilgan. Muhimi u xorij safarlari chog‘i SHo‘rolar davlatining yoki komfirqaning mas‘ul arbobi sifatida alohida rutbaga ega bo‘lsa-da, avvalo o‘zbek farzandi, ming yillarga teng ma’naviy madaniyat sohibi bo‘lgan xalq vakili sifatida o‘zini ko‘rsata oldi [3,B.7-8]. Shuning uchun ham

uning nomi millatimiz xislatlarining timsoli tarzida idrok etiladigan bo‘ldi. Biroq, Sharof Rashidov vafot etgach uning xotirasi oyoqosti qilindi va “rashidovchilik” atamasi o‘ylab topildi. “Sharof Rashidov o‘z tuzumiga sadoqat bilan xizmat qildi. Ammo payti kelib u dunyodan ko‘z yumganidan keyin umr bo‘yi himoya etgan tuzumi unga xiyonat qildi. Dunyoda hech bir bunday beandisha tuzum yo‘qki, inson qadrini bu qadar bebro‘ qilsa! Bugun ko‘klarga ko‘tarib ertasiga yer bilan yakson etsa!” [1,B.11]. Bo‘lib o‘tgan tarixiy jarayonlarga xolisona baho berar ekanmiz, ta’kidlash lozimki, Rashidov vafot etganidan keyin respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti keskin sustlashdi, hatto ko‘p hollarda butunlay to‘xtab ham qoldi. Hokimiyatni uzoqni ko‘rolmaydigan, yengiltabiat, irodasiz, faqat o‘zini o‘ylaydigan, nafsga berilgan shaxslar egallab oldi. Haqiqiy rahbarsiz qolgan respublika xalqi sobiq Markazga siyosiy qimorbozlikning qurboni bo‘ldi [7,B.81]. Ularning siyosiy o‘yinlari, makkor niyatlari natijasida O‘zbekiston tarixida ko‘rilmagan yovuz tajriba maydoniga aylantirildi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy xotira bor ekan, xalq o‘zining buyuk kechmishi, qadriyati va an‘analarini doimo o‘zi bilan birga saqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Xalqimizning otashqalb farzandi” T.: 1992.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T.:O‘zbekiston, 1996.
3. Sharof Rashidov (1917-1983) (Bibliografik ko‘rsatkich) T.: Sharq, 1997.
4. Quljonov A, Adib va zamon. Guliston, 2012.
5. “Tafakkur” jurnali. Muhiddin Rahim. “Tong va Shom”. 2017 yil. №4-son.
6. “Xalq so‘zi” gazetasi. 1992 yil 28 oktabr soni.
7. Tarix va milliy o‘zlikni anglash. T.: “Vnesh Invest Prom” nashriyoti, 2017.

SHOHRUX MIRZONING HINDISTON SULTONLARI BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXIDAN

*Begimkulov Jurabek - o‘qituvchi, Asatov Yunus –talaba
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shohrux Mirzoning Hindiston sultonlari bilan olib borgan siyosiy-diplomatik aloqalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Dehli, elchi, sulton, diplomatik munosabatlar, Hindiston, Vijayanagar.

Аннотация: В данной статье речь идет о политических и дипломатических отношениях Шахруха Мирзы с индийскими султанами.

Ключевые слова: Дели, посол, султан, дипломатические отношения, Индия, Вижаянагар.

Annotation: In this article is stated about Shaxrukh Mirza’s political and diplomatic issues with Indian sultans.

Keywords: Delhi, ambassador, the sultan, diplomatic issues, India, Vijayanagar.

Turon va Hindiston davlatlari diplomatik aloqalari juda qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, ayniqsa, bu jarayon Shohruh Mirzo davrida faollashdi. Tabiiyki, Amir Temurning vafotidan so‘ng temuriylarning Hindiston bilan munosabatlari qay darajada kechganligi ko‘pchilikni qiziqtiradi. Bunda mashhur temuriy hukmdor Shohrux Mirzoning diplomatiyasini o‘rganish muhimdir. XV asr boshlariga kelib, Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligi parchalanib, bir nechta knyazliklar mustaqil davlatga aylangan, endi Dehli shimoliy Hindistonda gegemon davlat rolini o‘ynamay qolgan edi. Janubiy Hindistonda esa bu davrda bir necha yirik davlatlar tashkil topgan bo‘lib,

ularning ichida eng yirigi – Vijayanagar edi. 1442-yil Shohrux Mirzo Janubiy Hindistonga Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilik hay'atini yo'llaydi. Ushbu elchilikning asl maqsadi Kolikut (hozirgi nomi Kojikode) shahri hukmdoriga Shohrux Mirzo nomi bilan o'qiladigan xutba o'qitish edi[2:97]. Shohrux Mirzo yuborgan farmondan so'ng Junapur hukmdori Bangolaga (Bangladesh) qiladigan bosqinini to'xtatganidan xabar topgan Kolikut hukmdori turli sovg'alar bilan o'z vakilini Shohrux Mirzo huzuriga yo'llaydi. U o'z murojaatida «bu bandarda juma va Iyd (namoz)larida islom xutbasini o'qiydilar, agar u hazrat ruxsat bersalar (xutbani) u kishining muborak nom va laqablari bilan aziz va sharaflil qilinsa» deya arz etadi[1:126]. Muarrir «(Kolikut voliysi) ning xabarchisi Bangoladan kelayotgan elchilar bilan birgalikda muborak dargohga yetib keldi. Amirlar uning arza-xat va tuhfarini (Shohruxga) ko'rsatdilar. Uning xabarchisi so'zga usta bir musulmon kishi ekan, suhbat asnosida: «agar onhazrat Kolikut voliysiga nisbatan inoyat ko'rgazsalar va uning uchun maxsus bir elchi yuborsalar, toki elchi borib,» Rabbing yo'liga (kofirlarni) hikmat va yaxshi va'zlar bilan undagin!» (Nahl surasi, 125-oyat) degan oyat talabiga muvofiq uni Islom diniga da'vat qilib, qorong'u dilidagi zulmat va xatkorlik qulfini ochsa, (shoyad) imon nurining shu'lasini va ma'rifat oftobining yorug'ligi uning dili darichasidan kirsalar, — bu, albatta, savobli ham to'g'ri ish bo'lur edi», degan so'zlarni aytdi. Hazrat (Shohrux Mirzo) xabarchining so'zini ma'qul topib amirlarga elchi tayin qilishni buyurdi» deya voqeani bayon etadi.[1:126] E'tiborli jihati shundaki, Kolikut muarrir ta'biri bilan aytganda «kofirlar qo'l ostidagi shahar bo'lib, dorulharbdir (islom dinida bo'lmagan xalqlar tomonidan idora qilinadigan davlat yoki shahar)»[1:124]. Shaharda bir guruh musulmonlarda bo'lib, ular Shofe'iy mazhabida edi va ularning 2 ta jome masjidi bo'lgan. Shohrux Mirzo Kolikut hukmdoriga ot, po'stin, tillado'zi dakala va kulohi navro'zi yuboradi.[1:125] Somuriy (Kolikut hukmdorlarining unvoni) Abdurazzoq Samarqandiy qabul qiladi. Elchilar 1443-yil aprelogacha shu yerda bo'lishadi.[2:128] Kolikut hukmdorining Shohrux Mirzoga elchi yuborib, xutbaga uning nomini qo'shib o'qish tashabbusi bilan chiqishidan maqsad shuki, bu davrda janubiy Hindiston mamlakatlari orasida eng kuchlisi va eng yirigi Vijayanagar[4:243] bo'lib, fikrimizcha somuriyga Vijayanagar bosqinlarni to'xtatib tura oladigan «homiy» kerak edi, Kolikut hukmdori bu «homiy»ni Sulton Shohrux siyomosida ko'radi va shu hisobdan mamlakatda uning nomiga xutba o'qilishi ortidan o'z mamlakatini xavfsizligini ta'minlamoqchi bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiy 1443-yil aprelda Vijayanagar mamlakati tomon o'tlanadi, buning sababi shundaki elchilar Kolikutda ekan, Vijayanagar hukmdori Deva Raya II (1422-1446) Kolikut voliysiga elchilarni o'z saltanati tomon yuborishni talab qiladi. Garchi Kolikut hukmdori Deva Raya IIga qaram bo'lmasa-da, biroq undan qattiq qo'rqar edi, shuning uchun uning talabini bajaradi. Bizningcha Deva Raya II ning elchilarni o'z mamlakatiga yuborishni talab qilishiga sabab, bu davrda ham Temuriylar saltanatining Yevrosiyodagi asosiy kuch markazlaridan biri ekanligi, Dehli sultonligining Shohruxga tobeligi, Shohrux Mirzo Junapur hukmdorining Bangolaga bosqinini to'xtatib qolganidan xabardor bo'lsa kerak, shu sababdan Temuriylar saltanatiga qiziqish bildirib, u mamlakat elchilarini o'z huzuriga chorlab, Temuriylar saltanatining kuch qudrati, mamlakatdagi ahvol haqidagi bilgilarni bilib olishga intilgan. Shohrux Mirzo davrida janubiy Hindistonning port shahar-davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojlana boshladi. Bu borada Shohrux Mirzo amalda davlat hududini nafaqat harbiy, balki diplomatik usullar bilan

ham kengaytirishni amalga oshirib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi.[3] Elchilar 1443-yil 30-aprelda Vijayanagar poytaxtiga yetib keladi,[1:132] hukmdor ularni munosib qarshilaydi. Abdurazzoq Samarqandiy ko‘p marotaba saroyga taklif etiladi va hukmdor qabulida bo‘ladi.[2:98] Elchilik hay‘ati Vijayanagardan qaytishida ular bilan asli xurosonlik bo‘lgan, biroq hozirda shu yerda yashayotgan Vijayanagarning ikki vakili – Xoja Ma’sud va Xoja Muhammad Hirot saroyiga elchilika tayin etiladi. Hirot saroyiga elchi tayin etilishiga sabab, bizningcha Vijayanagar hukmdori Temuriylar saltanati bilan aloqa o‘rnatish, davlatning ahvoli, mamlakatning kuch-qudrati haqida yanada kengroq ma’lumot olishga harakat qilgan. Tug‘luqiylar sulolasining (Dehli sultonligida 1320-1413-yillarda hukmronlik qilgan) vakili Feruzshoh Tug‘luqning nabirasi Fathxon ham ularga qo‘shib, o‘z elchisi Xoja Jamoliddinni yo‘llaydi. Yo‘l asnosida Xoja Ma’sud Bokanur (Hind yarim orolining g‘arbi)da vafot etadi.[1:159] Elchilar 1444-yil 15-mart kuni kemaga o‘tirib jo‘naydilar[1:160]. Elchilar 1444-yil 26-dekabr kuni Hirotda yetib kelishadi. Elchilar Xoja Muhammad va xoja Jamoliddin Shohrux Mirzo tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Elchilar xoqoni saidga 3 dona yoqut va o‘nta tuyaga yuk bo‘ladigan hind dorivor o‘simliklarini taqdim etishadi.[1:177] «Bular humoyun mizoj(Shohrux)ga juda ma’qul keldi, chunki u mamlakatlardan ikki-uch yuz yillar davomida bu yerga elchi kelganligi haqida hech qayerda so‘zlanmagan edi»[1:177]. Shohrux Mirzoning o‘zi ham bu mamlakatlarga qiziqish bilan qaragan, davlat ishlaridan forig‘ bo‘lishi bilan janubiy Hindiston mamlakatlaridagi davlat va shaharlardagi ahvol, mahalliy aholining urf-odatlarini, u mamlakatlardagi g‘aroyibotlar haqida so‘rab surishtirgan. Sulton Shohrux elchilarni haftada 2 marta qabul qiladi va ular humoyun majlisida ishtirok etishadi. Xoja Jamoliddin Feruzshoh Tug‘luqning nabirasi Fathxonning maktubini hukmdor Shohruxga topshiradi. Fathxon maktubida Shohrux mirzodan «meni sultonlar panohi(Shohrux) talab qilib olsalar toki u hazratning davlati barakoti bilan o‘zim tug‘ilib o‘sgan vatanimga yetishsam»[1:178] deya o‘z arzini bildiradi. Shohrux Mirzo uning iltimosiga javoban Vijayanagar hukmdori Deva Raya II ga maktub yo‘llaydi, maktubda agarki, hukmdorning qo‘lidan kelsa Fathxonni ota yurtiga yetkazishi, bo‘lmasa uni temuriylar saltanatiga yuborishi va Temuriy qo‘shinlar uni ota yurtiga yetkazib, taxtiga o‘tqazishi bayon etilgandi.[1:178] Maktub mazmunidan anglashiladiki, Shohrux Fathxonni ajdodlari taxti bo‘lmish Dehli taxtiga o‘tqazmoqchi, fikrimizcha Shohrux Mirzo bu bilan Temuriylar saltanatining qudratini Deva Raya II ga bildirib qo‘ymoqchi, hamda Dehli sultonlari ortiqcha nomaqbul harakatlar qilsa, o‘z taxtida o‘tira olmay qolishlari mumkinligiga ishora qilmoqda. Shohrux o‘z josuslari orqali butun saltanat va qo‘shni davlatlardagi voqeiyliklardan xabardor bo‘lgan, u shimoliy Hindistondagi voqealardanda xabardor bo‘lgan holda, Dehli saroyida yuz bergan ehtimoliy vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rgan ko‘rinadi, so‘nggi yillarda hokimiyati zaiflashib qolgan sayyidlar sulolasi taxtdan qulagudek bo‘lsa, o‘rniga tug‘luqiylar sulolasining vakili Fathxonni taxtga olib kelmoqchi bo‘ladi. Elchilar Hirotda 1445-yil 8-apreliga qadar bo‘lishdi.[1:178] So‘ng hukmdor ularni qaytishiga ruxsat beradi va ularning har biriga egar jabduqlik ot, dakalayi navro‘ziy, 3 mingdan kepakiy dinor, ularning o‘nta navkariga esa bittadan qabo, 400 dinordan pul, Ho‘rmuzga yetib olishlarigacha ulufa va yom otlari belgilandi. Vijayanagarga elchilikka mavlono Nasrulloh Junobodiy tayin etiladi. U orqali Vijayanagar hukmdoriga sovg‘a salom, tuhfaralar berib yuboriladi. Biroq, ushbu elchilikning keyingi tafsilotlari haqida ma’lumotlar qayd qilinmagan.[4:244] Balki elchilar Vijayanagarga qadar yetib

bormagandir, yetib borgan bo'lsa, ular haqida Hindistonning o'rta asrlar tarixiga oid asarlarda bilgilar qayd etilgan bo'lsa kerak. Elchilar o'z missiyasini yakunlab Hirotga qaytib kelgan bo'lishida mumkin, biroq buyuk Shohruxning vafotidan so'ng boshlangan toju taxt kurashlari vaqtida ularga e'tibor qilinmagan bo'lishi ham mumkin. Hindiston masalasida Shohrux Mirzo shunday qadam tashladiki, nafaqat temuriy shahzodalarning hech biri, balki oldingi musulmon sulolalari ham bunday qadamni amalga oshira olmadilar. Bu qadam mintaqaning janubida joylashgan port shaharlarga ta'sir ko'rsatishi edi[3]. Shohruxning hukmronligi yillarida Temuriylarning Hindiston yarim orolidagi mamlakatlar bilan aloqalari yanada kengayadi. Temuriylar saltanatining ta'sir doirasi yana ham kengayib endi, o'lkaning janubiy va sharqiy hududlarinida qamrab oladi[4:241]. Shohrux Mirzoning faol va uzoqni ko'zlab olib borgan tashqi siyosati tufayli saltanatning mavqeyi, ta'siri Hind diyorida ham kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. *Matlai sa'dayn va majmai bahrayn II jild, 2-3 qismlar 1429-1470-yil voqealari // fors tilidan tarjima va izohlar muallifi A.O'rinboyev; Mas'ul muharrirlar: Aziz Qayumov, Muhammad Ali; T.: O'zbekiston-2008.*
2. Mannonov B.S., va boshq. *O'zbek diplomatiyasi tarixidan (tarixiy ocherklar va lavhalar). M.M. Xayrullayev tahriri ostida. T.: 2003.*
3. <http://netess.ru/3istoriya/3865-1-fayziev-hurshid-turgunovich-mesto-shahruha-mirzo-gosudarstve-temuridov-ego-vneshnyaya-politika.php>
4. Bo'riyev O. *Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. T.: Mumtoz so'z, 2017.*
5. Sultonov F., Bozorboyev F. *O'zbekiston hukmdorlari. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.*
6. Vohidov Sh., Qodirov A. *Sharqning mashhur sulolalari. T.: Akademnashr, 2013.*

**O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA JISMONIY TARBIYA VA
SPORTNI OMMALASHTIRISH MASALALARI**

Sirliyev Asraf - *Jizzax olimpiya va paralimiya sport turlariga tayyorlash markazi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sog'lomlashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda mamlakatimizdagi barkamol avlodni shakllantirish bilan bog'liq islohatlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, sport, renessans, seleksiya, universal, professional, hayotiy qobiliyat, Olimpiada o'yinlari.*

Jismoniy tarbiya va sportning aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularni yod g'oyalardan asrash, jismonan baquvvat, ma'nan yetuk sportchi va kadrlarni tayyorlashda o'rni katta. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor natijasida, jismoniy tarbiya va sport sohasi orqali mamlakatni har tamonlama rivojlantirishga ustuvor masala sifatida qaralmoqda. Avvalo, o'quvchi yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga katta ishtiyoq va qiziqish uyg'otib, ularni bu sohaga uzluksiz jalb qila oladigan, milliy ta'lim tizimi doirasida o'tkaziladigan, yoshlarni sog'lomlik, komillik va go'zallik g'oyalari ruhida tarbiyalaydigan ommaviy sport harakatini shakllantirish zarur edi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida xalqimizning O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotganini ta'kidladi.

Yurtimizdagi Uchinchi Renessans jismoniy madaniyat va sportni yuksaltirishga ham yo‘naltirilganligi ushbu "hayotiy qobiliyat" ni oshirish maqsadi ko‘zlanganligi bilan izohlanadi. Shu asosda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy usullari joriy qilinmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta‘minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda 2020 yil 24 yanvarda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5924-son qaror va O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Natijada sport bilan shug‘ullanuvchi o‘g‘il-qizlar soni keskin oshib, ularga bir necha mingdan ziyod mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan sport inshootlari barpo etilmoqda. Barcha sport turlari bilan shug‘ullanish uchun imkoniyatlar ko‘lami kengayib bormoqda. [1,58-bet] Mamlakatimizdagi barkamol avlodni shakllantirish bilan bog‘liq ushbu islohatlarni tarixiy milliy qadriyatlarimizning tiklanishi ham deb atashimiz mumkin. Qadimdan yurtimizdan chiqqan o‘g‘lonlarning jismoniy toblangan, mohir va sodiq jangchi, dovyurak va mard kishilar ekanligi olamga mashhur bo‘lgan. Yurtimizda o‘rganilgan arxeologik yodgorliklarda xalqimizning qadimgi harbiy qurollari va jang san‘ati haqida ma‘lumot beruvchi ko‘plab manbalar o‘rganilgan. Jizzax viloyati hududida o‘rganilgan ba‘zi qabrlarda marhumlar otliq-suvoriyning otda ketayotgan ko‘rinishida yotqizib, “to‘liq qurollangan holda” yoniga qilich, xanjar, kamon o‘qlari umuman tirikligida ishlatgan jang qurollari qo‘yilib dafn etilgan. [2,58-68-bet] Ularning dafn etilish holati mo‘zorro‘g‘onlarda qayd qilingan harbiy qurollar qadimgi davrda yurtimizda jismoniy toblangan yigitlar va harbiylarning alohida mavqega ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ajdodlarimizning mohir jangchilar bo‘lganligini sharq olamining asosiy hududlarin egalagan arab xalifalari ham yaxshi bilishgan. Arab manbalarida ajdodlarimiz qahramon xalq sifatida e‘tirof etilgan. Bu haqda X asrda yashab ijod qilgan arab tarixchisi Abulqosim Muhammad ibn Havqalning yozishicha, “...ash- Shosh va Farg‘onada (jangovar) tayyorgarlik va qurol aslaha shunday (darajada)ki, bugungi kundagi boshqa biror (Arab xalifaligidagi Sh.E.) chegara mamlakatda unga o‘xshash emas... Ularga Banu-l-Abbos oilasidan bo‘lgan xalifalar ham tan berganlar va Movarounnahr aholisidan askarlarini o‘zlarining xizmatiga taklif qilganlar. Turk askarlarining (fazilatleri) afzal bo‘lganligi tufayli ular barcha qo‘shinlarga boshchilik qilgan, ularning dehqonlari esa ularga amir yetib tayinlangan” [3,88-bet] Yurtimiz vakillarining Olimpiada o‘yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o‘yinlari va chempionatlari va boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani Vatanimizning har bir fuqorosi qalbida faxr va g‘urur tuyg‘ularini kuchaytiradi. "Yangi O‘zbekistonda" jismoniy madaniyat va sport sohasida davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylangani va bu sohada yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Jahonda O‘zbekistonning obro‘sini yanada yuksaltirishga, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarning amalga oshirilayotganligi yurtimizning har bir fuqarosi uchun juda

katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mamlakatimizning turli hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talabayoshlar o'rtasida sport o'yinlarining tizimli tashkil etib borilayotgani o'z samarasini bera boshladi. [4,124-bet] O'zbekiston vakillarining Olimpiya o'yinlari, Jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari hamda halqaro musobaqalarda qo'llari baland kela boshladi. Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ruyobga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar imzolandi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar natijasida bugungi kunda Jizzax olimpiya va paralimiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilarining erishayotgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan zamonaviy sharoitlarda mahorat oshirayotgan jizzaxlik yosh sportchilar mamlakatimiz va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda. Shunday qilib, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlarimizdan biri har tomonlama barkamol jismonan toblangan avlodni shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlardir. Zero, Vatanni ximoya qilish, Vatan uchun mard va jasur, jismonnan chiniquqan o'g'lonlarni tarbiyalab yetishtirish xalqimizning juda qadimdan davom etib kelayotgan an'analaridan biri xisoblanadi. Davlatimiz tomonidan harbiy sohada olib borilayotgan isloxotlar, professional armiyani vujudga keltirish borasidagi sa'yi harakatlar milliy ma'naviy tiklanish jarayonidagi ulkan voqeadir. Bu jarayonni ham azaliy milliy kadriyatlarimizning qayta tiklanishi sifatida qabul qilish mumkin. [5.30-bet]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020 yildagi PF-5924-son Farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar soni.
2. Toshboev F.E. Ustrushona xalqlarining harbiy qurollari haqida dastlabki mulohazalar. O'zbekiston arxeologiyasi. № 7, Toshkent, 2013.58-68.betlar
3. Jismoniy tarbiya nazaryasi va sport nazaryasi F.Q.Axmedov Toshkent 2021. 88.bet
4. Ibn Havfal. Kitob surat al -ard (Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S. Kamoliddin). Toshent: "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.124 b.
5. Abdumalikov R, Ten K.P, "Jismoniy tarbiya fakultetlarida talabalarning pedagogik praktikalarini tashkil qilish. Metodik tavsiyanoma" Toshkent 2003y.30 b.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA FUQAROLARNING IJTIMOIIY TA'MINOT HUQUQINI KAFOLATLANISHI XUSUSIDA

Allaberganov Ollabergan - o'qituvchi

Ma'mun Universiteti NTM

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallifning mustaqil O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqini kafolatlanishi xususidagi fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: mustaqil O'zbekiston, fuqaro, islohot, huquq, ijtimoiy ta'minot, oila, pensiya, davlat byudjeti, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmat.

Аннотация. В данной статье изложено мнение автора по вопросу обеспечения права граждан на социальное обеспечение в независимой Республике Узбекистан.

Ключевые слова: независимый Узбекистан, гражданин, реформа, закон, социальное обеспечение, семья, пенсия, государственный бюджет, социальная защита, социальное обслуживание.

Annotation. This article sets out the author's opinion on the issue of ensuring the right of

citizens to social security in the independent Republic of Uzbekistan.

Keywords: *independent Uzbekistan, citizen, reform, law, social security, family, pension, state budget, social protection, social services.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etar ekan, xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalari ustunligini tan oldi, fuqarolarga jahon standartlari darajasida moddiy-ijtimoiy turmush sharoiti va darajasini ta'minlab berishga, har bir shaxsning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari kafolatlanishi uchun kerakli chora-tadbirlar ko'rib, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar, yetim-yesirlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqini kafolatlanishi, ijtimoiy himoyadan foydalanish uchun ajratilgan mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjeti hisobidan va homiyalar (turli jamg'arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag'lari hisobidan amalga oshirilish belgilab qo'yildi. Ijtimoiy ta'minot miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me'yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha va ijtimoiy nafaqaxo'r nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg'iz nogiron va keksalarga) to'lovlari ijtimoiy ta'minotning eng muhim turlari hisoblanadi. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish- nogironlarni „Muruvvat“ uylariga, yolg'iz qariyalarni „Sahovat“ uylariga joylashtirish, muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashishda yordam ko'rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, ularga shahar jamoat transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish kabi ishlar amalga oshirishi ijtimoiy ta'minotning mazmu mohiyatini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi 1993-yil 3-sentabrdagi Qonunida pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqiga uzviy bog'liqligi ta'kidlandi. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar tushunchalariga aniqlik kiritilib, pensiya- mehnat stajiga ko'ra qo'lga kiritilgan huquq, ijtimoiy nafaqa esa muhtojlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam deb belgilab qo'yildi. 2001-yil 13-fevralda aholini ijtimoiy himoyasi bo'yicha davlat boshqaruvini mukammallashtirish maqsadlarida Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligi birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tashkil etildi. Ijtimoiy ta'minot tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, 12 viloyat va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalari, 213 tuman va shahar ijtimoiy bo'limi, 26 ta “Muruvvat” va 8 ta “Sahovat” qariyalar uylari, Urush va mehnat faxriylari respublika pansionati (*pansionat* (frans. *pensionnat*) -dam olish uyining bir turi yoki kurortda dam oluvchilar mehmonxona) „Nuroni“ (1970, Toshkentda), „Oltiariq“ (1979) va „Tovoqsoy“ (1971), „Kosonsoy“ (2002) sanatoriylari, Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasb bo'yicha sog'lomlashtirish milliy markazi va uning 10 ta mintaqaviy markazlari, Tayanch harakat qilish tizimi buzilgan nogironlarni sog'lomlashtirish respublika markazi, 180 tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari (TMEK), 3 ta nogiron bolalar uchun kasb-hunar bilim yurtlari aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda [1,B.65-66]. Mustaqillikning ilk kunlardanoq Birinchi Prezident I. A. Karimovning “...demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda

bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli, ta’sirchan mexanizmi mavjud bo‘lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta’minlash mumkinligi haqidagi g‘oyalari mamlakatimizda ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishidagi tub tamoyilni tashkil qildi [2, B.11]. Darhaqiqat, ijtimoiy ta’minot aholining farovonligini ta’minlash uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, uning tarkibiga ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat layoqatini tiklash, bolalar va kattalar uchun ijtimoiy xizmatlar, davlatning yordami, ijtimoiy sug‘urta, jismoniy va aqliy zaif odamlarga ijtimoiy ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ijtimoiy taminot tushunchasi haqida ko‘pgina ta’riflar mavjud bo‘lib, iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta’minotga quyidagicha tarif berilgan: “...fuqarolarni moddiy ta’minlash va ularga xizmat ko‘rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag‘lari ijtimoiy fondlarni shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimlash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta’minot deyiladi” [3, B.449].

Ijtimoiy ish ensiklopediyasida P.Nelson Reyd ijtimoiy ta’minotga quyidagicha ta’rif beradi: “Ijtimoiy ta’minot” eng yaxshi g‘oya, eng yaxshi g‘oya esa, fuqarolarning farovonligi uchun ish bilan ta’minlash, muhtojlik va ijtimoiy risklarni oldini olish va shaxsiy xizmatlarga baho berishda iqtisodiy barqarorlikga erishishdir”. Ijtimoiy ta’minot g‘oyasi insoniylik jamiyatiga asoslangan holda ishlab chiqilib va taqdim etish orqali boshqarilib borilishi va oxiriga yetkazilishi lozim. Ijtimoiy ta’minot termini deganda - jamoaviy ijtimoiy muammolarni oldini olish va ularni hal etish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tushuniladi [4, B.9].

Ijtimoiy ta’minot davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash, davlat ijtimoiy sug‘urtasi nafaqalarini tayinlash va to‘lash, shu hisobdan turli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (bepul sanatoriy va kurortga yo‘llanmalar berish, bepul davolash va boshqalar) yo‘li bilan amalga oshiriladi [5, B.4-5]. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy ta’minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘i hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’minot o‘zining huquqiy asoslariga ega. Ijtimoiy ta’minot huquqi manbalariga quyidagilar kiradi:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- v) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- e) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning hujjatlari;
- j) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari [6, B.22].

Fuqarolarning ijtimoiy ta’minoti va ularni ijtimoiy himoyalash qonunlar asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu borada quyidagi qonunlarga amal qilinadi [5, B.14-15]:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi [7]. Kodeksning 14-bobida Dam olish vaqti va Ijtimoiy ta’tillar, 17-bobida esa kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovlari deb nomlangan qismlari mavjud.

2. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi [8] O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan, ushbu hujjat davlat pensiya ta’minoti sohasidagi asosiy normalami belgilab beradi.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida” gi [9] Qonuni. Mazkur qonun 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonuning maqsadi fuqarolar tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini tartibga solishdan iborat.

4. “O‘zbekiston Respublikasining “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi [10] Qonuni (1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan). Ushbu qonunning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008-yil 11-iyulda qabul qilingan bo‘lib, mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi [11] Qonuniga asosan 2021-yil 16-yanvardan o‘z kuchuni yo‘qotgan.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to’g’risida”gi [12] Qonuni. Bu qonun 2007-yil 2-mayda qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

6. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to’g’risida”gi [13] Qonun 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to’g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida” [14] Qonun 2007-yil 2-oktabr qabul qilingan bo‘lib, unda fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashga doir huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash; fuqarolarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

7. “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi [15] 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli farmon, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

8. “Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi to’g’risida”gi 2007-yil 23-yanvardagi PQ-573-sonli farmonda [16], 2007-yilning “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ko‘lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj toifalari va oilalarga, nogironlar va yolg‘iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarning keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish masalalari ko‘zda tutilgan.

9. “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to’g’risida” gi [17] Nizom O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2002-yil 1-apreldagi 21-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

10. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 30-sentabr, 476-sonli [18] qarorida ijtimoiy ta’minot vazirligi pensionerlarni, nogironlarni, voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organi hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

11. “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdagi 122-son qarori [19] va shu qaror asosida “Kam ta‘minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjatlaridan tashqari shuningdek, Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta‘minotga oid qonunlar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan ko‘plab idoraviy-me‘yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2002-yil 20-maydagi 1136-1-sonli “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalami tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi [20]; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2007-yil 3-sentabr 1710-sonli “Pensiya hujjatlarining shakllari va ulami to‘ldirish qoidalari hamda pensionerlar yig‘ma jildini rasmiylashtirish va yuritish tartibi haqidagi Yo‘riqnomasi”si [21] kabi normativ qonun hujjatlari Ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy himoyani qonuniy asoslari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson hayotini va birinchi navbatda insoniylik yordamiga muhtojlar hayotini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosat vazifalarini samarali hal qilishda ijtimoiy adolat tamoyillarining roli muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasi. Ziyouz.com kutubxonasi. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf
2. Karimov.I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.: 1995.
3. Vahobov A.V, Malikov T.S. Moliya. T.: “Noshir”, 2011.
4. Vaxabov A.V. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta‘minotga kirish: Darslik. T., 2018.
5. Tursunov Y. Ijtimoiy ta‘minot huquqi. T.: “O‘qituvchi”, 2013.
6. Akayeva M.A. Ijtimoiy ta‘minot huquqi. Namangan: 2019.
7. <https://lex.uz>

**O‘ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI TARIXIGA OID QADIMGI MANBALAR
HAQIDA**

M.F.Inomova, stajor- o‘qituvchi

Annatotsiya: Muallif ushbu maqolasida o‘zbek musiqashunoslik tarixini o‘rganishga oid manbalar haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Urma zarbli cholg‘ular, shovqinli sozlar, Surnay, nay, hushtak, shaqildoq va chiltor (arfa), sozanda haykalchasi, terrakota-haykalchalari, devoriy tasviri.

Аннаотация: В данной статье автор предоставляет информацию об источниках по изучению истории узбекского музыкознания.

Ключевые слова: Ударные инструменты, шумные голоса, Труба, флейта, свисток, погремушка и чилтор (арфа), фигурка музыканта, терракотовые статуэтки, настенное изображение.

Annatotion: In this article, the author provides information about sources for studying the history of Uzbek musicology.

Keywords: Percussive instruments, noisy voices, Trumpet, flute, whistle, rattle and chiltor (harp), figurine of a musician, terracotta figurines.

Manbalarda qayd qilinishicha, milliy musiqqa cholg‘u asboblarning tarixi juda olis zamonlarga borib taqaladi. Ya‘ni eramizdan avvalgi 13 ming yillardayoq, dastlab urma zarbli cholg‘ular, so‘ngra shovqinli sozlar paydo bo‘la boshlagan. Nega aynan

urma zarbli sozlar ilk bor kashf etilgan degan savolga buyuk olimlar eng qadimgi mehnat qo`shiq-lari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog`liqlikda yuzaga kelgan, deya izohlaydilar. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, nay, hushtak, shaqildoq va chiltor (arfa) singari cholg`ular yasagan. Ma`lum muddatdan so`ng torli mizrobli va torli kamonli musiqa cholg`ulari yaratilgan. Ko`p asrlik madaniy taraqqiyot jarayonida o`ziga xos tuzilish va jarangdorlikka ega bo`lgan dutor, tanbur, rubob, g`ijjak, chang singari an`anaviy sozlar ijod qilingan.

O`zbek musiqasi rivoji haqida eng qadimgi yozma manba hisoblangan Avestoda ham ma`lumotlar berilib, ma`bud anaxita sharafiga o`tkazilgan bayramlarda turli xil o`yin kulgi va musiqa marosimlari o`tkazilganligi ta`kidlanadi. Abulqosim Firdavsiy ning “Shohnoma” asarida Turon xalqlari qo`shiqchilik va musiqa tarixi haqida Suyovush qissasi bilan bog`liq voqealarda ma`lumotlar berilgan. Mil. avv. 12-7 ming yilliklar (mezolit davri)ga oid Farg`ona vodiysidagi Saymalitosh arxeologik yodgorligidan topilgan doirasimon cholg`ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlari aks etgan. Bu tasvirlar ibtidoiy davrlardan mavjud bo`lgan musiqa cholg`u asbobi ekanligi o`z isbotini topgan. Akademik A.A. Asqarov tomonidan mil. avv. 2 ming yillik (bronza davri) ga oid Sopollitepa yodgorligidan 1969-1973 yillarda qazuv ishlari o`tkazilayotgan paytda musiqa asbobi bo`lgan nay qoldig`ini ham o`rganilgan [1]. Afrosiyobda topilgan sozanda haykalchasi qo`lidagi nayning pardalari, sadolanish qismlari va bir-ikki bo`g`in qismlariga bo`linishiga qaraganda, u qamish yoki bambuk yog`ochidan tayyorlangan, deb faraz qilingan. Afrosiyobdan topilgan ushbu musiqa asbobi mil.avv. I asrga oid bo`lib, unda bir nechta ud chalayotgan ayollar aks ettirilgan terrakota-haykalchalardir. Bu shahar xorobalarida ochib urganilgan saroylar, xonadonlarning devorlarida ko`plab musiqachilar tasvirlar mavjud. Ulardan birida arfa chalayotgan, g`oyatda bashang kiyingan aslzoda ayol tasvirlangan bo`lsa, boshqa bir suratda musiqachilar guruhi o`z aksini topgan [2]. Bu devoriy suratlar nihoyatda jonli, haqqoniy tarzda berilganligi, ular o`z davrining mashhur musavvirlari tomonidan chizilganligidan dalolat beradi. Antik davrning so`ngi bosqichlariga oid Ayritom ibodatxonasida ohaktoshdan yasalgan haykallarda aks etgan tasvirlar biz uchun muhim hisoblanadi. Shulardan biriga qisqacha to`xtalib o`tamiz. Bu qachonlardir ibodatxona karnizini bezatib turgan uch sozandannng haykallaridir. Karnizning bir tomonida yuzini sal o`ngga burib turgan va chiltor chertayotgan kulcha yuzli, ko`zlarn katta, qoshlari tutashgan, qirra burunli, lablari qalin yosh ayolning haykali tasvirlangan. Ayolning egnida qimmatbaho kiyim, quloqlarida sirg`a, qo`llarida bilakuzuk, bo`ynida marjonlar bor [3]. Torga o`xshash cholg`u asbobini chalayotgan ikkinchi ayol biroz chapga qarab turgan holatda tasvirlangan. Uning egnidagi kiyim birinchi ayolning egnidagi kiyimdan o`ziningng odmiligi bilan ajralib turadi. Qo`llarida bilakuzuk bor, quloqlarida sirg`a bor-yo`qligi bilinmaydi. CHunki ayolning boshi ro`mol bilan o`ralgan. Ayolning ro`mol o`rash uslubi diqqatga sazovor. Ro`molning bir uchi orqaga tashlangan, ikkinchi uchi esa ayol elkasi va qo`lining yuqori qismini yopib turibdi. Bu ikki ayol oralig`ida akant yaprog`i tasvirlangan. Yaproq uchi oldinga biroz egilgan holatda aks ettirilgai. Uchinchi haykalda g`abla chalayotgan yosh sozanda tasvirlangan. Sozandaning yigit yoki qiz ekanligini haykalga qarab aniqlash qiyin. Uning yuzi dumaloq, ko`zlari katta, qovoqlari solingan, qoshlari tutashib ketgan, sochlari kalta va jingalak. Sozanda labida kulgichlar joylashgan. Bu sozandannng quloqlarida ham sirg`a, qo`llarida bilakuzuk, bo`ynida marjonlari bor. Mazkur sozanda bilan tor chalayotgan sozanda orasida xuddi

oldingidagidek akant yaproq‘pnpng tasviri bor. Uchinchi sozandadan keyin ham yana bir akant yaproq‘i aks ettirilgan. Bizningcha, bu qatorda yana ikki sozandaning haykali bo‘lgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Hozirgi Jizzax viloyati (Qadimgi Ustrushona) hududidan ham musiqa asboblari topib o‘rganilgan. Suyakdan yasalgan nay qoldiqlari qadim temirchilar maskani Miq qa‘lasida arxeolog L.M. Sverchkov tomonidan o‘rganilgan [4]. Vohamizdagi yana bir suyakdan yasalgan nay qoldig‘i arxeolog F.E. Toshboyev tomonidan 2018 yilda Zomin tumani, Xatab qishlog‘ida buzilgan qabrdan topib o‘rganildi. Bu nay yurtimizda yashagan aholi tomonidan ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda musiqa asbobi sifatida keng foydalanilgan. Bu musiqa asbobi – nay, xalqimiz orasida “G‘ajir nay” deyilgan. Ushbu nayning saqlanib qolgan uzunligi 23 sm diametri 2 sm. Nayning ustki tomonidan 4 ta (5- singan) bir xil o‘lchamdagi teshikchalar bor. Musiqashunoslarning ta‘kidlashicha, bu nay g‘ajirning bosh qanot suyagidan yasalgan. Bu nayning ilk o‘rta asrlarga oid qabrdan chiqishiga qaraganda, undan foydalanish ham qadimdan mavjud bo‘lgan[5]. . Yaqin vaqtlargacha Zomin vohasi, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida bu asbobdan foydalanishgan. O‘z vaqtida bu nay juda yoqimli kuy taratishi bilan mashhur bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlar davrida ham mamlakatimiz hududida madaniy hayot gullab yashnagan bo‘lib u keyingi davrlarda ham uzluksiz taraqqiy etib borgan. Bu haqda Xitoy manbalarida ham ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Xitoylik olim Sun Syan yozishicha, V asrdan X asrgacha Samarqandlik sug‘diylarning qo‘shiqlari, raqslari va musiqalari doimiy ravshda Xitoy imperatorlarining saroylari, shaharlari va qishloqlari ko‘chalari bo‘ylab taralib turgan. Bu davrda san‘at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bi‘an shuhrat topgan edi. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira raqsini ijro etayotgan raqqoslarning imo bilan elka uchirib tushadigan o‘ynoqi «Doira raqsi» Xitoy ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida hunarmandlar tomonidan o‘n turdagi cholg‘u asboblari yasalgan [2]. Ilk o‘rta asrlar Xitoyning mashhur imperatorlari va yuqori mansabdorlarning saroylarida Markaziy Osiyo va SHarqiy Turkistondan kelgan musiqachilarga yuksak san‘atlari bois yuqori darajada xurmat ko‘rsatilgan. Xitoyning Tan imperiyasi davrida 727 yilda Keshdan, 729 yildan Maymurg‘dan, 713 va 727 yillarda Samarqanddan Xitoyga musiqa asboblari chalishda mohir va raqqoslikda tengi yo‘q yosh yigit va qizlar borganlar. Ular qirmizi ko‘ylak, qizil zamshdan kovush kiyishib raqs ijro etganlar. Raqqosalarning chiqishlari maxsus sahnalashtirilgan va raqslar asosan ikki turga bo‘lingan – birinchi tur raqslar shoirona nozik, gavda va qo‘l barmoqlariga alohida etibor beriladigan harakatlar orqali nafis ijro etilsa, ikkinchi tur raqslar esa sho‘h-shodon, shiddatli va akrobatik usullarda ijro etilgan. Ularning raqslar to‘g‘risida xitoylik shoirlar Bo Szyu va Yuan Chjenlar “Shamoldek charx urayotgan g‘arblik qizlar” degan she‘r ham bitganlar. Bu qizlardan xitoylik malikalar Yan va Rokshanlar sug‘diy raqslarning bir necha ijro usullarini o‘rganganlar. SHimoliy Xitoyda olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida VI–VII asrlarga oid badavlat sug‘diy aslzodaning qabri topilgan bo‘lib, bu qabrdan chiqqan marmar toshtaxtaning yuqori qismida sug‘diy aslzoda va uning xotini xizmatkorlari qurshovida bazm uyushtirayotganligi sahnasi, pastki planda esa Xitoyga borib o‘zlarining san‘atlarini namoyish etayotgan sug‘dlar musiqa ansambli tasvirlangan [6]. Shunday qilib, O‘rta Osiyo, SHarqiy Turkiston, Xitoy va Uzoq Sharqqa o‘zining noyob musiqa madaniyatini doimiy ravishda «eksport» qilib bu mamlakatlarning musiqa, qo‘shiqchilik va raqs

san'atining rivojiga katta ta'sir kursatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқаров. А.А.Сапаллитепа. – Тошкент: Фан, 1973.С. 89.
2. Бердимуродов А.Э. Амир Темура ва Темурийлар давлати пойтахти. Шарқ юлдузи. № 6. Тошкент, 2020.Б. 74.
3. Пидаэв Ш.Р. Сирли кушонлар салтанати. Т., 1990. Б.16.
4. Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: Автореф.дисс.... канд.ист.наук.- Самарканд,1991. С.16.
5. Тошбоэв Ф.Э., Холбоэва Г. А. Прикладные искусства скотоводческого населения Узбекистана и их исследование. Молодой учёный (Международный научный журнал). Казан, 2018. № 47 (233). С. 89.
6. Ойхўжаэва Ш.И. Ўзбек мусикаси тарихи (маърузалар матни). Тошкент, 2008.

QADIMGI DAVR JISMONIY TARBIYA RIVOJLANISH DAVRLARI TARIXI

*Eshboyev Shaxriyor - o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ibtidoiy jamoa tuzumida jismoniy tarbiyaning rivojlanish davrlari hamda ilk davrlarda odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar va turli tabiiy ofatlardan saqlanish uchun harakat qilganlar insoniyatning ilk yashash sharoitida, ov va ovning shakllanishining tutgan o'rnini haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ona urug'chilik, G.V. Plexanov, ibtidoiy o'yinlar, kamon, kurash, tosh buyumlardan nayza yasash, og'irlik ko'tarish, yugurish, sakrash, P.F.Lesgaft, ov, ong.

O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir. Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu shu yurtda yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir.[1,18-bet] Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Respublika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlarida jismoniy tarbiya bo'limlari, Olimpiya zahiralari kollejlari jismoniy tarbiya va sport tarixi, Olimpiya o'yinlari haqida atroflicha bilimlar berib kelinmoqda. [2,145-bet] Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularning nazariy bilimlari, amaliy malakalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya tarixi jahon xalqlari madaniy tarixining bir qismi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarixi fani qadimgi zamondan to hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jismoniy tarbiya va sportni kelib chiqishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Uning vazifasi turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, jismoniy tarbiya shakllari, usullari, vositalari va kishilarning sport sohasidagi faoliyatining tahlilini berishdan iborat.

Inson uchun kerakli hayotiy malaka va ko'nikmalar jismoniy sifatlar, malaka va qobiliyatlar ularning bevosita mehnat faoliyati jarayonlarida hosil qilingan. Yoshlar barcha mehnat va jismoniy harakat faoliyatlarini katta yoshdagilardan o'rgangan hamda ularga taqlid qilib rivojlantirgan.[3,178-bet] Qadimgi davrda odamlar mehnatining asosini ovchilik va termachilik tashkil etgan. Bu davrda odamlar yirik hayvonlarni – mamont, ulkan ayiq, bizon, zubr, yovvoyi ot, buqa kabi hayvonlarni ovlaganlar. Yirik hayvonlarni ovlash juda qiyin bo'lgan, shuning uchun bu davrda jamoa bo'lib

ovchilikning turli usullaridan foydalanganlar. Mehnat va yashash uchun kurash jarayonida qadimgi odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishi tezlashgan. Ular ov qurollarini yasash, olov yoqish, kiyinish, jismonan baquvvat bo‘lish uchun bolalarni maxsus mashqlar bilan tayyorlash kabi juda ko‘p ijtimoiy turmush tajribalariga ega bo‘lganlar. Turli mustahkam va o‘tkir uchli yengil nayzalarining, o‘q va kamorning paydo bo‘lishi ovchilikning takomillashuvi va ovning rivojlanishiga olib kelgan. Buning natijasida oziq-ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqargan. Natijada, o‘troqlashib yashash, bolalarni tarbiyalash imkoniyatlari kengaygan. Ibtidoiy to‘da davrida kashf etilgan oddiy yutuqlar urug‘ jamoasi va madaniyatining vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratib bergan. Urug‘ jamoasi insoniyat tarixining alohida bosqichini tashkil etadi. Xo‘jalikni idora qilishning yangi shakllari yuzaga kelishi bilan kishilik jamiyatini uyushtirish holatlari ancha mustahkamlanib borgan. Ona urug‘i jamoalari paydo bo‘lgan, ularning a‘zolari qarindosh-urug‘chilik munosabatlari asosida birlashib, mehnat qilganlar. Bu o‘z navbatida, jamoatchilikni yuzaga keltirgan. Madaniyat sohasida ham o‘zgarishlar yuzaga kelgan: masalan uy-joy qurish, hunarmandchilik, tasviriy san‘at paydo bo‘lgan, ijod qilingan. Ana shu davrlarda ilohiy kuchlarga ishonish, ularga bo‘ysunish, qurbonliklar keltirish kabi diniy tasavvurlar paydo bo‘lgan. O‘yin va raqslarda takrorlanadigan mehnat va mudofaa xususiyatidagi harakatlar faqat mehnat emas, balki jismoniy mashqlar sifatida rivoj topgan. Turli xil jismoniy mashqlarning (kurash, otda poyga, nayza uloqtirish, qilichbozlik va h.k.) o‘yinlar tarzida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat tarbiyasida tubdan o‘zgarishlar yasash uchun turtki bo‘lgan. Ijtimoiy mehnat va madaniyat jarayonlari deyarli barcha qit‘alarda turli darajada shakllanib, keyinchalik tobora rivoj topgan. Qadimgi davrda urug‘chilik jamoasi to‘da davrining davomi bo‘lib, bundan 40-35 ming yillar ilgari boshlangan. Bu davrda mehnat qurollari takomillashgan, o‘q-yoy kashf etilgan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq vujudga kelgan. Urug‘chilik jamoasi ona urug‘i (matriarxat) va ota urug‘i (patriarxat)ga bo‘lingan. Ularning har biri o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyot va jismoniy tarbiya xususiyatlariga ega bo‘lgan.[4,69-bet] Qadimgi mashqlar (kurash, mushtlashish, og‘irlik ko‘tarish, yugurish, sakrash va h.k.) asta-sekin mustaqil tur sifatida o‘rganilib, an‘analar, marosimlarda namoyish etilgan va musobaqa tarzida tashkil etilib, g‘oliblarni olqishlash, taqdirlash kabi odatlar amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va boshqa kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchilar o‘z sohalari bo‘yicha turli o‘yinlar, mashqlarni ixtiro qilganlar.[5,21-bet] Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va boshqa joylarda ham sodir bo‘lib, ularda ham o‘ziga xos jismoniy mashqlar va o‘yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo‘lib o‘yin o‘ynash an‘anaga aylangan. Ya‘ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo‘lgan sport o‘yinlariga asos solgan bo‘lishi mumkin. Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Hindular qabilasida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana yasaganlar. Ulardan xo‘jalik yumushlari va turli musobaqalarda ham maqsadli foydalanganlar. Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy qabilalarda langarcho‘p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham o‘tkazilgan. Ularni turli bayramlarda namoyish etishgan. Shimoliy va Janubiy Amerikada Yevropaliklarning istilosiga qadar katta rezina koptok, chavgon va raketkalaridan foydalanib o‘ynaladigan yozgi va qishki o‘yinlar rasm bo‘lganligi aniq

manbalarda o‘z ifodasini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida suvda suzish, kanoe va baydarka xilidagi yengil uzunchoq qayiqlarda eshkak eshish ham keng qo‘llanilgan. [6,201-bet]Sharqiy Braziliya xalqlari orasida qiz va yigitlar hayotida kerak bo‘lgan epchillik, chaqqonlik chidamlilik, jasurlik va qat‘iyatlilik kabi qobiliyatlar hamda sifatlarga ega bo‘lishi lozim edi. Chunki qabilalarda yigitlar ma‘lum sinovlardan o‘tmaganlaricha uylanishga ruhsat berilmagan. Turli qabilachilik holatlari o‘zaro jang, nizo va urushlarni keltirib chiqargan. Shu sababdan himoya qal'alari, qurol-yaroqlar yasash kabi yangi faoliyatlar tarkib topib, ular yanada rivojlangan.

Xulosa qilib aytganda jismoniy tarbiya tarixi insonyatning paydo bo‘lishi tarixiy taraqqiyotini o‘rganish ham dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Aslida Jismoniy tarbiya tarixi jahon xalqlari madaniy tarixi hisoblanib, unda jismoniy tarbiya va sportning kelib chiqishi, rivojlanishi va tarraqiy etish qonuniyatlari o‘rganiladi. Qadim ajdodlarimizning jismoniy tarbiya tarixi fanini o‘rganish jarayonida bo‘ljak jismoniy tarbiya mutaxasislari uchun bugungi kunda muhim manba bo‘lib hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020 PF-5924-son Farmoni. Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar soni.
2. L.A. Djalilova Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi Toshkent - «Voriz-nashriyoti» - 2017.145.b
3. J. Eshnazarov Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Toshkent 2008.178b.
4. L.A. Djalilova Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2013. 69b.
5. L.A. Djalilova Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik.Toshkent 2017. 21b.
6. Botirov X.A., Uzbekistonda jismoniy tarbiya tarixi, omabop kitob Toshkent Ibn Sino 2013. 201.b

BOBORAHIM MASHRABNING FALSAFIY-AXLOQIY QARASHLARIDA GUMANISTIK G‘OYALAR TALQINI

Soatov Rasul-JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbek shoiri va mutafakkiri, mutasavvif va so‘fiy Mashrab ijtimoiy – falsafiy qarashlaridagi gumanistik g‘oyalar tadqiqi o‘rganilgan ushbu ilmiy maqolada shoirning insonparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Ka‘ba, Shoh Mashrab, sharq, Alloh, jahon, tafakkur, xalq, qamchi, devon, g‘azal, gado, xaloyiq, maqom, dunyo, poklik, tasavvuf, isyon, safar, otashin, lirik she‘r, maqsad.

Аннотация: В данной научной статье были проанализированы гуманистические идеи в социально-философских взглядах узбекского поэта и мыслителя, мистика и суфия Машираба, такие общечеловеческие взгляды поэта, как гуманность, справедливость, патриотизм.

Ключевые слова: Кааба, Шах Машираб, восток, Аллах, мир, мысль, люди, кнут, деван, газель, гадю, люди, статус, мир, чистота, мистика, бунт, путешествие, фейерверк, лирическая поэма, цель.

Annotation: In this scientific article, the study of the humanist ideas in the socio-philosophical views of the Uzbek poet and thinker, mystic and Sufi Mashrab, the universal views of the poet such as humanity, justice, and patriotism were analyzed.

Keywords: Kaaba, Shah Mashrab, east, Allah, world, thought, people, whip, devan, ghazal, gado, people, status, world, purity, mysticism, rebellion, journey, fireworks, lyric poem, purpose.

Ma‘lumki, asrlar davomida insoniyat ma‘naviy-ruhiy, axloqiy kamolotini

yuksaltirishga xizmat qilib keladi. Jahonga dong‘i ketgan shoh asarlar, mumtoz adabiyotimiz durdonalari, g‘azallar, ishq-muhabbat qissalari aks ettirilgan dostonlar, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘z ichiga qamrab olgan ajdodlarimiz qoldirgan hikmatlar xazinasi, bularning barchasi ildizi juda chuqur, o‘zagi mustahkam bo‘lgan tasavvuf ta’limotidan bahra olgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mashrabning shaxs va jamiyat haqidagi qarashlarining negizida umuminsoniy g‘oyalar, qarashlar tahlil etiladi. Necha asrlarki Sharq she’riyatida, mutafakkirlar asarlarida inson qalbini Ka’baga o‘xshatib kelinadi. Mo‘minning qalbi-Xudoning uyi. Uni vayron qilmoq-Ka’bani vayron qilmoq, uni shodlantirmoq-Ka’bani obod qilmoq bilan barobardir. Mana, Shoh Mashrab asarlarida davom ettirilgan, rivojlantirilgan, yanada yuksaltirilgan o‘lmas g‘oya![1]

Ofoqxoja dargohidan ketgach, Mashrab deyarli qirq yillik umrini sayru sayohatda, darbadarlikda o‘tkazdi. “Darbadar bo‘ldum-jahonni ko‘p tamosho ayladim”,-deb yozadi bu haqda shoirning o‘zi va buning sababini shunday tushuntiradi:

Oshiqg‘a ravo ermas uchun maskanu ma’vo,
Chun obi ravon bo‘ldim-u, ya’ni safar etdim.

Bu uning xalq ichiga chuqur kirib borishi, kishilarning o‘y-fikrlari, orzu-armonlari, maqsad-intilishlarini teran anglashi, turmushi, tirikchiligi bilan keng tanishishi, xalq ichida yurgan ohorli iboralar, tesha tegmagan nozik lutf va qochirimlarni o‘zlashtirib, o‘z she’rlarida ulardan mahorat bilan foydalanishiga imkon yaratdi, uning chinakam xalq shoiri bo‘lib yetishishini ta’minladi. Mashrab she’riyatining tom ma’nodagi xalqchilligi ildizlarini ayni shu yerdan qidirish kerak[7,B.9]. Bu safarlari davomida u mehnatkash xalq bilan birga yashadi, nafas oldi. Hamma yerda ham oddiy kishilarning hayoti bir xil ekanligini ko‘rdi. Mehnatdan boshi chiqmagan xalqning ranju mashaqqatda, uning boshida qamchi o‘ynatganlarning rohat-farog‘atda umrguzaronlik qilayotganlariga qayta-qayta ishonch hosil qildi. Shoirning isyonkor ovozi baland ko‘tarib:

Dili tig‘i sitamdin pora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Tani dardu alamdin yora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Ko‘zi vaqti sahar sayyora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Muhabbat dashtida avvora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Junun tug‘yon etibdur har birisi bexabar tanho,-
Deb nolayu faryod chekishi bejiz emas[7,B.10].

U insonlarni sevardi, ularga hamdard, mehribon edi. “Azaldan men dili g‘amg‘in xaloyiq xaylini sevdim” ya’ni, Mashrab “g‘amgin xaloyiq” deganda bu o‘rinda kimlarni nazarda tutmoqda? “Dili g‘amgin xaloyiq” deganda ulug‘ haqparast shoir ko‘nglida Iloh mehri bor, dardi bor odamlarni ko‘zda tutib, fikr yuritmoqda. Shu nuqtai nazardan “Dilda darding bo‘lmasa, dardi sarimni kavlama” satrining mohiyatiga chuqurroq tushunamiz. Mashrab ana shunday pokdil, ko‘ngil bedor, ammo shuni ham ta’kidlash kerakki, u hayot yukidan ezilgan odamlar dardining kuychisidir. Uning ijodida bunday odamlar xonavayron, “bag‘ri kabob”. Mashrab hatto o‘zini shu baxti qora xalqning podshosi deb ham e’lon qilgan [8,B.79-80]. Shuning uchun Mashrab kambag‘allar, och-yalang‘och xalq taqdiriga achinib qolmay, umuman butun inson zotining ahvoliga achinadi. Boborahim Mashrabning otashin, jo‘shqin lirik she’rlari, o‘z zamonasidagi boshboshdoqlik, qorong‘ilik, zulmu sitamlardan shikoyat qilib yozgan isyonkor satrlari o‘sha vaqtlardayoq jabr ko‘rgan omma o‘rtasida nur tezligi bilan yoyilib borar edi. Mashrab bir g‘azalni tugatar-tugatmas oshiqqlar, ma’shuqlar, rindlar, qalbi alamli kishilar

ilib olib, kuyga solar edilar. Qashqardan tortib butun Farg‘ona, Toshkent, Zarfshon vohalariga qadar qaldirg‘ochday uchib borgan bu satrlar shoirning zo‘r hurmatini el orasida yoyar edi. Bu ulug‘ shuhratdan cho‘chigan din ahllari, eshonlar, domlalar shu shuhratni o‘z diniy manfaatlari yo‘liga burmoqchi bo‘ldilar. Buning uchun ular Mashrabi Soniy-Mulla Ro‘zi tomonidan yozilgan so‘fiyona she‘rlarni Boborahim she‘rlari bilan aralastirib, omma o‘rtasiga yoya boshladilar. Hanuzgacha “Devoni Mashrab”day keng tarqalib kelgan to‘plam ham shu zayldagi qo‘shma, aralashmalardan iboratdir. Chunki bu to‘plamni yig‘gan shaxs ham Boborahim asarlarini Mashrabi Soniyning asarlaridan farq qilishda ilmiy va tadqiqiy saviyaga ega bo‘lmagan, sodda bir kishi bo‘lgan, albatta. I.Sulton va I.Ahmedovlarning “Asl Mashrab” maqolasida bunday deyiladi: “...xonlarning zulmi, beklarning talashi, ruhoniylarning aldamchiligi va sotqinligi natijasida necha necha ming xalq xonavayron bo‘ldi, och-yalang‘och qoldi, gadoy bo‘ldi. Bu omma g‘azablanar, lekin bu holdan chiqish yo‘lini bilmas edi... tasavvuf ta‘limotida shu ilojsiz holda qolgan ommaning kayfiyatiga mos tushadigan bir qancha unsurlar bor edi” [3,B.178]. “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida Mashrab yashab ijod etgan davrlarda “diniy reaksiyaning” kuchayganligi, “zulm va istibdodning” avj olganligi, “hokim va beklar, kichik – kichik zodagonlar” o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida mehnatkash xalqning nihoyatda ezilganligi ta’kidlanib, yana yoziladi: “Bunday sharoitda hech tasodifiy emaski, olti-yetti asrlar ilgari shakllangan so‘fiy ta‘limot turli yo‘nalishlarda keng tarqala boshladi. Ammo bu davrda ham tasavvufning ana shunday o‘ta pessimistik zohidlik yo‘nalishiga nisbatan bir muncha jonli, hayotiy bo‘lgan bir talqini, yo‘nalishi ham bor ediki, Boborahim Mashrab dunyoqarashining “ayrim tomonlari” ham o‘sha mavjud sharoit taqozosi bilan izohlanuvchi cheklangan tomonlar”, deb xulosalangandir. Nahotki, tasavvuf deyilishidanoq, darhaqiqat darhol tarki dunyochilik tushunilsa? Hamma narsa o‘z nomi bilan ataladigan bo‘lsa, tasavvuf umidsizlikka butunlay qarshi-ku! Tasavvufda “o‘ta pessimistik zohidlik yo‘qolishi” yo‘q. Bular o‘ylab chiqarilgan gaplar. Tasavvuf Mashrab dunyoqarashining ichki oftobidir. Tasavvuf, birinchi galda ruh tarbiyasi. Tasavvuf-axloq va odob kamoloti uchun izchil qayg‘urish demak. Tasavvuf-Xayol va tasavvur kengligi. Din singari tasavvufning ham olamshumul mafkurasi Ishqdur. Shu ma’noda din va tasavvuf o‘rtasida keskin ixtilof yo‘q[3,B.180]. Mashrab she‘rlarida jabru jafoga sabr-toqat bilan chidash kerak degan tezislarni rad etadi. Mutasavvif shoir Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan maydonga tashlangan xalqchil g‘oyalarni qabul etgan Mashrab zulmga qarshi chekkan o‘tli ohim bilan ham istibdod ahli va ularning butun afsonalarini kuydirib tashlashga qodirman deb, mustabidlarga nisbatan bo‘lgan ruhiy tug‘yon va nafratini jur’atkarona bir qudrat bilan juda ayon ifodalaydi:

Nolayu ohim bilan do‘zaxni kuydursam kerak,
Ham behishtu jannatul ma’voni kuydursam kerak.
Xo‘ja, oxundu akobir mulloyu shohu gado,
Begu xonu, johilu dononi kuydursam kerak.

Bu she‘riy parchada “achchiqlangan hisning hamlasi” “olijanob g‘azabning mamaqaldiroqday” o‘tli hujumi juda yaqqol namoyish qilingan[4,B.83].

Mashrabning qalbi jamiyatda mavjud bo‘lgan, xalq boshiga tushayotgan jabr-sitamlar, ijtimoiy adolatsizliklardan faryod chekdi, ularning negizi, manbai nimadaligini ochib berishga harakat qildi. Jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlikning bosh va asosiy sababi zo‘ravonlikda, deb bilgan Mashrab o‘zining o‘tkir qalam kuchi bilan, hukmron

tabaqalarni, shaxslarni va ba'zi omi, johil mullalarni tanqid ostiga oldi. Boborahim Mashrabning otashin insonparvarlik so'zlari, isyonkor she'rlari o'sha davrdagi hukmdorlarga, ba'zi shariat peshvolariga yoqmadi. Mashrab qattiq tazyiq ostiga olindi. Mashrabdan o'ch oldilar. Mutafakkir shoirning qatl etilishi o'sha davrning katta fojiasi bo'ldi [8,B.80]. N.Komilov Mashrab ichki, botinidagi dardni tahlil etib yozadi: U Ma'rifat ahli kushandasi, solih, halol odamlarni xor etgan notanti, kajraftor falakning “ustiga o'tlar qo'yib”, barbod etmoqqa chog'lanadi. O'z she'rlarini “dardnoma”, o'z yuragini esa “jarohatxona”, “hasratxona”, “motamkada”[5,B.131] deb ataydi.

Tiriklik chog'ida va undan so'ng bir qancha zamon Mashrab oddiy xaloyiq orasida “devona Mashrab” degan nom bilan shuhrat qozongan. Unga Mashrabning o'zi asos bergan. U ongli suratda devonalik yo'lini tanlagan. Bir qancha g'azallarida o'zini devona deb ataydi. Devona ekanligini to'xtovsiz ta'kidlab boradi[2,B.65]. Mashrab o'ta ogoh zot edi. Ogoh zotlar esa zulm va zulmlarga indamaygina qarab turolmaydilar. O'zlarini yolg'iz Xudogagina taslim qilgan odamlar har qanday zolimning oldida egilmaydilar. Bo'lmasa Mahmud qatag'onbiy ayonlariga Mashrab ulamolar qoshida bir martagina uzr so'rashni so'raganda, u “tupirgan tupigimni qaytib olmasman” deb javob bergan, shundan so'ng u hukmga fatvo berdirtirgan. “Dunyoning vijdoni” degan bir yevropacha tushuncha bor. Insoniyat tarixida juda oz zotlar dunyoning vijdoni degan ta'rifga muassar bo'lganlar. Mashrab ishqining buyukligi, izlashlarining buyukligi va insoniyat azoblarini o'z ustiga olganligi va poklikning eng go'zal maqomiga erishganligi, o'zining ma'naviy kamolotning oliy cho'qqilariga olib chiqa olgani bilan dunyoning – vijdoni deb atalishga loyiq. U mujassam vijdon edi. Uning buyukligi vijdon buyukligidir[6:288].

Xulosa qilib aytgandan, Boborahim Mashrabning shaxs va jamiyat haqidagi ilgari surgan ijtimoiy-falsafiy fikrlari va qarashlari bitmas-tuganmas bebaho manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. *Abdulla Jabbor. Mashrab-yuksak ma'naviyat bulog'i / Namangan haqiqati, 2010, 26 may.*
2. *I.G'afurov. Hayo-xaloskor. – T.: Sharq, 2006.*
3. *Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.*
4. *Muhsin Zokirov. Erk va ma'rifat kuychilari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.*
5. *N.Komilov. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.*
6. *Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: Movarounnahr, 2004.*
7. *Ergash Ochilov. Mashrab/Agar oshiqligim aytsam. -T.: “O'zbekiston”, 2013.*
8. *Mo'min Hoshimxonov. Mashrabi mo'tabar o'zum.Toshkent, “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2007.*

BUXORO AMIRLIGINING BOSHQARUVI TIZIMIDA QUSHBEGI LAVOZIMINING TUTGAN O'RNI

*Xamraev G'ayrat – katta o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Buxoro amirligida Qushbegi mansabi XVIII asrning o'rtalariga kelib yetakchi o'ringa chiqib, u davlat apparatining asosiy bo'g'ini sifatida barcha boshqaruvning asosiy funksiyalarini o'z qo'lida to'play borgan. Qushbegi mahalliy beklar orqali markaziy davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir qatorda, chet mamlakatlardan keladigan mulklardan olinadigan boj to'lovlari ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Kalit so'zlar: Davlatchilik, Buxoro amirligi, Qushbegi, mang'it urug'i, Amir Haydar, amir Nasrullo, amir Muzaffarxon, otaliq, moliya idorasi, vaziri harb, qozilik mahkamasi.

Аннотация: В Бухарском эмирате положение Кушбеги поднялось до лидирующего положения в середине XVIII века, и он, как главное звено государственного аппарата, собрал в своих руках все основные функции управления. Помимо осуществления центрального государственного управления через местные попрошайки, Кушбеги осуществлял контроль за таможенными платежами с товаров, поступающих из зарубежных стран.

Ключевые слова: Государственность, Бухарский эмират, Кушбеги, род Мангит, Амир Хайдар, Амир Насрулла, Амир Музаффархан, аталик, финансовая канцелярия, военный министр, судебная власть.

Annotation: In the Bukhara Emirate, Kushbegi's position rose to a leading position in the middle of the 18th century, and he, as the main link of the state apparatus, collected in his hands all the main functions of government. In addition to exercising central government administration through local beggars, Kushbegi exercised control over customs payments for goods coming from foreign countries.

Key words: Statehood, Bukhara Emirate, Kushbegi, Mangit clan, Amir Haydar, Amir Nasrullah, Amir Muzaffarhan, atalik, financial chancellery, minister of war, judiciary.

O‘zbekiston davlatchiligi boy tarixga ega bo‘lib, uning uzoq davrlar davomida tarkib topgan nazariy-huquqiy tajribalarini zamonaviy, demokratik, huquqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish va jamiyatimiz turmushida ulardan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, xalqimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosini, xususan milliy davlatchiligimiz tarixida o‘ziga xos davr hisoblangan Buxoro amirligi davlati tarixini o‘rganishga, hozirgi kunda O‘zbek davlatchiligi tarixi fani oldida turgan eng muhim masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Davlatchiligimiz tarixini o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratilayotgan bugungi kunda Buxoro amirligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari, oliy tabaqa amaldorlar va quyi ma‘muriy birliklardagi mansabdor shaxslar hamda harbiy-ma‘muriy va diniy amaldorlarning davlat boshqaruvidagi o‘rniga doir ilmiy asarlarga ehtiyoj kattadir. Buxoro amirligida oliy harbiy-ma‘muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang‘it urug‘iga mansub bo‘lgan kishilardan tayinlangan. Shu bilan birga, bu davrda mang‘itlarga va boshqa o‘zbek urug‘lariga mansub bo‘lmagan kishilarning ham davlat boshqaruvida yuqori amallarni egallash holati ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda, davlatda amirdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan qushbegi mansabiga forslar orasidan tayinlangan kishilarning borligiga ham e‘tiborni qaratish lozim. Masalan, Amir Haydar davridan boshlab ular mahalliy urug‘ boshliqlarining markaziy hokimiyatga qarshi kurashlarini cheklash maqsadida, davlat mansablariga o‘zlarining eronlik qullarini jalb qilish siyosatini qo‘llay boshladilar[1, B. 164^a]. Bu siyosatni amir Nasrullo va Muzaffarxonlar ham davom ettirdilar. Natijada quyidan to eng yuqoriga qadar boshqaruv va ijro hokimiyati asta – sekinlik bilan eroniy shialar qo‘liga to‘plana bordi. Masalan, so‘nggi to‘rtta qushbegi eroniy qullar avlodidan bo‘lgan. Ayniqsa, amir Muzaffar ko‘pgina ishlarni Muhammadshoh qushbegi ixtiyoriga tashlab qo‘yadi[2, S. 61-66]. Buxoro amirligida markaziy boshqaruv quyidagi asosiy idoralar orqali amalga oshirilardi: amir – davlat boshlig‘i; qushbegi – bosh vazir; otaliq; moliya idorasi; vaziri harb; qozilik mahkamasi[3, B. 27]. Amir davlatni mansabdor shaxslari, ya‘ni amir xizmatchilari orqali boshqarardi. Ushbu mansabdor shaxslar davlatning boshqaruv apparatini tashkil etgan. Buxoro amirlari o‘z shajaralarini Muhammad payg‘ambardan boshlaganliklari sababli ularning unvonlariga “said” so‘zi qo‘shib aytilgan. Amir yonida

doimiy ravishda uning shaxsiy yozishmalarini olib boruvchi ikki nafar kotibi bo‘lgan. Markaziy davlat boshqaruvini bir qator idoralar majmuasi tashkil etib, davlatning oliy boshqaruv organi – oliy davlat mansabi hisoblangan qushbegi tomonidan boshqariladigan davlat devonxonasi (qushbegi devonxonasi) hisoblangan[4, S.188]. Qushbegi mansabi ilgari mavjud bo‘lgan bo‘lsada[5,S.48], XVII asrga kelib “otaliqlik” unvoniga nisbatan uning ahamiyati va vakolat doirasi ancha toraygan. Buxoroda oliy ma‘muriy hokimiyat birinchi amaldor — qushbegi qo‘lida edi, qushbegi biz tasvir etayotgan davrda faqat poytaxt boshlig‘i bo‘lishdan tashqari, xonlikning butun ma‘muriy va xo‘jalik ishlarini boshqaruvchi bosh vazir ham edi[6,B.84]. Qushbegi lavozimiga davlatning tajribali, ishbilarmon, siyosatdon kishilaridan tayinlanib, nomzod avval devonbegi mansabida faoliyat yuritgan bo‘lishi lozim bo‘lgan. U saroydagi eng yuqori unvon egasi sifatida davlatda amirdan keyin turgan. Turklardagi ulug‘ vazir yoki Yevropadagi davlat kansleri singari, qushbegi amirning eng yaqin maslahatchisi va ishonchli kishisi bo‘lgan. Qushbegi bir vaqtning o‘zida amirning shaxsiy muhrini saqlash, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qilish, shuningdek moliya ishlarini boshqarish kabi mas‘ul vazifalarni ham amalga oshirgan.

Amirlikdagi turli viloyatlardan amirning bosh boshqaruv markazi – Arkiga haftalik ma‘lumotlar choparlar orqali yetkazib turilgan.

Turli viloyatlardan kelgan maktublarning bir xil shakl mazmundaligi o‘sha paytda amirlik devonxonalari uchun maxsus kotiblar o‘qitilganligidan dalolat beradi. Ko‘pincha kotiblarning dastxatlari ham bir xil, bir-biriga o‘xshab ketadi. Ana shu choparlar orqali Arkka qushbегining qo‘liga keltirilgan har xil hujjatlar qayd qilish daftariga qayd qilingach, devonxona sandiqlariga taxlab qo‘yilgan. Buxoro amirligida savdo-sotiqdan olinuvchi barcha bojxona to‘lovlari boshqaruvi ham qushbegi qo‘lida bo‘lishi bilan bir qatorda, u yer solig‘ini yig‘ish va yer-mulklarni berishni ham nazorat qilgan. Bulardan tashqari unga amir saroyi xavfsizligini nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan. Rus tadqiqotchisi A.A. Semenovning ma‘lumotlariga ko‘ra, amir yo‘q paytda qushbегining arkni tark etishgahaqqi yo‘q edi. Manbalarga qaraganda, qushbегining arkda alohida uyi, hovlisibo‘lgan. Har kuni kechqurun shaharning kechasi qulflanadigan darvozasi kaliti qushbегiga olib kelib berilgan va ertasiga ertalab esa kalitlar yana darvozabonlar boshlig‘iga qaytarilgan. Qushbegi faqat Buxoro viloyati hokimi bo‘lib qolmasdan, barcha beklarningham oliy boshlig‘i edi. Amir nomiga kelgan xabarlar va shikoyatlarni ko‘rib chiqishunga topshirilgan. Qushbegi barcha ishni amir roziligi bilan qilgan va har kuni ungayozma yoki og‘zaki axborot berib turgan[7, S. 46]. Buxoroning bosh qushbegisi “yuqori qushbegi” yoki “qushbegi bolo” deb atalgan. Bundan tashqari, “quyi qushbegi” yoki “qushbegi poyon” deb atalgan amaldor ham bo‘lgan. Yozma huquq manbalarining asosiy turiga kiruvchi qozilarning ariza, xat, qaror va hukmlarini o‘rganish davlat va huquq tarixi masalasining muhim ob‘ekti hisoblanadi. Misol tariqasida, 1917 yilda qozi Muhammad Sharif tomonidan qushbegi nomiga rus fuqarosi David Tushirov yerlarini tekshirish haqida ariza va qozi kalon Burxoniddin tomonidan Mirbiy qushbegi nomiga Yangi Buxoro shahridagi qozixonada rus fuqarolariga yerlarni to‘g‘ri rasmiylashtirib berish haqida yo‘llanma xatlarni[8, B. 7] keltirib o‘tish mumkin. Shu o‘rinda qozilarning ma‘lum bir masalani hal qilishga qaratilgan qaroriga e‘tibor qaratish joiz. Masalan, 1909 yilda to‘rt nafar voyaga yetmagan o‘g‘il bola va ikki nafar voyaga yetmagan qiz bolani oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta‘minlash uchun ularning katta akasini boquvchi etib tayinlash haqida

qaror (xati-nafaqa va tayini vasiya)[9, B. 272]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Buxoro amirligida jinoyat va jazo bilan bog‘liq faoliyatni amir yoki uning nomidan qushbegi nazorat qilgan. Birinchi navbatda qozilik sudi fuqarolik ishlari, jinoiy ishlar hamda xususiy ayblov asosidagi jinoyat ishlarini muhokama qilgan[10, S. 38]. Ma’muriy idoralar sudi, amir sudi, beklik sudlari asosan jiddiy xarakterdagi jinoyatlarni, ya’ni davlat va uning siësatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, davlatga xiyonat qilish, davlatning ichki va tashqi xavfsizligiga tahdid qilish kabi jinoyatlarni ko‘rib chiqqan. O‘lim jazosini tayinlash bilan bog‘liq hukmlar jazo chorasining ta’sirini kuchaytirish maqsadida saroy oldida yoki boshqa odamlar ko‘p to‘planadigan hududlarda ijro etilgan. Jazoni ijro etish tartibiga amal qilish ustidan nazoratni qushbegi amalga oshirgan. “Jazoni ijro etish oldidan haloyiq oldida har bir mahkumning ma’lumoti o‘qib eshittirilgan. Keyin esa jazoni ijro etish yuzasidan buyruqni qushbegi mirshabga yoki to‘pchiboshiga uzatgan va nihoyat ijro haqida jallodga farmoyish berilgan”[11, S. 59].

Xullas biz so‘z yuritayotgan Qushbegi mansabi Buxoro amirligining eng yuqori lavozimlaridan biri ekanligini yuqorida berilgan ma’lumotlar orqali ham ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мухаммад Яъқуб. Гулшан ал-мулук. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси №1507, 164^а в.
2. Ахмад Дониш. История мангитской династии / Пер., предис. и прим. И.А.Наджафовой. – Душанбе: 1967. – С. 61-66).
3. Ж.М.Шодиев. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. Тошкент 2010., ТДЮИ нашириёти, -Б.27.
4. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: “Типография Императорской Академии Наук”, 1843. – С.188
5. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их средневековой Бухаре // Советское востоковедение.. – М.: 1948. Т.В – С.148.
6. Ж. Баракаев, И. Хайдаров. Бухоро тарихи (энг қадимги даврлардан улуғ октябр инқилобигача). Тошкент «Ўқитувчи». 1991. –Б.84.
7. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени//Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. – Сталинабад, 1954. – С. 46.
8. Ўзб. Рес. МДА, ф. № И-126, рўй.2, йиғма жилд № 1383, 7 в.
9. БДБАМҚ. Инв. № 379/272
10. Артемов В. Шариат – общая характеристика, понятия и классификация преступлений // Законност. – Москва. 1997. - №10. – С.38.
11. Семенов А.А. Очерк устройства центрально-административного управления Бухарского ханства позднейшего времени / Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. – Ташкент, 1954. Вып.2. – С.59.

MUNDARIJA:

<i>I SHO‘BA: YEVIROOSIYO XALQLARINING QADIMGI, O‘RTA ASRLAR, YANGI VA ENG YANGI DAVRIDAGI MADANIY ALOQALARI</i>	
Kirish so‘zi	4
1. Арстанов Сабыркул. Территориально-административная политика Российской империи в Кыргызстане (в конце XIX–начале XX века).....	6
2. Жумашова Гүлзада. Социально-территориальные общности, сформировавшиеся в малых городах Кыргызстана	11
3. Генито Бруно, Пардаев Шерзод. Ancient Iran: ethnos, epigraphy and history of the Achaemenid dynasty.	16
4. Атаходжаев Анварь, Наймар Александр. Клад медных раннесредневековых согдийских монет из Илонутинского ущелья на пути от Самарканда к Джизаку.	22
5. Зуев Андрей, Каримова Наргиза. Дипломатические и торгово-экономические отношения Бухарского ханства с русским государством в XVI-XVII века.	28
6. Ахмедшина Фания. Современное состояние и перспектива развития мировой и национальной индустрии медицинского туризма	32
7. Кобзева Ольга, Ваисова Нодирабегим. Культурное наследие согдийцев в Японии	38
8. Mirkomilov Baxtiyor. Kichik Osiyoda Usmoniylar hukmronligining o‘rnatilishi tarixidan	42
9. Чыныкеева Гулназ. Основные тенденции этнодемографического развития на Юге Кыргызстана: религиозный состав населения	45
10. Хакимниязов Ж. Общественно-культурные и мемориальные памятники южного Приаралья в эпоху Темуридов	49
11. Каримова Наргиза. Некоторые вопросы о торговле бакалейными товарами в Центральной Азии (в начале XX века)	51
12. Shapulatonva Guljaxon, Rasulova Sevara. Oks va Xarappa sivilizatsiyalari madaniy aloqalarni o‘rganishda oltin buyumlarning o‘rni.	55
13. Шаанов Талант. Особенности развития культуры в Кыргызстане на рубеже XX-XXI вв.	59
14. Abdusamatova Nurxon. Buxoro amirligining XVIII-XIX asrlardagi savdo yo‘llari.....	64
15. Saidov Javohir, Nabiyeu Maqsud. Qadimgi savdo yo‘llarining mamlakatlar o‘zaro munosabatlaridagi o‘rniga doir	67
16. Xolmurodov Dilshod. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida tibbiyot sohasida hamkorlikning rivojlanishi	69
17. Мамарасулов Умиджон. Дипломатические и торгово-экономические отношения Хивинского ханства с русским государством В XVI-XVII века.....	75

II SHO‘BA: TARIXNI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIYA, ETNOGRAFIYA, TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI	
1. Pardayev M., Pardayev Sh., Hasanboyev T. Ustrushonaning o‘rta asrlar tarixiga doir yozma manbalarning qisqacha sharhi	80
2. Грицина Алексей Андреевич. Из истории виноградарства и виноделия Центральной Азии (в историко-археологическом аспекте).....	87
Xolmurodov R. Tarixiy o‘lkashunoslik fanini o‘rganishda sharof rashidov muzeyi manbalaridan foydalanishning ahamiyati	92
3. Нормаматова X.A. Илк ўрта асрлар Ўрта Осиёда ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tanga zarbi	97
4. Abdullaev Baxtiyor Manopovich, Boliev Bahridin Niyozovich. Dala tadqiqotlarida topilmalar restavratsiyasi	102
5. G‘ofurov Jasur Isaqovich. Shimoliy Ustrushona qishloq makoni xususida (Miq qal‘asi qishloq makoni misolida)	104
6. Nasriddinov Shukrullo Nazrullaevich. Qirqxujra (Chilxujra) - G‘ovasoyning quyi oqimida shakllangan ilk urbanizatsiya markazi.	108
7. Sandiboev A.N, Alimov N., Berdiev A, Gapparov U, Rahmonov O‘.E. O‘rta asrlardagi Zarnuq qa‘asining lokalizatsiya masalalari	110
8. Mirkomilov Baxtiyor. Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda shaharlar ravnaqi ..	113
9. Nurqulova Raya Ruzievna. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligi...117	
10. Pardaev Axrorqul Hasanovich. Tarixi mushtarak shaharlar: Jizzax va O‘ratepa shaharlari tarixidan (XVI-XIX asrlar).....	119
11. Aqchaev Farrux Shavkatovich. Zamonaviy o‘zbek oilalarida milliy va diniy tarbiya xususiyatlarining aks etishi	125
12. Mirzaev Bekzod Nuralievich. Shayboniy Abdulazizxonning ma‘rifiy faoliyati xususida mulohazalar	130
13. Hasanboev To‘raqul Foziljon o‘g‘li. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-Bilod” asarida Jizzax tavsifi	133
14. Isabekov Behzod. Tunkat yodgorligidan topilgan Qoraxoniylar davriga oid tanga xususida	136
15. Rahimov K.A. Chillatepa yodgorligida olib borilgan dastlabki arxeologik tadqiqot natijalari	138
16. Olimov Sanjarbek Vohidjon o‘g‘li. Qo‘qon shahri va atrof tumnalardagi yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixidan	141
17. Rayimjonov Ismoil Xoshimjon o‘g‘li, Abdualimova Zilola. Qadimgi Farg‘ona vodiysi urbanizatsiya jarayonlari o‘rganilish tarixi	142
18. Suyunov Odil. Tarixni o‘rganishda shaxsiy arxiv fondlarining ahamiyati (O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi misolida)	145
19. Valiev Akbar Xalilovich. Harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekistonda aholi bandligi masalalari tarixshunosligi.....	149
20. To‘ychiboev Bahodir Bosimovich. Qoyatosh tasvirlari tematikasi xususida	152
21. Xamraev G‘ayrat G‘anievich. Buxoro amirligida qozilik ishlarining yuritilishi	

tarixidan	155
22. Qudratov Davlatbek Turdibekovich. Ilk oʻrta asrlar davri shaharlarining taraqqiyoti	159
23. Mamatov Sharofiddin Musurmonkulovich. Qadimgi davr, ilk va rivojlangan oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlarida qishloq jamoalari	161
24. Toʻpchiev Usmon Sindorovich Oʻzbekiston uzumchiligi tarixini yoritishda manbalarning oʻrni	166
25. Fayzullaev Akbar Abdukarimovich. Oʻzbekistonda arxiv tizimi	171
26. Hamraeva Yulduz, Yuldashev Jamol. XIX asrda quyi Zarafshonda boshlangan arxeologik kuzatishlar va ularning natijalari xususida	174
27. Abdurasulova D.T. Jizzax shahar madaniy hayotida kutubxonalar va davriy matbuotning oʻrni	179
28. Eshmuhamatov Axror, Tojikulov Vohidjon. Jizzax vohasi hunarmandchiligi anʼanalari (Etnologik dala tadqiqotlari misolida)	182
29. Nazarov Obid Rahimovich, Egamqulova Xusnora Davlatbek qizi. Soʻgʻd davlati va uning manbalarda yoritilishiga oid ayrim mulohazalar	188
30. Nazarov Obid Rahimovich, Qosimova Eʼtibor Gʻayratovna. Turk xoqonligi davlatchiligi tarixi manbalarda aks etishiga oid ayrim mulohazalar	192
31. Maʼrufov Sherzod Komil oʻgʻli. Sirdaryo viloyatida joylashgan arxeologik yodgorliklarning qisqacha tahlili	195
32. Joʻraeva Dilfuza Jangirovna. Moziyga muhrlangan sagʻana	199
33. Muminova Gulchexra Ismoilovna. Qadimgi Ustrushona kulollik hunarmandchiligining mahalliy hususiyatlari haqida	202
34. Hazratov Nurali Burxon ugʻli. Olimov Ulugbek Nabi ugʻli. Kesh viloyatining paleolit va neolit davri tarixiy geografiyasi haqida.	207
35. Alimbetov Ansatbay. XI-XIV asrlardagi Mizdoxkan turar joylari va ularning Xorazm qurilish madaniyatidagi oʻrni	209
36. Majidov Akbar Fayzullaevich. XIX asr Samarqand shahri anʼanaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishiga doir	213
37. Abdugapparov Orif Abdugapparov. Zarafshon qoraqalpoqlarining moddiy madaniyatidagi oʻzgarishlar xususida	216

III ShUʻBA: OʻTROQ DEHQON VA KOʻChMANChI ChORVADORLAR MADANIYA TI: KULTUROGENEZ VA ETNOGENEZ MASALALARI

1. Matboboev Boqijon Xoshimovich Xoshimov X.B. Fargʻona vodiysi ilk temir davrida ilk saklar muammosi	219
2. Pardaev Muxtorqul Xasanovich. Ustrushonada sugʻorma dehqonchilik va qishloq xoʻjaligi “okrug”larini tashkil topishi xususida (Jizzax vohasi misolida).....	221
3. Toshboev Furqat Eshboevich. Markaziy Osiyo xalqlari harbiy sanʼati tarixidan	227
4. Satibaldieva Ch.T. Anʼanaviy qirgʻiz gilamlarida “Qoʻchqor shoxi” ornamenti orqali etnikmadaniy va etnogenetik xususiyatlarni aks ettirish.	231
5. Neʼmatov Rustam Abduvaid oʻgʻli. Ilk oʻrta asrlarda Xorazm vohasida yuz bergan etnik jarayonlarda yetakchi unsurlar	234

6. Djuraev Ikrom, Abdumo‘minov Abdunabi. O‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador madaniyati: Farg‘ona vodiysi misolida	238
7. Alibekov Umurzok Yuldashevich. Ustrushona dehqonchilik madaniyatining evolyusiyasi xususida	240
8. Toshboev Furqat, Uzoqov S. Jizzax vohasida tarixiy-madaniy va ziyorat turizmni rivojlantirish masalalariga doir.	244
9. Eshmuhammatov Axror Sharipovich. Chorvadorlar xo‘jaligining tarkib topishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari (Jizzax vohasi misolida)	247
10. Nazarov Obid Rahimovich, Durdimuradova Dilnoza. Markaziy Osiyoda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi omillari	253
11. Muminova Gulchexra Ismoilovna. Ustrushona ilk o‘rta asrlar kullolik idishlarining turlariga doir ayrim mulohazalar.....	256
12. Tugalov Boburjon Baxodir o‘g‘li. Ustrushona qabr inshootlarining davrlashtirilishi masalalari xususida.	259
13. Bazarbaev Sanjar Xamzaevich. Ilk o‘rta asrlarda Ustrushona xalqlarining madaniy hayoti	262
14. Majidov Anvar, Omonxonov Javlon. Imperiya ko‘chiruvchilik amaliyotining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri (Sirdaryo viloyati misolida)	265
15. Axmedova Zarnigor. XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Samarqand viloyati ko‘chmanchi aholisi ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar	270
16. Almanov Qaxramon Oblaqulovich. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi etnomadaniy muhitida mang‘itlar	273
17. Mirzaeva N.J., Xolnazarova A. Mirzacho‘l vohasi tarixining manbalarda yoritilishi(XIX asrning oxiri – XX asr boshlari)	278
18. Boltaev Abdurasul. Dehqonchilik madaniyatida sug‘orish sirlari.	280
19. Kistaubaev S. Jizzax viloyati cho‘l hududlari toponomikasiga nazar	283
20. Sherniyazov R.X. Quyi Amudaryo havzasi axolisining sungi urta asrlardagi etnosiyosiy jarayonlari	286
21. Abdugapparov Orif. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy xo‘jaligi xususida.....	289
IV ШУЪБА: МАРКАЗИЙ ОСИYO XALQLARI TARIXINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA YoRITILISHi: MUAMMO VA O‘RGANISH USULLARI	
1. Majidov Anvar. Sharofov Sirojiddin. O‘zbekistonda diniy tolerantlik va millatlararo totuvlikning tarixiy ildizlari xususida.....	291
2. Yakubov G‘ulom Salohiddinovich. Jizzax aviatsiya bilim yurtining O‘zbekiston harbiy ta’lim rivojida tutgan o‘rni.....	296
3. Narmanov Feruz Asfandiyorovich. O‘zbekistonda tarix fani o‘qitilishiga doir ayrim mulohazalar (XX-asrning 30-40 yillari).	298
4. Toshboev Jamshid. Siyosiy tizim transformatsiyalashuvining siyosiy jarayonlarga ta’siri	300
5. Toshboev Bobomurot. O‘zbek millati shakllanishida o‘troq dehqon va chorvador ko‘chmanchi madaniyati simbiozining o‘rni	304
6. Abduazimov Davron. O‘rta asrlar davlatchiligida davlat boshqaruvining ayrim jihatlari xususida (VI-XIV asr o‘rtalari)	307
7. Hayitov Shodmon Ahmadovich, Rahmonov Kamol Jamolovich. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi davriy matbuot sahifalarida (“Ozod	

Buxoro” gazetasi materiallari asosida)	
.....	312
8. Zaripbaev Usnatdin Orakbaevich. Ikkinchi jahon urushi yillarida qoraqalpolg‘iston ASSR prokuratura organlari faoliyati	314
9. Ibragimov Alisher Qurbon o‘g‘li. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, demokratik tamoyillarni amalga oshirishning innovatsion mexanizmlari	317
10. Valiev Akbar Xalilovich. Amir Temur faoliyatida aholi bandligi va ijtimoiy himoya masalalari	321
11. Burxonov Lazizjon Salimjon o‘g‘li. Amir Temurning harbiy yurishlari.....	323
12. Nasirov Otabek Nazirjanovich. Развитие ремесла в период темуридов.	326
13. Ermuxammadov Ozodbek Ermuxammad o‘g‘li. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni istilosiga doir	328
14. Ibragimov Alisher Qurbon o‘g‘li, Ibragimova Zebiniso Safarbaevna. O‘zbekistonda siyosiy barqarorlikni ta‘minlashda ijtimoiy islohotlarning o‘rni	332
15. Usmonova Gulsanamxon Yorqinovna. Maktab o‘quvchilarining axborot madaniyati tushunchasishakllantirish va rivojlantirish masalalari	335
16. Jumaev Jurabek. Yangi yerlarni o‘zlashtirishda Nurota vohasidan aholini ko‘chirish jarayonlari xususida	338
17. Norboev Sarvar Qaxramon o‘g‘li. Sug‘d mudofaa devorlarining o‘rganilishi (1950–1970 yillarda Afrosiyobda olib borilgan tadqiqotlar misolida)	341
18. Jumaev Temur Jamol o‘g‘li. O‘zbekistonning 1989-1991 yillardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy manzarasi xususida.....	343
19. Ishmatova O. S. Jahonda va O‘zbekistonda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘lim -tarbiyasi tarixi	345
20. Bobojonov Safar. Imkoniyati cheklanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha respublikamizda olib borilayotgan islohotlar xususida	349
21. Sayidov Murod. Yusuf Xos Hojibning jamiyat va davlatni idora qilishda siyosiy madaniyatning roli haqidagi qarashlari	352
22. Xo‘jamberdi Tog‘aev, To‘ychi Jabborovich Ismoilov. Madaniyat va sifatli ta‘lim durdonasi “kitobxona”ni “kutubxona” deyilib kelinayotgani haqida mulohazalar.....	355
23. Eshboev Shaxriyor Furqat o‘g‘li, Gaybullaev Shaxzod Nasim o‘g‘li. Jismoniy tarbiya va sportning tarixiy tarraqiyot davrlarini o‘rganish masalalari	360
24. Ктайбеков Азамат Маманович. Людские ресурсы в экономике Каракалпакстана и эффективность использования человеческого потенциала.....	363
25. Begimqulov J., Davronov B. Jevachi atamasi xususida yoki qo‘shon jevachi faoliyatiga bir nazar.....	365
26. Boltayev A. Jizzax vohasi- xalqaro turizmning “qo‘nalg‘asi”	368
27. Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna. O‘zbekiston tarixida SSSR davri gender tenglik masalasining tub ildizlari va uning qonuniy asoslari yaratilishining ba‘zi masalalari.....	373
28. Tilavova Guljaxon Lapasovna. Sharof Rashidovning Vatan ravnaqi, elu yurt farovonligi yo‘lida amalga oshirgan buyuk xizmatlariga doir.....	376
29. Begimqulov J., Asatov Y. Shohrux mirzoning hindiston sultonlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari tarixidan.....	379

30. Sirliiev Asraf Sa’dullaevich. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish masalalari.....	382
31. Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich. Mustaqil O‘zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy ta’minot huquqini kafolatlanishi xususida	384
32. Inomova M. O‘zbek musiqashunosligi tarixiga oid qadimgi manbalar haqida...	388
33. Eshboev Shaxriyor Furqat o‘g‘li. Qadimgi davr jismoniy tarbiya rivojlanish davrlari tarixi.....	391
34. Soatov R. Boborahim Mashrabning falsafiy-axloqiy qarashlarida gumanistik g‘oyalar talqini.....	393
35. Hamrayev G’. Buxoro amirligining boshqaruvi tizimida qushbegi lavozimining tutgan o‘rni	396

**“MARKAZIY OSIYO XALQLARI MODDIY VA MA’NAVIY
MADANIYATI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR, MUAMMO VA
O‘RGANISH USULLARI”
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА НАРОДОВ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»**

Muharrir: **M.Jo‘raboyev**
Texnik muharrir: **S.Normammedov**
Sahifalovchi: **O.A.Abdug‘apparov**
Musahhiha: **G.Kodirova**

*Guvohnoma № _____, 20.04.2020 y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 10.11.2023.
Format 70x108 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 22.0 Adadi 50 nusxa. Buyurtma № _____.*

«Jizzax DPU Tahririy-nashriyot bo‘limi».
130002, Jizzax shahri, SH.Rashidov ko‘chasi, 4.
Tel./faks: (+99872) 226-02-93

www.jspu.uz

**ДЖИЗАК, УЗБЕКИСТАН
31 октября 2023 года**